

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

Samarqand davlat universiteti

Mexanika-matematika fakulteti Amaliy matematika bo`limi

«Matematik modellashtirish» kafedrasida

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakultetining Ijtimoiy ish bo`limi talabalari uchun
«Informatika va axborot texnologiyalari» fanidan

Ma`ruzalar matni

Tuzuvchilar: dots. I.N. Bozorov
U. R. Shodiyev
A. A. Omonov

Samarqand 2012

Mundarija

№	Mavzular nomi	Bet
1.	Kirish. Informatika va texnik vositalarning asosiy tushunchalari, rivojlanish tarixi va axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi roli	3
2.	Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari	11
3.	Axborot va kompyuter texnologiyalarining asosiy vositalari. Zamonaviy kompyuterlar, ularning asosiy xarakteristikalari, umumiy tuzilishi va foydalanish sohalari	23
4.	Zamonaviy operasion tizimlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar.	31
5.	MS DOS operasion tizimi, vazifasi va asosiy buyruqlari. Fayl va kataloglar bilan ishlash	35
6.	Norton Commander dastur qobig'i, umumiy ma'lumotlar va imkoniyatlari. NC oynasi bilan ishlash. Funktsional tugmachalar	45
7	Windows operasion tizim to'g'risida ma'lumot. Ekran. Oyna tuchunchasi	58
8	Windows dasturining Пуск menyusi. Все Программы papkasidagi Стандартные bo'limi	64
9	Word matn muharriri	71
10	Ms Word dasturida Word Art paneli bilan ishlash	76
11	Excel electron jadvali	80
12	Kompyuter grafikasi. Adobe Photoshop dasturi	94
13	Kompyuter taqdimotlari. Microsoft Power Point dasturi.	107
14	MS ACCESS dasturida ishlash	117
15	Axborotlarni qayta ishlashni hozirgi zamon vositalari	141
16	Shaxsiy kompyuterlar arxitekturasi va ularni effektivligini	143
17	Modemni ishlash tamoyili	147
18	Internet tarmog'i	149
19	INTERNET global tarmog'ida axborotni qabul uzatish va qabul qilish texnologiyasi	170
20	Elektron pochta	174
21	HTML da Web – saytlarni yaratish	183
22	Kompyuter virusi va antivirus tushunchalari	196
23	Tarmoqlarni harakteristikasi va ularni qo'llash xususiyatlari. Lokal kompyuter tarmog'i. Hisoblash kompleksi. NETWARE tarmog'i. Global tarmoq. Bank tarmog'i	198
24	Masofaviy ta'lim tushunchasi. Masofaviy ta'lim modellari. O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi	215
25	Kompyuter bilan ishlashda hayotiy faoliyat xavfsizligi qoidalari va talablari	220
26	Adabiyotlar ro'yxati	236

1-Mavzu: Kirish. Informatika va texnik vositalarning asosiy tushunchalari, rivojlanish tarixi va axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi roli

Reja:

1. Informatika to'g'risida ma'lumotlar.
2. Informatika fanining predmeti.
3. Informatikaning asosiy qismlari.
4. Informatika va HT ning rivojlanish tarixi.

Tayanch iboralar: informatika, dokumentalistika, informasion texnologiya, mexanik mashina, elektron hisoblash mashinasi, EHM avlodlari.

Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bulmokda. Inson yangilik yaratish jarayonid har xil to'siqlarga duch keladi va shu to'siqlarga yengib utish mobaynida yana yangi ixtirolar vujudga kelaveradi. Lekin, hayot tajribalaridan ma'lumki, kupincha yangi kashfiyot ma'lum bir muammoni xal qilish jarayonida vujudga keladi. Biz suzsiz kompyuterning XX asr ning buyuk kashfiyotlaridan biri desak yanglishmaymiz. Davr talabiga kura bugunga kelib kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lumotlarni boshkarish, ayniksa, xozirgi kunda muxim axamiyat kasb etmokda. Ma'lumotlarni boshkarish tizimlariga bo'lgan talab kun sayin ortib bormokda. Katta xajmdagi ma'lumotlar bazasi va axborotlar ustida ishlashga tugri kelyapti. Jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan jadal uzgarishlar uning bir qismi bo'lgan informatika soxasiga xam uz ta'sirini kursatmokda. Bu ta'sir shunchalik kuchliki, axborot texnologiyalarida bulayotgan uzgarishlar yillar ichida emas, balki oylar ichida uzgarib va boyib bormokda. Axborot texnologiyalarida juda katta yutuk va uzgarishlar amalga oshdi. Yangi axborot texnologiyalarining yoki kompyuter texnologiyalarining paydo bulishi bu soxadagi xizmat qilish uslubini tubdan uzgartirdi. Tasavvur kilib kuring, yakin-yakinlargacha biror maslani kompyuterda yechish uchun algoritmlarni, dasturlash tillaridan birini, dasturni kompyuter xotirasiga kiritishni, uning xatolariyu natijani taxlil qilishni talab kilar edi. Bu ishni fakat mutaxassislargina amalga oshirar edilar. Ammo bu soxada mutaxassis bulmagan foydalanuvchilar sonining kundan-kunga ko'payishi jamiyat oldida ma'lum kiyinchiliklarni tugdirdi. Windows ni yoki bu asosida kurulgan informasion texnologiyani yana xam tushunib olish uchun kuyidagiga e'tiboringizni karatmokchimisiz. Supermarketda barcha ta'minot masalasini uning direktori xal kilsa, servisda xam xuddi shu xol ruy beradi. Yangi axborot texnologiyasining direktori Windows dir. Agar sizga matn muharriri kerak bulsa, Windows sizni u bilan ta'minlaydi, siz hisob-kitob qilmokchimisiz, marxamat, Windows sizga elektron jadvalni taklif etadi. Ayniksa, bu tizimda, Inernet, elektron pochta (E-mail) kabi imkoniyatlarining mavjudligi, WIndows ning roli bekiyosligidan dalolat beradi. Bu sistemaning tarkibida xizmat qilishning yuzlab turlari mavjudki, ularni urganish va foydalanish jamiyatning har bir a'zoi, ayniksa, talabalar uchun juda muximdir. Kompyuter fakatgina DOS buyruqlarni tushunadi. DOS bilan kompyuter orasidagi interfeys matnli bulib, barcha bo'yruqlar qo'lda- klaviaturada kiritiladi. Axborot texnologiyasi -bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bulib, ular yordamida biz ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan xayotdagi turli-tuman masalalarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan xayotdagi turli-tuman masalalarni xal etamiz. Xususan, axborotning eng asosiy turlaridan biri-iqtisodiy axborotlardir. Uning oddiy ma'lumotdan farkli tomoni shundaki, u odamlarning katta jamoalari bilan, tashkilotlar bilan, korxonalar va boshka iktisodiy strukturalardagi boshkarish jarayonlari bilan bog'liqligidadir. Informatika keng ma'noda fan, texnika va ishlab chikarish, ya'ni inson faoliyatining barcha soxalarida axborotni kompyuter va telekommunikasiya yordamida qayta ishlash, saklash, uzatish bilan bog'liq bo'lgan yagona soxadir.

Informatika fan nomi lotin tilidan axborotlarni tushuntirish va taxlil qilish ma'noni bildiradi, bu fan axborotlarni jamlash va qayta ishlash usullarini, axborotlash jarayonini konuniyatlarini urganadi. Informatika atamasi XX asrning 60 yillarida paydo bulib ishlata boshlandi. Informatikani yuzaga kelish va rivojlanishida xisoblash texnika va boshka texnik vositalarning urni bekiyos, chunki axborotlar bevosita xisoblash texnikasi kumagida qayta ishlanadi va bu fan uzining xususiy, yangi, nostandart uslub va usullariga yegadir. Demak, **informatika** bu inson faoliyatining turli

jabhalaridagi axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shugullanuvchi fandır.

Informatika uchun asosiy ashyo - axborot. U informatika fanining asosiy tushuncha sifatida kabul kilingan. Axborot uzi nima? **Axborot** bu barcha sezgi organlarimiz orkali kabul kila oladigan ma'lumotlar majmui va ularning uzaro boglanish darajasidir. Axborotlar xabar kurinishda buladi. **Xabar** - bu informasiyaning suzlashuv, matn, tasvir, jadval, sonli ma'lumotlar va x.k. kurinishdagi turidir. Inson tashki ta'sirnatijasida sezgi organlar orkali axborotlarga yega buladi. Bular: ta'm bilish, xid sezish, eshitish, kurish, teri-badan sezgisi.

Axborotlarni tuplash, qayta ishlash va uzatish vositalarga bo'lgan yextiyoji juda katta. **Uzatish vositalari** - sputnik, televizor, radio, magnitafon, video, telefon va x.k. Tuplash va tashuvchi vositalar deb kitob, gazeta, kasetta va dikslarni tushunishimiz mumkin. Axborotlarni ustidan har xil amallarni bajarish jarayoni - **axborot texnologiyasi** deb nomlanadi. Axborot texnologiyasini asosiy texnik vositasi bu kompyuter.

Informatika to'g'risida gap ketganda, har bir kishi qandaydir axborotlar haqida fikr borayotganligini va bu axborotlar nimagadir yoki kimgadir tegishli ekanligini tushunadi. Bu axborotlar qayerdan olingan, qanday saqlangan va ularni manbai qayerda ekanligi ko'pchilikni qiziqtirishi mumkin.

Qadimda insonlar, qog'oz mavjud bo'lmagan vaqtlarda, o'sha davrga tegishli ma'lumotlarni toshlarga, daraxt barglariga, gildan (loydan) yasalgan tablichkalarga yozib qoldirishgan. Bu ma'lumotlar esa cherkovlarda yoki ibodatxonalarda saqlangan. Shuning uchun xam bu ma'lumotlarga ega bo'lish, ularni o'rganish hammaga ham nasib qilavermagan. O'qishni yoki yozishni bilmagan kishilar ulardan foydalana olishmagan. Vaqt o'tishi bilan insonlar o'zgardi, jamiyatning tuzumi o'zgardi. Jamiyatda o'qimishli kishilar ko'paydi. Yangidan-yangi axborotlar hosil bo'ldi. Bu axborotlarni ko'paytirish va ularni barcha qiziquvchi kishilarga tarqatish muammosi hosil bo'ldi. Axborotlarni tarqatish vositasi sifatida asosan kitoblardan, rasmlardan va hokazolardan foydalanila boshlandi. Chop etilgan kitoblardan yoki rasmlardan kishilar jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar va voqyealar to'g'risida axborotlarga ega bo'lishdi.

Yillar o'tishi bilan hosil bo'ladigan axborotlar hajmi ortdi. Axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun nashriyotlar, tipografiyalar qurildi, ya'ni informasion sanoatga asos solindi. Ko'plab tirajda chop etilayotgan kitoblar, gazeta va jurnallar kishilarni katta hajmdagi axborotlardan xabardor qilib turishdi. Matbuot bilan birgalikda radio, keyinchalik esa televedeniya axborotlarni uzatish vositasi bo'lib qoldi.

Axborot tushunchasi nimani anglatadi? Qadimgi Gresiyada bu termin «ko'rinishni berish», «tasavvurlash» ma'nosida tushunilgan.


Ko'rinishni berish – bu rasmlar orqali konstruktorlik g'oyalarni hosil qilish, kinofilmlar yaratish, gramplastinkalar ishlab chikish va hokozalardan iborat. Insonlarning kuzatish natijalari va egallagan bilimlarini bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tkazilishi-bu axborotlarni qabul qilish yoki saqlash va ishlash uchun juda qulaydir.

Tavsiflash– buni modellashtirish yoki model yasash ma'nosida tushunish mumkin. Bu qanaqa model, u ganday ko'rinishda ifodalanganligi qo'yilgan aniq masalaga, uning tiliga va usuliga bog'liq bo'ladi.

Masalan, fizik fotoplastistinka elementar zarrachalarining qoldirgan trayektoriyasini o'rgana turib, formula va tenglamalardan iborat matematik modelni yaratadi, ruxshunos esa inson-larni turli vaziyatlardagi holatlarini tavsiflovchi model hosil qiladi. Har bir inson o'zining ish faoliyati davomida u yoki bu ko'rinishda modellashtirish bilan yoki kelayotgan, chiqayotgan axborotlarni tasvirlash bilan shug'ullanishadi.

XX asrda fan- texnikaning va sanoatning rivojlanishi natijasida hosil bo'ladigan va saqlanadigan axborotlar hajmi shu darajada ortib ketdiki, natijada ularning hammasini insonlar qabul qilishi, saqlashi va qayta ishlashi mumkin bo'lmay qoldi. Hosil bo'layotgan axborotlarni sinflarga bo'lish, saqlash, axborot-larni harakatlanish qonuniyatini yaratish muammosi hosil bo'ldi. Bu muammoni hal qilish uchun olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida **informatika** deb atalmish fan paydo bo'ldi. Boshlang'ich bosqichda **informa-tika** kutubxona ishining bazasi hisoblangan va ko'p yillar yordamida uni mukammallashtirish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanib kelgan.

Informatika o'rganilayotgan obyekt va u to'g'risidagi bilimlar oralig'idan joy egallab qoladi. Haqiqatan ham, inson atrof muhitni o'rgana turib, axborot oladi, uni biron narsaga belgilab, yozib yoki saqlab qo'yadi. **Axborot** tashuvchi sifatida adabiyot, magnit lentalar, kartalar, sxemalar ishlatilishi mumkin. Axborotlarni qayta ishlash orqali, bizni o'rab turgan dunyo to'g'risida bilimga ega bo'lamiz, natijada yangi izlanish usullarini yaratish, yangi axborotlarga ega bo'lish, ularni saqlash, qayta ishlash va hokazo imkoniyatlar hosil bo'ladi.



Axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va tasvirlashning samarali usullarini yaratish informatikaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qoldi. Asrimizning 50-yillarigacha masalaning bunday qo'yilishi haqiqat bo'lib, axborotlarni yig'ish va qayta ishlash usullari bo'yicha umumiylik yo'qdek edi. Tibbiyotda, geografiyada, fizikada, filosofiyada va boshqa sohalarda axborotlarni yig'ish va qayta ishlashda bog'liqlik yo'q edi. Ko'pchiliklarning fikricha matematika bilan fizika, ximiya bilan tibbiyot o'rtasida bog'liqlik borligi tan olinar edi. **Kompyuterlarning** paydo bo'lishi bilan bu holat tezlik bilan sezilarli darajada o'zgardi.

Ko'pchilikka ma'lumki, birinchi **EHM (elektron hisoblash mashinalari)** atom fizikasida, uchish va raketa texnikasida hisoblash ishlarini bajarish uchun yaratilgan. Keyinchalik ularni boshqa sohalarda: qishloq xo'jaligida, sanoatda, boshqarish sistemasida, tibbiyotda, o'quv jarayonlarida va hokazolarda qo'llanilishi yangi sanoat sohasi – **axborotlarni elektron qayta ishlash usullari va vositalari sohasi** yaratilishiga va uni tez sur'atlar bilan rivojlanishiga asos bo'ldi.

Yangi elektron hisoblash mashinalari, ular bilan muloqot qilishning yangi vositalari va usullari yaratildi. Hisoblash texnikalari ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini qurildi. Birinchi EHM larni hisoblash masalalarini yechish uchun yaratilgan, keyinchalik **sonli, matnli, grafik** va boshqa axborotlarni ham qayta ishlovchi **kompyuterlar** yaratila boshlandi. Hisoblash texnikasi barcha sohalarda o'zining samaradorligini, keng imkoniyatli ekanligini va qulayligini ko'rsatdi. Kompyuter va ular bilan muloqot qilish usullarini va metodlarining rivojlanishi natijasida, ularning qo'llanilish sohalari kengayib bormoqda.

Hozirgi kunda kompyuterlar barcha sohalarda, shu jumladan sanoatda, qishloq xo'jaligida, ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida, fan texnikada, tibbiyotda, o'quv jarayonlarida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Informatika nima? Agar u bizni o'rab turgan borliq to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va qayta ishlashdan iborat bo'lsa, u holda uni ximiyadan, biologiyadan va boshqa fanlardan qanday ajratish mumkin. Balki boshqa barcha fanlar uning asosiy tarkibiy qismidir? Yo'q, **informatika** hech qanday fanni na ximiyani, na fizikani na tibbiyotni va boshqalarni o'z ichiga olmaydi. Lekin ularning har biri bilan juda ko'p umumiylikka ega. U boshqa fanlarga yordam berish uchun yaratilgan, ya'ni matematika fani bilan birgalikda ularni axborotlarni saqlash, uzatish, tekshirish va qayta ishlash usullari bilan ta'minlaydi. Haqiqatdan ham, tajriba o'tkazish jarayonida olimlar turli xil vositalar yordamida axborotga ega bo'lishadi, uni saqlaydi, qayta ishlaydi va lozim bo'lsa undan boshqa jarayonlar uchun ham foydalanadi.

Axborotlarni qabul qilish, yozish, saqlash va qayta ishlash maxsus algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Olingan natijalar tahlil qilingandan keyin kerakli xulosaga kelinadi. Biz hozir abstrakt tajriba haqida so'z yuritayapmiz. Aslida esa u fizik, geografik, ximik va boshqa tajriba bo'lishi mumkin. Datchiklar ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri kompyuterga uzatishi mumkin yoki laborant asbob ko'rsatkichini avval daftarga yozib olib, so'ngra uni kompyuterga kiritadi. Asosiysi

ma'lumotlarni xotira qurilmasiga yozish, saqlash mumkin va qayta ishlash uchun esa algoritmi mavjud bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarni qayta ishlash tajribaning asosiy ajralmas qismi hisoblanadi. Axborotlarni qayta ishlash algoritmlari olimlar va mutaxassislar tomonidan tayyorlanadi. Dastur tuzuvchilar bilan birgalikda ular kompyuter uchun ma'lumotlarni qayta ishlovchi dasturlar tuzishadi. Algoritm yaratish va ular asosida kompyuter uchun dastur tuzish – ana shu bosqichning eng aso-siysi hisoblanadi. Keyingi bosqichda tekshirish uchun ma'lumotlarni qulay ko'rinishda ifodalash va chiqarish dasturlaridan foydalaniladi. (grafiklar qurish, jadvallar yaratish, ishchi rasmlarni tasvirlash chizish va hokazo). Ma'lumki, bunday dasturlar aniq sohaga mo'ljallanmagan va ular yetarlicha universal hisoblanadi. Amaliyot shu narsani ko'rsatdiki, kompyuterlardan foydalanish natijasida ishlab chiqarishda va fan texnikada mehnat samaradorligi ortadi, ilmiy-texnik prog-ressga juda kuchli ta'sir etadi. Kompyuterlarning rivojlanishida asosan uchta bosqichni ajratish mumkin: hisoblash, umumiy informasion va intellektual. Fan va texnologiya hozirgi vaqtda uchinchi bosqichda, ya'ni mashina intellektualining rivojlanish bo'sag'asida turibdi. Mashina intellekti hayotga aqliy mehnat kishilari bajaradigan ishlarni bajaruvchi kompyuterlar ko'rinishida kirib bormoqda. Yangi mashinalar ishlab chiqiladi, ko'plab mukammal dasturlar yaratiladi, mashina intellekti o'sadi, ya'ni bizni o'rab turgan olamni anglash va tekshirish uchun imkoniyatlar hosil bo'ladi.

Zamonaviy informatikani quyidagi **3 yo'nalishi** tashkil etadi:

- 1) Axborotlarni avtomatik yig'ish, saqlash, ishlash va uzatish usullari va algoritmlarini yaratish;
- 2) Axborotlarni qayta ishlash, tasavvurlash usullari va algoritmlarini yaratish.
- 3) Yuqoridagi ikkita yo'nalishni rivojlantirish uchun elektron hisoblash mashinalari va texnologiyalarni yaratish.

Ingliz tilida **informatika** so'zining sinonimi **computerscieni** (hisoblash fani) bo'lib, u informatikaning predmetini to'la yoritmaydi. **Informatika** termini bizga fransuz tilidan kelgan bo'lib, kompyuterlar va ularni qo'llanilishi haqidagi fanni anglatadi.

Hisoblash texnikasining rivojlanish tarixi.

Qadim zamonlardan beri insonlar o'z mehnatini yengillashtirishga, avtomatlashtirishga yoki mexanizatsiyalashtirishga harakat qilishgan. Bu harakatlarning barchasi jismoniy kuchlarga yoki mehnatga qaratilgan bo'lib, insonlar aqliy ish faoliyatida hech qanday mexanizatsiyadan (texnikadan) foydalanishga ehtiyoj sezmagalar.

Inson hisoblay boshlashidagi dastlabki xisoblash vositasi bulib odamlarning barmoklari xizmat qilgan. Ammo ular yordamida fakat sanash ishlarni bajargan (sabab barmoklar soni cheklangan). Shuning uchun asta sekin sun'iy xisoblash vositalari vujudga kela boshlagan. Ulardan birinchilari bulib toshlar va tayokchalar bo'lgan. Sungra abak (grek, misrlik, rimlik, xitoylik suanpan va yaponlik soroban), Neper tayokchalari, rus schyotlari vujudga kelgan.




Ammo odamzod, uziga uxshash mexanik mashinani - yordamchini (robotni) yaratish orzusi bilan yashab kelgan edi. 1623 yilda nemis olimi Vilgelm Shikard (1592-1636) tomonidan ixtiro kilingan mexanik moslama mexanik xisoblash mashinalar davrini boshladi. Ammo Shikard mashinasi xam aslida birinchi bulmagan, chunki buyuk italiyalik rassom, olim va matematiki Leonardo da Vinchining nashr etilmagan kulyozmasida 13-ta rakamli sonlarni kushi shva ayirish amallarni bajaruvchi mexanik moslamaning chizmasi topilgan. Shuni aytish lozimki Leonardo da

Vinchi xamda Vilgelm Shikard moslamalari xayotda kullanilmagan bulib kolgan. Mexanik xisoblash mashinalarni yaratilish tarixining dastlabki saxifalaridan biri fransuz faylasufi, yozuvchisi, matematiki va fiziki Bleyz Paskal (1623-1662) nomi bilan bog`liq. U 1642 yilda birinchi jamlovchi (kushish va ayirish) mashinani yaratdi. 1673 yilda esa boshka olim nemis Gotfrid Vilgelm Leybnis (1646-1716) 4-arifmetik amalni bajaruvchi mashinani yaratdi. XIX asrdan boshlab bu mashinalarga uxshash mashinalar juda kup kullanar edi. 1820 yilda Sharl de Kolmar tomonidan birinchi kalkulyator - ARIFMOMETR yaratildi.



1885 yilda amerikalik ixtirochi Uvilyam Barrouz klaviatura va kogozga pechatlash uskunalardan iborat arifmometrni yaratdi.



Universal avtomatik xisoblash mashinani yaratish goyasi va loyixasi Kembridj universite-tining profesori Charlz Beybidjga (1792-1871) mansubdir. Uning loixasi buyicha bu mashina xotira qismi, xisoblash qismi, boshkarish qismi va chikarish qismiga ega bulishi shart edi.

XIX asrning oxirida va XX asrning urtalarida fan va texnikaning barcha soxalarida juda ko`plab kashfiyotlar va ixtirolar kilindi. Bu kup mexnat talab kiladigan mashinalarni yaratishga zarurat paydo kildi. Beybidjning loyixasi asosida kup olimlar mashinalar yaratishga xarakat qilgan. 1988 yilda amerikalik injener German Xollerit birinchi elektromexanik hisoblash mashinani - TABULYATORNI yaratdi. Ushbu mashina rele asosida ishlagan bulib perfokartalarda yozilgan malumotlar bilan ishlay olar edi. 43-ta Xollerit tabulyatorlari 1890 yilda bulib utgan 11-chi Amerika axolini ruyxatdan utkazishda ishlatilgan.



Шикад

Лейбниц

Бейбидж

Барроуз

Ilm-fanning va jamiyatning rivojlanishi natijasida katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlashga yoki murakkab ko`rinishdagi arifmetik amallarni bajarishga zarurat tug`ildi, ya`ni murakkab hisoblash jarayonlarini bajarish uchun maxsus texnik vositalar yaratishga ehtiyoj sezildi. Tarixda birinchi hisoblash texnikasining yaratilishi fransuz filsofi, yozuvchisi, matematigi va fizigi Blez Paskal nomi bilan bog`langan. U 1641 yilda qo`shish va ayirish amallarini bajaradigan

mexaniq hisoblagichni yaratdi. 1673 yilda mashhur nemes olimi Gorfrid Leybnis to'rt arifmetik amalni bajaradigan hisoblash mashinasini qurdi. G.Leybnis yaratgan mashinaning asosiy mexanizmlari XX asrning o'rtalarigacha ham ba'zi bir mashinalarda qo'llanilib kelindi. Leybnis yaratgan mashina turiga, ko'paytirish amalni ko'p martalab qo'shish, bo'lish amalini ko'p martalab ayirish kabi bajaradigan barcha mashinalarni, shu jumladan birinchi EHM larini kiritish mumkin. Bu mashinalarning eng asosiy xususiyati insonlarga nisbatan hisoblashlarni juda yuqori aniqlikda va tezlikda amalga oshirishdan iborat edi. Bu mashinalarning yaratilishi insonlarning intellektual faoliyatini mexanizatsiyalashtirish mumkin-ligini namoyish qildi.

Hisoblash mashinalarini yaratish va ularni mukammaltirish fan- texnikaning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Birinchi hisoblash mashinalarining paydo bo'lishi va ularga bo'lgan talabning oshishi, ularni yaratilish texnologiyasini mukammaltirish ishlarini tezlatib yubordi. 1821 yil Tomas degan konstruktor hisoblash vositalarini ko'plab ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi va bu asboblarning arifmometrlar deb atala boshlandi. Arifmometrlar boshqa mashinalarga nisbatan yuqori hisoblash tezligiga ega bo'lib, ikkita sakkiz raqamli sonlarni 18 sekundda ko'paytirish imkoniga ega bo'lgan. XX asrda ko'plab hisoblash vositalari yaratildi, ularning ishonchligi, hisoblash aniqligi va tezligi, ular bilan muloqot qilish imkoniyatlari oshirildi. Hisoblash mashinalarini mukammallashtirishda va yaratishda rus olimlarining ham xizmatlari beqiyosdir. XVIII asr oxirlarida Ye.Yakobsonning mashinasi tayyorlandi, 1828 yilda Slobodskiy F.M. hisoblash vositasini yaratdi, 1846 yilda Kummer, P.L.Chebyshev mashinalari yaratildi. Peterburglik injener V.Odner tomonidan yaratilgan tishli arifmetr hisoblash texnikasining rivojlanishida muhim rol o'ynadi. 1873 yildan boshlab ishlab chiqarila boshlangan bunday asboblarning shunchalik mukammal tuzilishga ega bo'lib, ko'p yillar davomida o'zgarishsiz qo'llanib kelindi.

Bunday hisoblash mashinalari insonlarning hisoblash ishlarini yengillashtirishi bilan birga, ularsiz mashina hisoblash ishlarini bajara olmas ham edi.

XIX asrning boshlarida ingliz matematigi Charlz Bebbdj prinsipial yangi turdagi hisoblash mashinasining asosini yaratdi va uning asosiy holatlari (xususiyatlari)ni bayon qilib berdi:

1. Mashina raqamli axborotlarni saqlash uchun «ombor»ga ega bo'lishi kerak (hozirgi kompyuterlarda bu xotira qurilmasi).

2. Mashinada «ombor»dan olingan sonlar ustida amallar bajaruvchi qurilma mavjud bo'lishi kerak (Zamonaviy kompyuterlarda bu arifmetik qurilma hisoblanadi).

3. Mashinada amallarning bajarilishi ketma-ketligini boshqaruvchi qurilma, ya'ni boshqarish qurilmasi bo'lishi kerak.

Mashinada boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish va hosil bo'lgan natijalarni chiqaruvchi qurilmalari, ya'ni kiritish – chiqarish qurilmalari mavjud

Bundan 150 yil ilgari surilgan bu g'oyalarni XIX asrda ro'yobga chiqarib bo'lmagan bo'lsada, lekin zamonaviy kompyuterlarda bularning barchasi o'z aksini topgan. Bebbedj mexaniq arifmometrlar asosida shunday turdagi mashinalarni yaratishga harakat qilgan. Lekin mexanizmlarning yo'qligi va juda qimmatligi tufayli bu ishni oxiriga yetkaza olmadi.

XX asrning 40-50 yillarida elektronika, avtomatika va matematik mantiq sohasida juda katta yutuqlarga erishildi, ya'ni birinchi elektron hisoblash mashinalari yaratildi.

1944 yilda amerikalik fizik G.Ayken loyihasi asosida avtomatik hisoblash mashinasi Mark-1 ni yaratish bo'yicha ishlar tugallandi. Bu mashinada asosan elektron mexanizmlardan foydalanilgan. Katta hajmga va og'irlikka ega bo'lgan bu mashina bor yo'g'i 10 ta arifmetr kuchiga ega edi. Ishlash tezligining va imkoniyat darajasining pastligi tufayli bu mashinadan amaliyotda foydalanish mumkin bo'lmadi.

Releli mashinalarning ishlash tezligining pastligi tufayli ular hisoblash ishlashlarini avtomatlashtirish ishida unchalik muhim o'rinni egallamadi. Lekin faqatgina elektronika hisoblash texnikasiga, oldingi yaratilgan elementlarga nisbatan juda yuqori tezlikda sifatli ishlash imkoniyatini yaratdi. Elektron sxemalar asosida yaratilgan hisoblash mashinalari, hisoblash texnikasini yaratishda yangi yo'nalishlarni ochib berdi. Bu mashinalar elektron hisoblash mashinalari (EHM) deb atala boshlandi.

1930 yilda amerikalik olim Vannevar Bush tomonidan kompyuterning katta elektromexanik analogi - DIFFERENSIAL ANALIZATORI yaratilgan. Ushbu mashinada ma'lumotlarni saklash uchun elektron lampalar kulllanilgan. 1941 yilda nemis injeneri Z3 nomli birinchi bulib dasturlarda ishlovchi hisoblash mashinani yaratdi. 1943 yilda Buyuk Britaniya maxfiy laboratoriyalarida Alan

Tyuring boshchiligida elektron lampalarda ishlovchi Koloss nomli birinchi EXM (elektro xisoblash mashinasi) yaratildi. 1944 yilda AKShning xarbiylari uchun amerikalik injener Govard Eyken elektromexanik rele asosida ogirliigi 35 tonnali EXM yaratdi. Bu mashinani nomi MARK-1 edi. Lekin uning tezligi shu zamon talablariga javob bermas edi. 1946 yilda amerikalik olimlar Djon Mochli va Prespera Ekerta birinchi universal tulik elektron xisoblash mashinani yaratdilar. Ushbu mashina elektron lampalar asosida ishlar edi va uning nomi ENIAC edi. U MARK-1 dan ming marta tezkorroq edi, lekin uning xam kamchiliklari bor edi: ogirliigi - 30 tona; uzunligi 170 kvadrat metr xonani egallar edi; tarkibida 18 000 elektrolampalar bor edi; ishlash jarayoni juda murakkab va bu mashina juda tez ishlamas edi (sekundiga 300 kupaytirish yoki 5000 kushish amallari bajarishi mumkin edi). Shu kamchiliklarni bartarab qilish uchun olimlar juda ko'p mexnat qilar edi. Birinchi EXM lar avlodi lampali deb nomlanadi.

Elektron hisoblash texnikasining rivojlanishida amerikalik mashhur matematik **Jon fon Neymanning** xizmatlari juda katta bo'ldi. **Neyman** tomonidan bildirilgan, sonlarni ifodalashda ikkilik sanoq sistemasidan foydalanish va foydalanilayotgan axborotlarni saqlash kabi g'oyalar hozirgi zamon hisoblash mashinalarida o'zining amaliy aksini topgan. **1949** yilda Angliyada Jon fon Neyman prinsiplari asosida elektron hisoblash mashinasi –**EDSAK** yaratildi va amaliyotda qo'llanildi.

Birinchi sovet EHM'i 1950 yilda akademik S.A.Lebedev rahbarligida yaratildi. U **MESM (kichik elektron hisoblash mashinasi)** deb ataldi. Bir yildan keyin S.A.Lebedev rahbarligida **BESM (katta elektron hisoblash mashinasi)** yaratildi.

1973 yildan boshlab EXM tarixining yangi saxifasi, personal kompyuterlar saxifasi boshlandi. Shu yilda fransiyadagi Truong Trong Ti firma tomonidan birinchi personal kompyuter yaratildi. Shu bilan birga 1973 yilda dunyoga tanikli XEROX firma tomonidan Alto nomli shaxsiy kompyuter yaratilgan. Ushbu kompyuterda birinchi bulib fayllar va dasturlarni oynalar kurinishda ochish prinsipi kullanilgan.

1977 yilda Apple Computer firma tomonidan Apple-II nomli shaxsiy kompyuterlar ommaviy ravishda chikarila boshlagan. Ushbu kompyuterlar plastmass korpus, klaviatura va displeyga ega bo'lgan.

1980 yilda Osborne Computer firma birinchi portativ kompyuterlarni chikara boshladi. Ushbu kompyuter ogirliigi 11 kg, juda kichkina xajmga ega bo'lgan va narxi atigi 1795 dollar bo'lgan.

1981 yildan boshlab IBM (International Business Machines) firma tomonidan personal kompyuterlar seriyalab chikara boshlandi va butun dunyoga sotila boshlandi. Shundan beri kompyuter xayotimizda mustaxkam joylashib, axborotni qayta ishlashning eng zamonaviy vositasiga aylandi va butun dunyoga tanikli buldi. Shuning uchun personal kompyuterlar standarti shu kompyuter nomi bilan nomlanadi - IBM PC (personal computer).

EHM avlodlari. EHM larning rivojlanish tarixini o'rganishda ular bir nechta avlodlarga bo'linadi.

50-yillarda ishlab chiqarilgan birinchi EHMLar **birinchi avlod** mashinalari hisoblanadi. Ularning asosini elektron lampalar tashkil qilgan bo'lib, ishlash tezligi va ishonchligi juda past bo'lgan.

1955 yildan boshlab, **ikkinchi avlod** EHMLari paydo bo'ldi. Ularda elektron lampalarning o'rniga – yarim o'tkazgichlar – tranzistorlar qo'llanilgan. EHMLari hajm jihatidan kichiklashgan, ularga kam miqdorda elektroenergiya kerak edi. Ularning ishlash tezligi esa katta bo'lib, sekundiga bir necha o'n ming amalni bajarar edi. Ana shu davrdan boshlab hisoblash mashinalarida dasturlash tillaridan foydalanila boshlandi.

Bir necha vaqt o'tgandan keyin elektron sanoati integral sxemalar ishlab chiqara boshladi. Integral sxemalar- bu uncha katta bo'lmagan yarim o'tkazgichli kristallar bo'lib, ular bir necha yuzlab tranzistorlardan tuzilgan. Integral sxemalardan iborat EHMLari **uchinchi avlod** mashinalari hisoblanadi. Bu EHM katta xotiraga va yuqori ishlash tezligiga ega bo'lib, sekundiga bir necha milliongacha amalni bajaradi.

Zamonaviy kompyuterlar – bular **to'rtinchi avlod** EHMLari hisoblanadi. Ular 70-yillarning bosh-larida yaratilgan. Ularning asosiy elementlari mikroprosessor va katta integral sxemalar (KIS) hisoblanadi. **KIS**lar ham yarim o'tkazgichli kristallar bo'lib, bir necha yuz ming tranzistorlardan tuzilgan.

Mikroprosessorlarning yaratilishi - informatika fanidagi buyuk o'zgarishlardan biri hisoblanadi. Uning natijasi sifatida **shaxsiy kompyuterlar** paydo bo'ldi. Bu kompyuterlar o'zining xotirasining hajmi va ishlash tezligi jihatidan bir necha minglab birinchi avlod mashinalariga teng keladi.

Yuqorida keltirilgan to'rt avlod EHMLari bir-biridan keskin farq qiladi, lekin hammasida ham bir xil kamchilik mavjud. Bu kompyuterlarda ishlash uchun, ya'ni kerakli masalalarni yechish uchun, maxsus tildan foydalanish kerak bo'ladi, aks holda kompyuter bilan muloqot qilib bo'lmaydi. Buning uchun yechiladigan masala biror dasturlash tilida yozilgan bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda ko'plab mamlakatlarda **beshinch** avlod EHMLarni yaratishga harakat qilinayapti. Bu kompyuterlar inson tilini tushunadigan, tasvirlarni ko'radigan bo'lishi kerak. Bunday kompyuterlar paydo bo'lgan paytda, yechiladigan masalalar tabiiy so'zlar orqali ifoda qilinadi, dastur tuzish va uni yechishni kompyuter o'zi bajaradi.

Kompyuterlar xotirasining xajmi, amallarni bajarish tezligi va boshka xususiyatlar buyicha 5-ta guruhga bulinadi:

Super kompyuter. Juda katta tezlikni va katta xajmdagi masalalarni yechish uchun muljallangan kompyuterlar. Ular yordamida ob-xavo global prognozi, uch ulchovli fazoda turli okimlarnig kechishi, global informasion sistemalarni va xokazolani boshkarish masalalari bajariladi. Bunday kompyuterlar soni jaxonda 500-ta

Katta kompyuter. Fan texnikaning turli soxalariga oid masalalarni yechishga muljallangan kompyuterlar.

Mini kompyuter. Katta kompyuterlarda bir pogona past kompyuterlar.

PC - Shaxsiy kompyuter. Xozirgi kunda korxanalar, ukuv yurtlar, muassasalarda keng tarkalgan kompyuterlar.

Notebook - Bloknot kompyuter. Xajmi ixcham va elektr energiyasi ichiga urnatilgan batareya (akamulyator) orqali ta'minlaydigan kompyuterlar.

Nazorat uchun savollar

1. Informatika fani paydo bo'lishi to'g'risida qanday to'g'risida ma'lumotlarni bilasiz?.
2. Informatika fanining predmeti nima?.
3. Informatikaning asosiy qismlari qaysilari?.
4. Informatika va HT ning rivojlanish bosqichlari nimalardan iborat?.
5. Informatika fanining asosiy xususiyatlari?.

2-Mavzu: Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari

Reja:

1. Axborot tushunchasi, turlari va o'lov birliklari.
2. Sanoq sistemalari.
3. Sanoq sistemalarida amallar bajarish.
4. Axborotlarning kompyuterda tasvirlanishi.

Tayanch iboralar: axborot, axborotlarning turlari, axborotning o'lov birliklari, bit, bayt, kod, ikkilik kod, sanoq sistemasi, kodlashtirish.

EHM lari bu elektron raqamli qurilma. Elektron qurilma, shuning uchunki – har qan-day axborot EHMda elektr signallar yordamida qayta ishla-nadi. Raqamli qurilma shuning uchunki, har qanday axborot sonlar yordamida tasvirlanadi. Sonlarni yozish uchun qandaydir sanoq sistemalaridan foydalanish kerak bo`ladi.

Sanoq sistemalari

Sanoq sistemasilari deganda sonlarni yozish va tanlash qoidalarining majmuasi tushuni-ladi. Sanoq sistemalari ikki turga bo`linadi: pozision va pozision bo`lmagan.

Pozision bo`lmagan sanoq sistemada son yozuvida ishlatiladigan raqam yozuvda egalla-gan joyidan qat`iy nazar bir xil qiymatni bildiradi. Rim sanoq sistemasi bunga misol bo`ladi: I-bir, V-besh, X-o`n, L-ellik, S-yuz, D-besh yuz, M-ming bildiradi. **Masalan 267 quyidagicha yoziladi:** CCLXVII

Pozision sistemada sonni ifodalash uchun ma`lum miqdordagi raqamlar ishlatiladi. Bu raqamlar sistemaning elementlarini, ularning soni esa sistemaning asosini tashkil qiladi. Har bir raqam ma`lum bir son qiymatini beradi. Pozision sistemada sistema elementlarining ketma ketligi ko`rinishida ifodalanadi. Sanoq sistemasida raqamlar soni uning asosi deb yuritiladi. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan sonlar o`nlik sanoq sistemasida ifodalanadi. Bu sistemasning asosi $R=10$ bo`lib, son yozuvida 10 ta $\{0,1,2,3,4,5,6,7,8,9\}$ raqam ishlatiladi. Bu sistemada har qanday son o`nta $0,1,2,3,4,5,6,7,8,9$ raqamlar orqali ifoda qilinadi. (o`nlik sanoq sistemasi qadimda insonlarning hisoblash ishlarida ikki qo`lning 10 ta barmog`idan foydalanish orqali kelib chiqqan). Bundan tashqari boshqa sanoq sistemalari ham mavjud bo`lgan. **Masalan.** Beshlik- asosi 5ga teng, ya`ni qo`lning 5 barmog`i, rim sanoq sistemasi: XXI asr, Qadimgi Vavilonda kishilar asosi 60ga teng bo`lgan 60lik sanoq sistemasidan foylanishgan. Bu sistema hozirgi vaqt-da ham burchak yoki vaqtni o`lchash uchun ishlatiladi. Masalan. 1 soat 60 minut, 1 minut 60 sekund. Yil hisoblarini hisoblashda 12 lik sanoq sistemasidan foydalanamiz. Bir yilda 12 oy. Angliyada kun vaqtini yozish ish sistemasi olib boriladi. Yarim kungacha 12 soat va yarim kundan keyin 12 soat.

EHMda sonlarni yozish uchun ikkilik sanoq sistemasi ishlatiladi. Bu sistemada bor yo`g`i ikkita: 0 va 1 raqamlari bo`lib, uning asosi 2 ga teng. Kompyuterda elektr signallarini 0-signal yo`q va 1- signal bor ko`rinishida ifodalash mumkin bo`lganligi uchun, ikkilik sanoq sistemasi ishlatiladi.

Har qanday son raqamlar ketma-ketligi ko`rinishida yoziladi:

o`nli sistemada $1985_{10}, 137,85_{10}$

ikkili sistemada $1001_2, 11001,01_2$

sakkizli sistemada $6534_8, 234, 05_8$

Bu yerda sonlarning indeksi uning asosini bildiradi.

Sonlarni yozishda har raqamning qiymati uning turgan o`rniga bog`liq bo`ladi. Sonda raqam uchun joy razryad, sondagi raqamlar soni esa sonning razryadi deb ataladi.

Kompyuterda sonlar ikkilik, sakkizlik, o`n oltilik sistemalarda ham ifodalanishi mumkin.

Ikkilik sanoq sistemasi. Ikkilik sistema ham o`nlik sistema kabi pozision sistema bo`lib, unda sonlar faqat ikkita **1** va **0** yordami bilan ifodalanadi. Natural sonlar qatorining oldingi o`ttizta sonini ikkilik va sakkizlik va o`nlik sanoq sistemasida ifodasini yozamiz.

O`nlik sonlar	Ikkilik sonlar	Sakkizlik sonlar	O`nlik sonlar	Ikkilik sonlar	Sakkizlik sonlar
1	1	1	16	10000	20
2	10	2	17	10001	21
3	11	3	18	10010	22
4	100	4	19	10011	23
5	101	5	20	10100	24
6	110	6	21	10101	25
7	111	7	22	10110	26
8	1000	10	23	10111	27
9	1001	11	24	11000	30
10	1010	12	25	11001	31
11	1011	13	26	11010	32
12	1100	14	27	11011	33
13	1101	15	28	11100	34
14	1110	16	29	11101	35
15	1111	17	30	11110	36

Ikkilik sonlar ustida qo`shish, ayirish, ko`paytirish va bo`lish amallarini bajarish mumkin.

$$0 + 0 = 0$$

$$0 + 1 = 1$$

$$1 + 0 = 1$$

$$1 + 1 = 10$$

Misol. 111110_2 va 101_2 sonlarning yig`indisini toping. Bu sonlarni bir ustunga yozib, umumiy qoida bo`yicha qo`shamiz.

$$\begin{array}{r} 111110_2 \\ + 101_2 \\ \hline \end{array}$$

$$1000011_2$$

Ayirish amali uchun quyidagi jadvaldan foydalaniladi.

$$0 - 0 = 0$$

$$0 - 1 = 1$$

$$1 - 0 = 1$$

$$10 - 1 = 1$$

Misol. $1011,101_2$ va $101,01_2$ sonlarining ayirmasini toping.

$$\begin{array}{r} 1011,101_2 \\ - 101,01_2 \\ \hline \end{array}$$

$$110,011_2$$

Ikkilik sonlarni ko`paytirish jadvali quyidagicha.

$$0 \times 0 = 0$$

$$1 \times 0 = 0$$

$$0 \times 1 = 0$$

$$1 \times 1 = 1$$

Misol. 1010_2 va 11_2 sonlarning ko`paytmasini toping.

$$\begin{array}{r} 1010_2 \\ \times 11_2 \\ \hline 1010_2 \\ +1010_2 \\ \hline \end{array}$$

11110₂

Ikkilik sonlarini bo'lish amalini bajarishda ko'paytirish va ayirish jadvalidan foydalaniladi.

Sakkizlik sanoq sistemasining asosi 8 ga bo'lib, undagi 0,1,3,4,5,6,7 raqamlari orqali ifoda qilinadi. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari 8 lik sanoq sistemasi qoidalari asosida bajariladi.

Masalan.

$$\begin{array}{r} 1) \ 732_8 \\ + 324_8 \\ \hline \end{array}$$

$$1256_8$$

$$\begin{array}{r} 2) \ 732_8 \\ - 324_8 \\ \hline \end{array}$$

$$406_8$$

O'n otilik sanoq sistemasining asosi 16 ga teng bo'lib, undagi sonlar 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, V, S, D, E, F raqamlari orqali ifodalanadi. Bunda A- o'nni, V - o'n birni, S- o'n ikkini, D- o'n uchni, Ye- o'n to'rtini, F- o'n beshni bildiradi. Sonlarni bir sistemadan ikkinchi sistemaga o'tkazish qoidalari mavjud:

1. Ixtiyoriy sistemadan o'nlik sistemaga o'tkazish. Buning uchun son berilgan sistema asosining darajalari bo'yicha yoyiladi va yoyilma hisoblanadi:

Masalan, o'nli sistemadagi 2001 soni to'rt razryadli hisoblanadi. Razryadlar chapdan o'ngga qarab nomerlanadi va har bir razryadga asos darajasi mos keladi.

Razryad son	3 2 1 0	razryad nomi	asos darajasi
	2 0 0 1		
		→ birliklar:	10 ⁰
		→ o'nliklar:	10 ¹
		→ yuzliklar:	10 ²
		→ mingliklar:	10 ³

Har qanday sonni asos darajasi bo'yicha yoyib chiqish mumkin.

Masalan: a) $2001_{10} = 2 \cdot 10^3 + 0 \cdot 10^2 + 0 \cdot 10^1 + 1 \cdot 10^0$

b) $3897_{10} = 3 \cdot 10^3 + 8 \cdot 10^2 + 9 \cdot 10^1 + 7 \cdot 10^0$

Xuddi shunday ixtiyoriy sanoq sistemasidagi sonlarni o'nli sanoq sistemasida ifodalash mumkin.

Masalan,

a) $100111_2 = 1 \cdot 2^5 + 0 \cdot 2^4 + 0 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 = 32 + 0 + 0 + 4 + 2 + 1 = 39_{10}$

b) $11011,011_2 = 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 0 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-3} = 16 + 8 + 2 + 1 + 0,25 + 0,125 = 27,375_{10}$

v) $3512_8 = 3 \cdot 8^3 + 5 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 2 \cdot 8^0 = 586_{10}$

g) $213,1_8 = 2 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 3 \cdot 8^0 + 1 \cdot 8^{-1} = 75,125_{10}$

d) $AVS_{16} = 1016^2 + 11 \cdot 16^1 + 12 \cdot 16^0 = 2560 + 176 + 12 = 2748_{10}$

Yuqorida keltirilgan amalga teskari amalni ham, ya'ni o'nli sanoq sistemasidagi sonlarni boshqa sanoq sistemalarida ham ifodalash mumkin.

2. O'nlik sistemadagi sonni R asosli sistemaga o'tkazish.

a) Butun sonni o'tkazish uchun berilgan son o'tkazilishi kerak bo'lgan sistema asosi R ga qoldiqli bo'linadi. Bo'linma nolga teng bo'lmasa, u yana asosga qoldiqli bo'linadi va h.k. jarayon bo'linma nolga teng bo'lganda tugatiladi va hosil bo'lgan qoldiqlar teskari tartibi sonning R-lik sistemadagi ifodasini beradi.

Masalan.

1. 437_{10} sonini ikkilik sistemada yozing:

son	Bo'luvchi	qoldiq
437	2	1
218	2	0
109	2	1
54	2	0
27	2	1
13	2	1
6	2	0
3	2	1
1	2	1

Agar qoldiqlarni teskari tartibda yozib chiqsak, kerakli natija hosil bo`ladi:
 $437_{10} = 110110101_2$

2. 7465_{10} sonini sakkizlik sistemada ifodalang:

son	Bo`luvchi	qoldiq
7465	8	1
933	8	5
116	8	4
14	8	6
1	8	0

Natija: $7465_{10} = 6451_8$

3. 98653_{10} sonini 16-lik sistemada ifodalang:

son	Bo`luvchi	qoldiq
98653	16	13
6165	16	5
385	16	1
24	16	8
1	16	0

Natija: $98653_{10} = 815D_{16}$

Turli sanoq sistemalarida sonlar ustida arifmetik amallar

Umuman sanoq sistemalari 2 xel bo`ladi: pozision va nopozision. Agar sonni qiymati uni tashkil etuvchi raqamlar o`rnidan bog`liq bo`lsa, bunday sanoq sistemalariga pozision sanoq sistemasi, aks holda esa nopozision sanoq sistemasi deyiladi. EHM faqat pozision sanoq sistemasidan foydalanadi.

Pozision sanoq sistemasiga 16-lik, 10-lik, 8-lik, 2-lik sanoq sistemalari misol bo`laoladi. Rim raqamlari nopozision sanoq sistemasiga misol bo`laoladi.

O`nlik sanoq sistemasidagi sonni boshqa bir q ($q=2, 8, 16$) asosli sanoq sistemasiga o`tkazish uchun, uni avval butun qismi bilan kasr qismini ajratamiz. Butun qismini q ($q=2, 8, 16$) ga ketmaket, toki oxirgi bo`linma q ($q=2, 8, 16$) dan kichik bo`lguncha bo`lib boramiz. Natijada qoldiqlar ketmaketligi va oxirgi bo`linma hosil bo`ladi. Shularni teskari tartibda yozib chiqsak, berilgan sonni o`nlik sanoq sistemasidan q ($q=2, 8, 16$) asosli sanoq sistemasiga o`tkazgan bo`lamiz. Kasr qismini esa ketmaken q ($q=2, 8, 16$) ga ko`paytirib boramiz. Ko`paytirishni toki verguldan keyingi xonalar nol bo`lguncha davom etiramiz.

Misol 1: 75_{10} sonini o`nlik sanoq sistemasidan ikkilikga, sakkizlikga, o`noltiklikga o`tkazing:

$75_{10} \Rightarrow X_2$ $75_{10} \Rightarrow X_8$ $75_{10} \Rightarrow X_{16}$

Javob: $75_{10} = 1\ 001\ 011_2 = 113_8 = 4B_{16}$. ,bunda $B_{16} = 11_{10}$

Misol 2:

$17,5_{10} \Rightarrow X_2$ $17,5_{10} \Rightarrow 17_{10} + 0,5_{10}$

17	2
16	8
1	4
0	2
0	1

Natijada $17_{10} \Rightarrow X_2 = 10001_2$ $0,5_{10} \Rightarrow X_2 = 0,1_2$

Demak $17,5_{10} \Rightarrow X_2 = 10001_2 + 0,1_2 = 10001,1_2$

Misol 4: $125,25_{10} \Rightarrow 125_{10} + 0,25_{10}$

125	16
112	7
13	

Natijada $125_{10} \Rightarrow X_{16} = 7D_{16}$, chunki $D_{16}=13$

$0,25_{10} \Rightarrow X_{16} = 0,4_{16}$

Demak $125,25_{10} \Rightarrow 7D_{16} + 0,4_{16} = 7D,4_{16}$

Oddiy kasrni o`nlik sanoq sistemasidan boshqa q asosli (q=2, 8, 16) sanoq sistemasiga o`tkazish uchun, kasrni q ga ketmaket ko`paytiramiz, ko`paytirishni toki ko`paytma nol bo`lguncha (aniq o`tish), agar nolga teng bo`lmaydigan bo`lsa (taqribiy o`tish) toki biron bir aniqlikga yetguncha davom ettirish kerak.

Misol: $0,35_{10}$ sonini o`nlik sanoq sistemasidan ikkilikga, sakkizlikga va o`noltilikga o`tkazing:

ikkilik		sakkizlik		o`noltilik	
0,	35	0,	35	0,	35
	2		8		16
0	70	2	80	5	60
	2		8		16
1	40	6	40	9	60
	2		8		16
0	80	3	20		
	2				
1	60				
	2				
1	20				

Javob: $0,35_{10} = 0,01011_2 = 0,263_8 = 0,59_{16}$.

Butun sonni ikkilikdan o`nlikga o`tkazish

Misol

1) 0.243 sonni o`nlik sanoq sistemasidan ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazing.

$0.243_{10} \rightarrow 0.0011111_2$

Tekshirish:

$0.0011111_2 = 0 \cdot 2^{-1} + 0 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-3} + 1 \cdot 2^{-4} + 1 \cdot 2^{-5} + 1 \cdot 2^{-6} + 1 \cdot 2^{-7} = 0,2421875_{10}$

2) 164 butun sonni o`nlikdan ikkilik sanoq sistemasiga o`tkazing.

$164_{10} \rightarrow 10100100_2$

Tekshirish: $10100100_2 = 1 \cdot 2^7 + 0 \cdot 2^6 + 1 \cdot 2^5 + 0 \cdot 2^4 + 0 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 0 \cdot 2^1 + 0 \cdot 2^0 = 128 + 32 + 4 = 164_{10}$

Aralash sonlarni o`tkazish uchun, sonni butun qismi alohida, kasr qismi alohida o`tkaziladi va birlashtiriladi.

Sakkizlik va o`noltilik sanoq sistemalaridan foydalanish.

Ikkilik sanoq sistemasi kompyuter uchun juda qulay bo`lgani bilan inson uchun ancha noqulay, chunki u juda katta uzunlikda bo`lib tushunish og`ir.

Sonlarni o`nlik sanoq sistemasidan ikkilikga va teskarisiga o`girish kompyuter tomonidan amalga oshiriladi. Lekin kompyuterdan professional darajada foydalanish uchun “mashina so`zi” degan tushuchani bilish kerak.kerak.

Buning uchun sakkizlik va o`noltilik sanoq sistemalari ishlab chiqilgan.

Ularda sonlar razryadlari mos ravishda uch marta (sakkizlikda) va to`rt marta (o`noltilikda) qisqaroq.

Sakkizlikdagi va o`noltilikdagi sonlarni ikkilikga o`tkazish juda oson, faqat har bir raqam mos ravishda unga ekvivalent bo`lgan triada (uchlik raqam) yoki tetrada (to`rtlik raqam) bilan almashtiriladi.

misol:

$$537, 1_8 = 101\ 011\ 111, 001_2 ; 1A3, F_{16} = 1\ 1010\ 0011, 1111_2$$

$$\begin{array}{cccccccc} \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ 5 & 3 & 7 & 1 & & 1 & A & 3 & F \end{array}$$

Demak ikkilikdagi sonni sakkizlik (o'noltilik) sanoq sistemasiga o'tkazish uchun shu sonni butun qismini o'ngdan chapga qarab va kasr qismini esa chapdan o'ngga qarab uchliklarga (to'rtliklarga) ajratamiz. Agar xonalar yetmassa o'zimidan nollar qo'shamiz. Har bir uchlik (to'rtlik) o'rniga mos sakkizlikdagi (o'noltilikdagi) raqamni jadvaldan qarab qo'yamiz. Misol:

$$10101001, 10111_2 = 10\ 101\ 001, 101\ 110_2 = 251,56_8$$

$$\begin{array}{ccccc} \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ 2 & 5 & 1 & 5 & 6 \end{array}$$

$$10101001, 10111_2 = 1010\ 1001, 1011\ 1000_2 = A9, B8_{16}$$

$$\begin{array}{cccc} \downarrow & \downarrow & \downarrow & \downarrow \\ A & 9 & B & 8 \end{array}$$

Oddiy o'nli kasrlarni boshqa pozision sanoq sistemasiga o'tkazish.

Oddiy kasrni 10 –lik sanoq sistemasidan boshqa q asosli sanoq sistemasiga o'tkazish uchun, avval kasrni o'zini, so'ngra hamma keyingi ko'paytmalarni kasr qismini ketmaket q ga ko'paytiramiz. Har safar ko'paytirishdan keyin ko'paytmani butun qismini ajratamiz. Yangi sanoq sistemasiga o'tgan son hosil bo'lgan ko'paytmani butun qismlari ketmaketligidan iborat. Ko'paytirishni toki ko'paytmani kasr qismi nul bo'lguncha davom ettiramiz. Natijada bizlar oddiy kasrni 10-lik sanoq sistemasidan boshqa bir pozision sanoq sistemasiga aniq o'girgan bo'lamiz. Aks holda o'girish aniq bo'pmay balki, ma'lum aniqlikda amalga oshgan hisoblanadi.

Misol: $0,35_{10}$ sonini o'nlik sanoq sistemasidan ikkilikga, sakkizlikga va o'noltilikga o'tkazing:

ikkilikga	sakkizlikga	o'noltilikga
$\begin{array}{r l} 0, & 35 \\ \hline & 2 \\ 0 & 70 \\ & 2 \\ 1 & 40 \\ & 2 \\ 0 & 80 \\ & 2 \\ 1 & 60 \\ & 2 \\ 1 & 20 \end{array}$	$\begin{array}{r l} 0, & 35 \\ \hline & 8 \\ 2 & 80 \\ & 8 \\ 6 & 40 \\ & 8 \\ 3 & 20 \end{array}$	$\begin{array}{r l} 0, & 35 \\ \hline & 16 \\ 5 & 60 \\ & 16 \\ 9 & 60 \end{array}$

Javob: $0,35_{10} = 0,01011_2 = 0,263_8 = 0,59_{16}$.

Butun sonni biron pozision sanoq sistemasidan o'nlikga o'tkazish.

Ikkilikdagi (sakkizlikdagi, o'noltilikdagi) sonni o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun, shu sonni sanoq sistemasini asosi bo'lgan q –ni (q=2, 8,16) darajalari bo'yicha yoyib chiqib yig'indini hisoblash zarur.

Misollar:

razryadlar 3 2 1 0 -1
sonlar 1 0 1 1, $1_2 = 1*2^3 + 1*2^1 + 1*2^0 + 1*2^{-1} = 11,5_{10}$.

razryadlar 2 1 0 -1
sonlar 2 7 6, $5_8 = 2*8^2 + 7*8^1 + 6*8^0 + 5*8^{-1} = 190,625_{10}$.

razryadlar 2 1 0
sonlar 1 F 3, $16_{16} = 1*16^2 + 15*16^1 + 3*16^0 = 499_{10}$.

Pozision sanoq sistemalarida arifmetik amallar.

Asosiy arifmetik amallarni qarab chiqamiz. Turli sanoq sistemalarida qo`shish amalini bajarishda quyida berilgan jadvallardan foydalanamiz.

Ikkilik sanoq sistemasida qo`shish

+	0	1
0	0	1
1	1	10

Sakkizlik sanoq sistemasida qo`shish

+	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	1	2	3	4	5	6	7
1	1	2	3	4	5	6	7	10
2	2	3	4	5	6	7	10	11
3	3	4	5	6	7	10	11	12
4	4	5	6	7	10	11	12	13
5	5	6	7	10	11	12	13	14
6	6	7	10	11	12	13	14	15
7	7	10	11	12	13	14	15	16

O`noltilik sanoq sistemasida qo`shish

+	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
0	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F
1	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10
2	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11
3	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12
4	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13
5	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14
6	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15
7	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16
8	8	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17
9	9	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18
A	A	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
B	B	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A
C	C	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B
D	D	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C
E	E	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C	1D
F	F	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	1A	1B	1C	1D	1E

Qo`shishda raqamlar razryadlar bo`yicha yig`iladi va hosil bo`lgan qo`shimcha razryad chap tomonga o`tkaziladi.

Misol 1. 15 va 6 sonlarni turli sanoq sistemalarida qo`shishni qaraymiz.

o`nlik : $15_{10} + 6_{10}$

$$\begin{array}{r} 1 \\ + 15 \\ + 6 \\ \hline 21 \\ \hline \end{array}$$

$\begin{array}{|l} 5+6=11=10+1 \\ \hline 1+1=2 \end{array}$

ikkilik : $1111_2 + 110_2$

$$\begin{array}{r} 111 \\ + 1111 \\ \hline 0110 \\ \hline 10101 \\ \hline \end{array}$$

$\begin{array}{|l} 1+0=1 \\ \hline 1+1=2=2+0 \\ \hline 1+1+1=3=2+1 \\ \hline 1+1=2=2+0 \end{array}$

sakkizlik : $17_8 + 6_8$

$$\begin{array}{r} 1 \\ + 17 \\ + 6 \\ \hline 25 \\ \hline \end{array}$$

$\begin{array}{|l} 7+6=13=8+5 \\ \hline 1+1=2 \end{array}$

o`noltilik : $F_{16} + 6_{16}$

$$\begin{array}{r} 1 \\ + F \\ + 6 \\ \hline 15 \\ \hline \end{array}$$

$\begin{array}{|l} 15+6=21=16+5 \end{array}$

Javob: $15+6 = 21_{10} = 10101_2 = 25_8 = 15_{16}$.

Tekshirish: Olingan summalarni o`nlikda yozamiz:

$$10101_2 = 2^4 + 2^2 + 2^0 = 16+4+1=21_{10},$$

$$25_8 = 2 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0 = 16 + 5 = 21_{10},$$

$$15_{16} = 1 \cdot 16^1 + 5 \cdot 16^0 = 16 + 5 = 21_{10}.$$

Misol 2. 15, 7 va 3 sonlarni turli sanoq sistemalarida qo`shishni qaraymiz:

<p>o`nlik : $15_{10} + 7_{10} + 3_{10}$</p> $\begin{array}{r} 1 \\ + 15 \\ 7 \\ 3 \\ \hline 25 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $5+7+3=15=10+5$ $1+1=2$ </p>	<p>ikkilik : $1111_2 + 111_2 + 11_2$</p> $\begin{array}{r} 11+1 \quad 1 \\ + 1111 \\ 111 \\ 11 \\ \hline 11001 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $1+1+1=3=2+1$ $1+1+1+1=4=2^2+0$ $1+1=2=2+0$ $1+1+1=3=2+1$ </p>	<p>sakkizlik : $17_8 + 7_8 + 3_8$</p> $\begin{array}{r} 2 \\ + 17 \\ 7 \\ 3 \\ \hline 31 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $7+7+3=17=2 \cdot 8+1$ $2+1=3$ </p>	<p>o`noltilik : $F_{16} + 7_{16} + 3_{16}$</p> $\begin{array}{r} + F \\ 7 \\ 3 \\ \hline 19 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $15+7+3=25=16+9$ </p>
--	--	---	--

Javob: $5+7+3 = 25_{10} = 11001_2 = 31_8 = 19_{16}.$

Tekshirish: $11001_2 = 2^4 + 2^3 + 2^0 = 16+8+1=25_{10},$

$$31_8 = 3 \cdot 8^1 + 1 \cdot 8^0 = 24 + 1 = 25_{10},$$

$$19_{16} = 1 \cdot 16^1 + 9 \cdot 16^0 = 16+9 = 25_{10}$$

Misol 3. 141,5 va 59,75 sonlarni turli sanoq sistemalarida qo`shishni qaraymiz:

o`nlik : $141,5_{10} + 59,75_{10}$ **ikkilik**: $10001101,1_2 + 111011,11_2$

$\begin{array}{r} 111 \\ + 141,50 \\ 59,75 \\ \hline 201,25 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $0+5=5$ $5+7=12=10+2$ $1+9+1=11=10+1$ $4+5+1=10=10+0$ $1+1=2$ </p>	$\begin{array}{r} 11111111 \\ + 10001101,1 \\ 111011,11 \\ \hline 11001001,01 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $1+0=1$ $1+1=2=2+0$ $1+1=2=2+0$ $1+1+1=3=2+1$ $1+1=2=2+0$ $1+1=2=2+0$ $1+1=2=2+0$ </p>
<p>sakkizlik : $215,4_8 + 73,6_8$</p> $\begin{array}{r} 111 \\ + 215,4 \\ 73,6 \\ \hline 311,2 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $4+6=10=8+2$ $5+3+1=9=8+1$ $1+7+1=9=8+1$ $2+1=3$ </p>	<p>o`noltilik : $8D,8_{16} + 3B,C_{16}$</p> $\begin{array}{r} 11 \\ + 8D,8 \\ 3B,C \\ \hline C9,4 \\ \hline \end{array}$ <p style="font-size: small; margin-left: 20px;"> $8+12=20=16+4$ $13+11+1=25=16+9$ $8+3+1=12=C_{16}$ </p>

Javob: $141,5_{10} + 59,75_{10} = 201,25_{10} = 11001001,01_2 = 311,2_8 = C9,4_{16}$

Tekshirish. Hosil bo`lgan summalarni o`nlik ko`rinishga keltiramiz:

$$11001001,01_2 = 2^7 + 2^6 + 2^3 + 2^0 + 2^{-2} = 201,25_{10}$$

$$311,2_8 = 3 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 1 \cdot 8^0 + 2 \cdot 8^{-1} = 201,25_{10}$$

$$C9,4_{16} = 12 \cdot 16^1 + 9 \cdot 16^0 + 4 \cdot 16^{-1} = 201,25_{10}$$

Ayirish amalini qaraymiz.

Misol 4. $10_2, 10_8, 10_{16}$ sonlardan 1 ni ayiramiz.

ikkilik : $10_2 - 1_2$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 10 \\ \hline 1 \\ \hline \underline{2-1=1} \end{array}$$

sakkizlik : $10_8 - 1_8$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 10 \\ \hline 7 \\ \hline \underline{8-1=7} \end{array}$$

o'noltilik : $10_{16} - 1_{16}$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 10 \\ \hline F \\ \hline \underline{16-1=15=F_{16}} \end{array}$$

Заемы

Misol 5. $100_2, 100_8$ i 100_{16} sonlardan 1 ni ayiramiz.

ikkilik : $100_2 - 1_2$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 100 \\ \hline 11 \\ \hline \underline{2-1=1} \\ \underline{1-0=1} \end{array}$$

sakkizlik : $100_8 - 1_8$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 100 \\ \hline 77 \\ \hline \underline{8-1=7} \\ \underline{7-0=7} \end{array}$$

o'noltilik : $100_{16} - 1_{16}$

$$\begin{array}{r} 1 \\ - 100 \\ \hline FF \\ \hline \underline{16-1=15=F_{16}} \\ \underline{1+1=2} \end{array}$$

Заемы

Misol 6. $59,75$ sonni $201,25$ sonidan ayiramiz.

o'nlik : $201,25_{10} - 59,75_{10}$

$$\begin{array}{r} 1 \quad 1 \\ - 201,25 \\ 59,75 \\ \hline 141,50 \\ \hline \underline{5-5=0} \\ \underline{10+2-7=5} \\ \underline{10-9=1} \\ \underline{9-5=4} \\ \underline{2-1=1} \end{array}$$

ikkilik : $11001001,01_2 - 111011,11_2$

$$\begin{array}{r} 1 \quad 1 \quad 1 \quad \text{Заемы} \\ - 11001001,01 \\ 00111011,11 \\ \hline 10001101,10 \\ \hline \underline{1-0=1} \quad \underline{0-0=0} \quad \underline{1-1=0} \quad \underline{1-1=0} \\ \underline{0-0=0} \quad \underline{1-1=0} \quad \underline{2-1=1} \\ \underline{1-1=0} \quad \underline{1-1=0} \\ \underline{2-1=1} \quad \underline{1-0=1} \end{array}$$

sakkizlik : $311,2_8 - 73,6_8$

$$\begin{array}{r} 1 \quad 1 \quad 1 \\ - 311,2 \\ 73,6 \\ \hline 215,4 \\ \hline \underline{3+2-6=4} \\ \underline{8-3=5} \\ \underline{8-7=1} \end{array}$$

o'noltilik : $C9,4_{16} - 3B,C_{16}$

$$\begin{array}{r} 1 \quad 1 \\ - C9,4 \\ 3B,C \\ \hline 8D,8 \\ \hline \underline{16+4-12=8} \\ \underline{16+8-11=13=D_{16}} \\ \underline{12-1-3=8} \end{array}$$

Javob: $201,25_{10} - 59,75_{10} = 141,5_{10} = 10001101,1_2 = 215,4_8 = 8D,8_{16}$.

Tekshirish: Hosil bo`lgan ayirmalarni o`nlik ko`rinishga keltiramiz:

$$10001101,1_2 = 2^7 + 2^3 + 2^2 + 2^0 + 2^{-1} = 141,5_{10};$$

$$215,4_8 = 2 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0 + 4 \cdot 8^{-1} = 141,5_{10};$$

$$8D,8_{16} = 8 \cdot 16^1 + D \cdot 16^0 + 8 \cdot 16^{-1} = 141,5_{10}.$$

Misollar:

1) 25_{10} ni ikkilik sistemaga o'tkazing:

$$\begin{array}{r} 25 \underline{2} \\ \underline{24} \quad 12 \quad 2 \\ 1 \quad \underline{12} \quad 6 \quad 2 \\ \quad 0 \quad \underline{6} \quad 3 \quad \underline{2} \\ \quad \quad 0 \quad \underline{2} \quad 1 \\ \quad \quad \quad 1 \end{array} \qquad 25_{10} = 11001_2$$

2) 25_{10} ni sakkizlik sistemaga o'tkazing:

$$\begin{array}{r} 25 \underline{8} \\ \underline{24} \quad 3 \quad \underline{8} \\ 1 \quad \underline{0} \\ \quad 3 \end{array} \qquad 25_{10} = 31_8$$

3) 28_{10} ni o'n oltilik sistemaga o'tkazing:

$$\begin{array}{r} 28 \underline{16} \\ \underline{16} \quad 1 \quad \underline{16} \\ 12 \quad \underline{0} \end{array} \qquad 28_{10} = 1S_{16}$$

1

b) To'g'ri kasrni o'tkazish uchun u asos P ga ko'paytiriladi. Keyin hosil bo'lgan sonning butun qismi ajratiladi va kasr qismi yana R ga ko'paytiriladi. Bu jarayon ko'paytmaning kasr qismi nolga teng bo'lganda yoki kerakligicha raqamlar hosil qilinganda to'xtatiladi va butun qismlar ketma- ketligi kasrning R- ning sistemadagi yozuvini beradi.

Misollar:

1) $0,3125_{10}$ sonini ikkilik sistemaga o'tkazing.

$$\begin{array}{r} 0 \quad 3125 \\ 0 \quad \underline{6250} \\ 1 \quad \underline{250} \\ 0 \quad \underline{50} \\ 1 \quad 0 \end{array} \qquad 0,3125_{10} = 0,0101_2$$

2) $0,12_{10}$ sonini ikkilik sistemaga o'tkazing.

$$\begin{array}{r} 0 \quad 12 \\ \underline{0 \quad 24} \\ 0 \quad 48 \\ 0 \quad 96 \\ 1 \quad 92 \\ 1 \quad 84 \\ 1 \quad \underline{68} \\ \quad 16 \end{array} \qquad 0,12_{10} = 0,000111\dots_2$$

3) $0,225_{10}$ sonini sakkizlik sistemaga o'tkazing.

$$\begin{array}{r} 0 \quad 225 \\ \underline{1 \quad 800} \\ 6 \quad 400 \\ 3 \quad 200 \\ 1 \quad \underline{600} \\ 4 \quad 8 \end{array} \qquad 0,225_{10} = 0,16214\dots_8$$

v) Aralash sonni o'tkazish uchun butun qismi va kasr qismi alohida alohida o'tkaziladi.

Misol: $25,3125_{10}$ ikkilik sistemaga o'tkazing.

$$25_{10} = 1101_2$$

$$0,3125_{10}=0,0101_2$$

$$25,3125_{10}=11001,0101_2$$

g) R-lik sistemadan –g- sistemaga o`tkazish uchun avval R-lik son 10-likka, keyin 10-likdan –g-likka o`tkaziladi.

Misol: $11001_2=25_{10}=31_8$

$$34_8=28_{10}=10_{16}$$

Kompyuterlarda axborotlarni tasvirlanishi. Har qanday axborotni katta bo`lmagan oddiy qismlarga bo`laklarga bo`lish mumkin. Masalan, matn harflardan va belgilardan, son raqamlar ketma-ketligidan iborat bo`ladi. Harf-bu matnli axborotlarning, raqam esa – sonlarning elementlar bo`ligidir.

Axborot kodlangan deyiladi, agar uning ixtiyoriy bo`ligi sonlar ko`rinishida ifodalangan bo`lsa. Bunday sonlar kodlar deb yuritiladi. Matnning har bir harfini kodlarga almatirish orqali kodlash mumkin bo`ladi.

Kompyuter faqat kodlangan axborotlarni qayta ishlaydi. Axborotlar bilan ishlanganda uning kompyuter xotirada egallangan hajmini bilish kerak bo`ladi. Buning uchun o`lchov birliklaridan foydalaniladi.

Axborotlarning eng kichik o`lchov birligi **bit** hisoblanadi. Bir bit axborot- bu ikkilik raqam **0 yoki 1** dan iborat bo`ladi. **Bit** - axborotlarning eng kichik o`lchov birligidir. Shuning uchun kompyuterda axborotlarni elementar qismlarini qayta ishlash uchun kattaroq o`lchov birligi – **bayt** ishlatiladi. Bir bayt bu sakkiz razryadli kod orqalibo`lib, u yordamida qanday kattalikdagi butun sonni yozish mumkin degan savol hosil bo`lishi mumkin.

Bu son 8 bitning hammasi 1 ga teng bo`lgan sonidir. Uning o`nli sanoq sistemasidagi qiymatini aniqlash uchun, unga 1 sonini ham qo`shamiz ham ayiramiz.

$$11111111_2=(11111111_2+1)-1=100000000_2-1=2^8-1=255$$

Bundan ko`rinib turibdiki, 1 baytda **0 dan 255** tagacha bo`lgan **256** ta butun sonlardan bittasini saqlash mumkin ekan. Lotin alifbosi harflarini kodlash uchun 52 ta son kerak bo`ladi. (26 ta bosh va 26 ta kichik harflar). Rus alifbosi harflarini kodlash uchun 66 ta son, unli raqamlarni kodlash uchun yana 10 ta son kerak bo`ladi. Shunday qilib, 1 bayt orqali lotin, rus alifbosi harflari, o`nli raqamlardan tashqari yana 128 ta ($256-52-66-10=128$ *) bosh belgilarni (nuqta, vergul, arifmetik amallar va boshqalar) ham kodlash mumkin ekan.

$$1 \text{ bayt} = 1 \text{ belgi.}$$

Bir bayt – bu faqatgina axborotlarning o`lchov birligi emas balki kompyuter xotirasininig elementar yacheykasi hamdir. Kompyuterlar xotirasi ana shunday yacheykalar ketma-ketligidan tuzilgan. Har bir yacheyka, ya`ni bayt o`zining adresiga ega. Adres bu yacheyka nomeridan va unda saqlanayotgan ikkilik koddan iborat bo`ladi. Prosessor axborotlarni qayta ishlayotganda xotiradan kerakli yacheykani nomer bo`yicha topadi, unda saqlanayotgan axborotni o`qiydi, kerakli amallarni bajaradi va hosil bo`lgan natijasi boshqa yacheykaga saqlaydi.

Kompyuter xotirasining hajmi baytlarda o`lchanadi, lekin buning uchun ko`p hollarda boshqa o`lchov birliklari ham ishlatiladi: kilobayt (Kbayt) va megabayt (Mbayt).

$$1 \text{ K bayt} = 2^{10} \text{ bayt} = 1024 \text{ bayt}$$

$$1 \text{ Mbayt} = 2^{10} \text{ Kbayt} = 1024 \text{ Kbayt}$$

Odatda yaxshi kompyuterlarning tezkor xotirasining hajmi 512 Kbayt yoki 640 Kbaytni tashkil qiladi. Shu o`rinda yaxshi kompyuter uchun bu ko`pmi yoki ozmi degan savol tug`ilishi tabiiy. Bitta sahifaga taxminan 50 ta satr joylashadi. Shuning uchun bitta sahifa taxminan $60 \times 50 = 300$ belgidan iborat yoki 3 Kbayt axborotdan iborat bo`ladi. Demak kompyuterning tezkor xotirasiga $640 : 3 = 200$ varaqdan iborat matnni sig`dirish mumkin ekan. Quvvati yuqori kompyuterlarning tezkor xotirasi bir necha Mbaytgacha hajmga ega bo`lishi mumkin.

Biz yuqorida ta`kidlanimizdek bitta belgidan iborat bo`lgan axborot kompyuter xotirasining 1 baytida saqlanadi.

Kompyuter sonli axborotlarni qanda tartibda qayta ishlashi, unda foydalanilayotgan prosessorga bog`liq bo`ladi.

Har bir prosessor ma`lum bir uzunlikdagi ikkilik kodlarni qayta ishlash uchun mo`ljallangan bo`ladi. Eng birinchi yaratilgan shaxsiy kompyuterlarda bir buyruq bilan faqat bir bayt axborotlarni qayta ishlovi prosessorlar qo`llanilgan. Bu kompyuterlar sakkiz razryadli hisoblangan. Ko`pchilik zamonaviy kompyuterlar 16 razryadlidir. Bu kompyuterlarda bitta buyruq bilan 2 bayt axborotni qayta ishlash mumkin.

16 –razryadli kompyuterlarda butun sonlarni saqlash va qayta ishlash uchun xotiraning 2 bayti ishlatiladi. Bunday kompyuterlar qanday butun sonlarni qayta ishlashi mumkin degan savol hosil bo`lishi tabiiy. Bizga ma`lumki, butun sonlar musbat va manfiy bo`lishi mumkin. Shuning uchun son shiorasini qanday kodlash mumkin? Buning uchun **16** bitdan bittasi, ya`ni chap tomondagi bit ishlatiladi. Agar u **0** ga teng bo`lsa, demak on ishorasi musbat, agar u **1** ga teng bo`lsa, u holda son manfiy bo`ladi. Quyida butun sonlarni saqlash sxemasi keltirilgan.

2 bayt=16 bit	
1 bit son ishorasi uchun	15 bit sonning absolyut qiymat uchun

Agar sxema bo`yicha **15** bitning hammasi **1**ga teng **7** bo`lsa, u holda butun son eng katta absalyut qiymatiga ega bo`ladi:

$$(111\ 1111\ 1111\ 1111_2+1)-1=1000\ 0000\ 0000\ 0000_2=-2^{15}-1=32767$$

16-razryadli kompyuterlar qayta ishlashi mumkin bo`lgan eng katta butun son 32767 ga teng.

Agar katta miqdordagi butun sonlarni qayta ishlash kerak bo`lsa, u holda ularni saqlash uchun 2 baytdan ziyod xotira lozim bo`ladi. Prosessor bitta buyruq bilan bunday axborotni qayta ishlay olmaydi. Shuning uchun 32767 dan katta sonlarni qayta ishlash uchun maxsus dastur tuzish kerak bo`ladi.

Butun sonlarni qayta ishlash jarayoni bo`yicha aytilgan fikrlar haqiqiy (kasr) sonlari uchun ham tegishli bo`ladi. Odatda 16-razryadli kompyuter kasr sonlarini qayta ishlay olmaydi, buning uchun maxsus dastur ishlatiladi.

Kompyuter xotirasida haqiqiy sonlar odatda 4 baytni egallaydi. Haqiqiy sonning o`zi eksponensial (qo`zg`aluvchan nuqtali) ko`rinishda tasvirlanadi. **Masalan,**

-184.525 soni $-0.184525Ye+3$ ko`rinishida yoziladi. Bu yerda 184525 sonning mantissasi, 3 esa son tartib ($Ye+3$ yozuv 10^3 ni anglatadi).

4 baytdan iborat yacheykada sonning mantissasi ishorasi bilan tartibi ishorasi bilan saqlanishi lozim. Haqiqiy sonlarning saqlanilish sxemasi quyida berilgan.

4 bayt=32 bit	
7 bit tartib uchun	25 bit son mantissasi uchun

Bu sxema bo`yicha son eng katta absalyut miqdori $2^6-1=63$ ga teng, mantissasi eng katta qiymati $2^{24}-1=16777215$ ga teng. Bundan ko`rinib turibdiki, mantissa 8 tadan ortiq o`nli raqamli haqiqiy sondan iborat bo`la olmaydi. Kompyuter hisoblash jarayonida mantissadagi ortiqcha raqamlarni tashlab yuboradi. Shuning uchun haqiqiy sonlar bilan bajariladigan barcha hisoblashlar har doim taqriban hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Qanday axborot kodlangan deyiladi?
2. Axborotlarni eng kichik o`lchov birligi nima? Boshqa o`lchov birliklarini ham bilasizmi?
3. Kompyuter xotirasida butun sonlar qanday saqlanadi? Haqiqiy sonlarchi?
4. Nima uchun haqiqiy sonlar ustida amallar taqriban bajariladi.
5. Sanoq sistemalari turlari.
6. Kompyuterlarni asosan ikkilik sanoq sistemasida ishlash sabablari.
7. Kompyuterlarni qisman o`noltilik sanoq sistemasidan foydalanish sabablari.
8. Ma`lumotlarni kompyuter xotirasida tasvirlanishi, ma`lumotlarni kodlash.
9. Kompyuter xotirasidagi ma`lumotlarni o`lchov birliklari.

3- Mavzu: Axborot va kompyuter texnologiyalarining asosiy vositalari. Zamonaviy kompyuterlar, ularning asosiy xarakteristikalarini, umumiy tuzilishi va foydalanish sohalari

Reja:

1. Kompyuterlar haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Kompyuterlarning umumiy tuzilishi.
3. Kompyuterlarning asosiy qurilmalari va vazifalari.
4. Kompyuterlarning foydalanish sohalari.

Tayanch iboralar: kompyuter, shaxsiy kompyuter, prosessor, displey, klaviatura, xotira, printer, disk yurituvchi, disk, yupqa magnit disk, vinchester.

Hozirgi kunda kompyuterlarning imkoniyati kun sayin benihoya kengayib bormoqda. Ular barcha sohalarda: qishloq xo'jaligida, xalq xo'jaligida, sanoatda, ishlab chiqarishda, fan va texnikada, boshqarishda, o'quv dargohlarida va hokazolarda keng qo'llanilmoqda. Kompyuterlar orqali buxgalteriya hisoblari bajarilmoqda, bank faoliyati va ishlab chiqarish sistemalari boshqarilmoqda, hujjatlar chiroyli qilib chop etilmoqda, rasm va multfilmlar yaratilmoqda, musiqa yaratilib, ijro etilmoqda, banklararo aloqalar elektron pochta yordamida amalga oshirilmoqda, turli xil o'yinlar o'rnatilmoqda, turli predmetlar va chet tillari o'rganilmoqda va hokozalar. **Kompyuter** degani inglizcha «**computer**» so'zidan olingan bo'lib, «**hisoblagich**» degan ma'noni anglatadi.

Kompyuterlarning eng ko'p tarqalgan turlari quyidagilardan iborat:

Katta EHM – bu kompyuterlar katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, o'zining ishonchligi, yuqori ishlash tezligiga ega ekanligi bilan boshqa kompyuterlardan ajralib turadi. Ular asosan yirik korxonalarda, xalqaro miqyosdagi banklarda, davlat tashkilotlarida va boshqa joylarda ishlatiladi. Ularga minglab displey va klaviaturalarni ham ulash mumkin.

Super EHM – bu kompyuterlar katta hajmdagi hisoblashlarga ega bo'lgan masalalarni yechish uchun mo'ljallangan. Ular asosan mudofa ishlarida, meteorologiya sohasida, geologiyada, astrologiya sohasida va hokazolarda ishlatiladi.

Mini EHM – bu kompyuterlar ham ma'lum bir sohaga tegishli masalalarni yechish uchun mo'ljallangan. Ular asosan davlat tashkilotlarida oliy o'quv yurtlarida, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarida qo'llaniladi. Ularga o'nlab, yuzlab displey va klaviaturalarni yoki shaxsiy kompyuterlarni qo'shish mumkin.

Shaxsiy kompyuterlar – bu kompyuterlar unchalik katta bo'lmagan hajmga va og'irlikka ega bo'lib, bitta kishi ishlashi uchun mo'ljallangan. Shaxsiy kompyuterga qo'shimcha vosita sifatida: modem, faks-modem, multimedia vositalari, telefon, lokal va global tarmoq vositalarini va boshqa qurilmalarni ulash mumkin. Hozirgi kunda **IBM PC va Pentium** turidagi kompyuterlar eng ko'p tarqalgan shaxsiy kompyuterlar hisoblanadi.

Cho'ntak kompyuterlari – bu kompyuter kichik hajmga va og'irlikka ega bo'lib, oddiy batareykalarda ishlashga mo'ljallangan. Ularda qattiq disk, disk yurituvchi yo'q bo'lib, miniyur ko'rinishdagi klaviaturadan ma'lumotlarni kiritish uchun foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda eng ko'p ishlab chiqarilayotgan va amaliyotga qo'llanilayotgan zamonaviy kompyuterlar shaxsiy kompyuterlar hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuterlar asosan quyidagi asosiy qurilmalardan iborat bo'ladi:

1. Sistemali blok.
2. Monityur
3. Klaviatura
4. Chop etish qurilmasi – printer.
5. Sichqoncha.

Sistemali blok. Sistemali blok kompyuterning eng asosiy qurilmasi bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:



- **mikroprocessor** – ko`p hollarda prosessor deb yuritiladi. U hisoblashlarni bajaradi va kompyuter ishini boshqaradi;

- **xotira** – ma`lumotlarni va hisoblash natijalarini saqlash uchun ishlatiladi;

- **kiritish chiqarishni nazoratchilar** – bu qurilma displey, magnit disklar, sichqoncha va boshqa qurilmalar ishini nazorat qiladi;

- **kiritish-chiqarish portlari** – kompyuter va tashqi qurilmalar orasida ma`lumotlarni almashtirib turish uchun ishlatiladi;

- **vinchester (qattiq magnit disk)** – ma`lumotlarni doimiy saqlash uchun ishlatiladi;

- **yupqa magnit disklar (disketlar)**- ma`lumotlarni doimiy saqlash hamda ularni bir kompyuterdan boshqa kompyuterga o`tkazish uchun ishlatiladi.

Disketlarga vinchesterga nisbatan ancha kam miqdordagi axborotlar joylashadi.

Mikroprocessor. Mikroprocessor shaxsiy kompyuterlarning asosiy qurilmasi hisoblanadi. Bu qurilma asosiy «intelektual» ishlarni bajaradi, arifmetik va mantiqiy hisoblashlarni bajaradi. Shu bilan birga kompyuter ishini nazorat qilib boradi.

IBM PC va Pentium kompyuterlarida asosan Intel Corporation of Santa Klara firmasi tomonidan yaratilgan mikroprocessorlardan foydalaniladi.

Ular zamonaviyligiga qarab, quyidagi turlarga bo`linadi: 086; 286;386; 486; Pentium P5, Pentium-Pro-P6, Pentium-II, Pentium-III, Pentium-IV va hokoz. Bu raqamlar Intel firmasi prosessorlarining nomini bildiradi. Raqamlarga qarab prosessorlarning quvvatini ham aniqlash mumkin.

Bundan tashqari «Epil (Apple) firmasi ham «Makintosh (Macintosh)» turidagi kompyuterlar ishlab chiqaradi. Bu kompyuterlar qo`shimcha ovoz berish qurilmasiga, mikrofonlar, dinamiklar, modellar bilan jihozlangan. Ayniqsa, hozirgi vaqtda bu firma juda baquvvat makintosh kompyuterlarini ishlab chiqarib, amaliyotga tadbqiq etmoqda. Makintosh kompyuterlari IBM kompyuterlariga qaraganda narxini ancha qimmatliligi tufayli unchalik keng tarqalmagan.

Xotira. Kompyuterlarning xotira qurilmasi ichki va tashqi xotira qurilmalariga bo`linadi. Ichki xotira qurilmasi o`z navbatida 2 ga bo`li-nadi: doimiy (ROM) va tezkor xotira (RAM).

Doimiy xotiradan kompyuterning barcha imkoniyatlaridan to`liq foydalanish uchun ishlatiladigan dasturlar majmuasini doimiy saqlab turish uchun foydalaniladi. Doimiy xotirada saqlanayotgan ma`lumotlarni o`zgartirib bo`lmaydi.

Tezkor xotira (RAM) kompyuterning eng muhim elementlaridan biri bo`lib, ma`lumotlarni ma`lum vaqtga saqlab turish uchun ishlatiladi. Tezkor xotirada saqlanayotgan ma`lumotlar kompyuter o`chirilganda o`chib ketadi. Tezkor xotirada hisoblashlar juda tez bajariladi.

Kompyuterlarning imkoniyati tezkor xotiraning hajmi bilan belgilanadi. Tezkor xotiraning hajmi qancha katta bo`lsa, kompyuterning imkoniyati ham shunchalik yuqori bo`ladi. Zamonaviy kompyuterlar odatda 16 va 32 Mbayt hajmga ega bo`lgan tezkor xotira bilan ishlab chiqilmoqda.

Tashqi xotira qurilmasi ham ma`lumotlarni doimiy saqlash uchun ishlatiladi. Tashqi xotira qurilmasi sifatida qattiq disk (NDD) va yupqa magnit disklar ishlatiladi.

Qattiq disk (NDD). Qattiq disklar (**vinchester**) kompyuter bilan ishlash jarayonida foydalaniladigan ma`lumotlarni doimiy saqlash uchun ishlatiladi. Bu ma`lumotlar operasion sistema dasturlari, ko`p qo`llaniladigan amaliy dasturlar majmuasi, hujjatlar muharriri, dasturlash tillari translyatorlari va hokazolardan iborat bo`lishi mumkin. Qattiq disklar boshqa xotira qurilmalaridan ishonchliligi; hajmining kattaligi va axborotlarni o`qish tezligining yuqoriligi bilan farq qiladi. Hozirgi vaqtda kompyuterlar 800 Mbaytdan 2,2 Gbaytgacha va undan ham kattaroq hajmga ega bo`lgan disklar bilan ta`minlanmoqda.

Yupqa magnit disklar. Bu magnit disklar ham ma`lumotlarni saqlash va ularni bir kompyuterdan boshqa bir kompyuterga o`tkazish uchun ishlatiladi. Kompyuterlarda **3,5 va 5,25 dyuma** o`lchovli yupqa magnit disklar ishlatildi:

5,25 dyuym o`lchovli disketlar «besh dyuym», 3,5 dyuym o`lchovli disketlar esa «uch dyuym»li disketlar deb yuritiladi. Uch dyuymli disketlarda ma`lumotlar saqlanishini ishonchligi ancha yuqori. Disketlar aso-san hajmi bilan bir-biridan farq qiladi.

Uch dyuymli disketlar 1,4 Mbayt gacha, besh dyuymli disketlar esa 1,2 Mbaytgacha hajmga ega bo`lgan axborotlarni saqlash uchun foydalaniladi.

Monitor. Monitor (display) ekranga sonli, matnli va grafik ma`lumotlarni chiqarish uchun ishlatiladi. Monitor oq-qora va rangli bo`li-shi mumkin. Ular rangi va ekranining o`lchovi bilan bir-biridan farq qiladi. Monitor matnli va grafik tartibida ishlashi mumkin.



Matnli tartibida monitor ekrani **25 satr** va har bir satrda **80 ta o`ringa** ajratiladi. Jami o`rinlar soni ixtiyoriy belgini yoki harfni hosil qilish mumkin. Matnli tartibda barcha amallar tez bajariladi.

Grafik tartibda ekranda alohida nuqtalardan iborat bo`lgan tasvir-lar oq-qora yoki rangli ko`rinishda ifodalanadi. Grafik tartibida ekranda matnlarni, rasmlarni, grafiklarni va hokazolarni hosil qilish mumkin.

Hozirgi kunda eng ko`p tarqalgan quyidagi rangli monitorlar ishlatiladi:

EGA – ekranda gorizontal bo`yicha 640 nuqta va vertikal bo`yicha 350 nuqta hosil qiladi;

VGA –gorizontal bo`yicha 640 nuqta va vertikal bo`icha 480 nuqta;

SVGA -640x480, 800x600, 1024x768 ta nuqta hosil qiladi.

Klaviatura. Klaviatura ma`lumotlarni kiritish va kompyuter ishini boshqarish uchun ishlatiladi. Kompyuterlar odatda **101** tugmachali standart klaviatura bilan ta`minlanadi. Klaviaturani shartli ravishda **4 guruh** klavish (tugmacha)lariga bo`lish mumkin:



1. Harfli –raqamli va belgili tugmachalar. (bo`shliq, 0-9 raqam-lari, A-Ya lotin harflari, A-Ya ruscha harflar, +,-,*,/ maxsus belgilar va boshqalar).

2. FunkSIONAL tushmachalar: F1, F2, ... , F10.

3. Xizmatchi tugmachalar: Enter, Esc, tab, kursorni boshqarish tugmachalari Shift, Ctrl, Alt, PgUp, PgDn, Home, End va boshqalar.

4. Klaviaturaning yordamchi (o`ng klaviatura) tugmachalari.

Klaviatura tugmachalariga «**Vstavka-Simvol**» bo`limi yordamida ixtiyoriy belgilarni yoki alifbo harflarini o`rnatish mumkin.

Chop etish qurilmasi – printer. Printer axborotlarni qog`ozga chop etish uchun mo`ljallangan. Printerlar faqat matnli axborotlarni emas, balki grafiklarni, tasvirlarni, rasmlarni ham chop etish uchun ham ishlatiladi. Printerlarning juda ko`p xillaridan foydalaniladi. Ular rangli va rangsiz chop qilishni ta`minlaydi.



Ko`p ishlatiladigan printerlar **matrisali, struyinli va lazerli** printerlar hisoblanadi.

Matrisali (ignali) printerlar ilgari vaqtda eng keng tarqalgan printerlar bo`lib, chop etish sifatining uncha ham yuqori emasligi, ishlash jarayonida shovqin chiqarishi va rangli tasvirda chop etishga qodir emasligi bilan boshqa printerlardan farq qiladi. Matrisa printerlarda chop etish maxsus ignachalar orqali amalga oshiriladi. Ular **9** va **24** ignali bo`lishi mumkin. Ularning narxi ancha arzon bo`lganligi tufayli hozirga qadar qo`llanilib kelinmoqda.

Struyinli printerlar. IBM PC kompyuterlar uchun eng keng tarqalgan printerlar hisoblanadi. Bu printerda axborotlarni chop etishi uchun maxsus buyoqlar ishlatiladi. Struyinli printerlar matrisali printerdan shovqinsiz ishlashi, chop etishning sifati bilan keskin farq qiladi. Shu bilan birga rangli tasvirda chop etish imkoniyatiga ham ega.

Lazerli printerlar oq-qora va rangli tasvirda yuqori sifatli darajada chop qilishni amalga oshiradi. U matrisa va struyinli printerlar-dan chop etishning sifati va tezligi, hamda umuman shovqinsiz ishlashi bilan farq qiladi. Lazerli printerlarda chop etish tezligi matrisali va struyinli printerlarga qaraganda **4-5 baravar** yuqori bo`ladi. Lazerli printerlarda chop etilgan hujjatlarni to`g`ridan to`g`ri bosmaxonalarda ko`paytirishga berish mumkin.

Sichqoncha. Sichqoncha zamonaviy kompyuterlarning ajralmas qismi bo`lib qoldi. Ular kompyuterda ishlashni va uning ishini boshqarishni ancha yengillashtiradi.



Zamonaviy operatsion sistemalar muhiti va DOS ning ko`plab dasturlari bilan ishlash uchun sichqonchadan keng foydalaniladi. Sichqoncha **ikkita yoki uchta** tugmacha bilan ta`minlangan bo`ladi. Sichqonchani ostida turli yo`nalishlar bo`yicha harkatlantirish uchun **sharikcha** qo`llaniladi. Sichqonchani stol ustida harakatlantirganda unga mos ravishda ekranda **sichqoncha ko`rsatkichi (strelka)** harakat qiladi. Agar kerakli biror amalni bajarish kerak bo`lsa, sichqoncha ko`rsatkichi kerakli joyga keltiriladi va u yoki bu tugmachasi bosiladi.



Modem. Ma`lumotlar bilan telefon aloka orqali almashish qismi. Modemlar tezligi (2400 bit sekunddan - 33600 bit sekundgacha) buyicha farqlanadi. Telefonda xamma ma`lumotlar tovush holatida buladi, kompyuterda esa raqamlar holatida. Shuning uchun bitta modem raqamlarni tovush holatiga utkazadi, ikinchisi esa tovushlarni raqamlarga o`tkazadi. Bu holat modelirovaniye va demodulirovaniye deb nomlanganligi uchun bu kurilmalar MODEM deb nomlangan

Модем- устройство для передачи компьютерных данных на большие расстояния по телефонным линиям связи.

Цифровые сигналы, вырабатываемые компьютером, нельзя напрямую передать по телефонной сети, потому что она предназначена для передачи человеческой речи – непрерывных сигналов звуковой частоты.

Модем обеспечивает преобразование цифровых сигналов компьютера в переменный ток частоты звукового диапазона – этот процесс называется модуляцией, а также обратное преобразование, которое называется демодуляцией. Отсюда название устройства- модем-модулятор/ демодулятор.

Схема такова: Компьютер-Модем-Телефон=Телефон-Модем-Компьютер

Для осуществления связи один модем вызывает другой по номеру телефона, а тот отвечает на вызов. Затем модемы посылают друг другу сигналы, согласуя подходящий им обоим режим связи.

Модемы бывают внешние, выполненные в виде отдельного устройства, и внутренние, представляющие собой электронную плату, устанавливаемую внутри компьютера.



Сканерлар. Tasvir va matn ma`lumotlarni kompyuterga kiritish qismi. Skanerlar rangli va rangsiz buladi. Ular tasvirlarni olish sifati buyicha farqlanadi.



Актив колонклар. Musika va xar xil tovushlarni chikarish kurilmasi. Aktiv kolonkalar dinamiklar soni (1 yoki 2 dinamikli) buyicha farqlanadi. va hokazo.

Система блоки.

Система блоки бу компьютернинг энг асосий қисми. Унинг ичиди она платаси, микропроцессор, каттик диск йоки винчестер, тезкор ва кеш хотира микрохемалари, электрон схемалар йоки контроллерлар йоки адаптерлар, электр та`минловчи блок ва диск йуритувчилари joylashadi. Бу система блокига хамма ташки курилмалар boglanadi va u ularning ishini ta`minlaydi.

Система блокнинг асосий қисмлари:



Микропроцессор йоки процессор- Компьютернинг миyyаси. Компьютер ишини бoшкарish, barcha hisob-kitoblar va bo`yruqlarni bajarilishini ta`minlaydi. U kichkina, turtburchak elektron

sxema sekundiga bir necha yuz million amallarni bajaradi. Uning tezligi Megagerslarda hisoblanadi va prosessor nomidan keyin yoziladi, masalan Pentium 700.



Kattik disk yoki vinchester - Doimiy xotira. Ma'lumotlarni doimo saqlash uchun foydalanadi. U vinchester deb nomlanadi. Vinchester nomi birinchi kattik disk nomidan kelib chikkan (1973 yilda IBM firma tomonidan yaratilgan kattik disk nomi "30/30" bo'lgan va bu mashhur Winchester miltikning kalibrga uxshar edi). Ular xajm va ishlash tezligi bilan farqlanadi.



Tezkor xotira mikrosxemalari - Kompyuterning vaktinchalik xotirasi. U dasturlar ishlash jarayonida zarur bo'lgan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanadi. Kompyuter uchirilgandan keyin shu xotiradagi ma'lumotlar yukotiladi.



Kesh xotira mikrosxemalari - Kompyuter tomonidan dasturlar ishlash jarayonida kup ishlatilgan ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanadi. Bu xotira tezkor va doimiy xotira urtasida joylashadi.



Kontroller yoki adabterlar - Ular xar xil tashqi qurilmalar ishini ta'minlaydilar. Ishlash holatlari bilan farqlanadi (video plata, tovush plata, tarmoq platasi va ...).



Ona platasi (Mother board) - Asosiy elektrosxema bulib unga prosessor, tezkor va kesh xotira mikrosxemalari, kontroller va adabter elektrosxemalari urnatiladi, kattik disk va disk yurituvchilari ulanadi



Disk yurituvchilari - Bu egiluvchan va kompakt disklardagi ma'lumotlarni o'qish va ularga saqlash ishlarni bajaradigan qismi.




Elektr ta'minlovchi blok - Xar bir kisimning uziga mos elektrquvvat extiyojini ta'minlovchi blok.

Sichqoncha va klaviaturada bajariladigan amallar.

Kompyuterning asosiy kisimlaridan biri bu sichkoncha. U 3 xil bo'ladi: standart, trekbol va sensor panel. Standart sichkonchalar stol ustida ishlatish zarur bo'lgan, sensor panel bilan trek-bollar esa noutbuklar uchun yaratilgan va ular pastki paneli ichiga urnatilgan buladi.

Sichkoncha ichida rezina ichiga joylashgan temir sharik bor, u stol buyicha xarakat qilganda maxsus roliklar va indikatorlar orkali ushbu xarakat kompyuterga junatiladi va ekrandagi sichqoncha ko'rsatkichi (strelkasi) biz belgilagan yunalishda xarakatlanadi.



Sichkonchaniing ikkita tugmasidan chap tugmasi asosiy, ung tugmasi esa yordamchi buladi. Asosiy tugma bilan biz tugmalarni bosamiz, amallarni tanlaymiz, rasm chizamiz va xar xil ob`yektlarni chuzib joyini o`zgartiramiz. O`ng tugma esa bizga yordamchi menyuni ekranga chiqarishda yordam beradi.

Kompyuterning yana bir asosiy qismidan biri bu klaviatura. Klaviatura yordamida biz aso-san ma`lumotlarni kiritamiz. Klaviatura xarflar joylanishi buyicha ingliz (QWERTY) va fransuz (AZERTY) standartlariga bulinadi.



Klaviatura 5 qismdan iborat Asosiy yoki alfavit tugmalari: Bu qismi 57ta tugmadan iborat: 37 lotin xarf va belgilar, 10 rakam va 10 maxsus tugmalar. Kup tugmalarda bir nechta belgilar yozilgan. Xar xil rangda yozilgan xarflar, belgilar xar xil til standartiga mos. Til standartini uzgartirish klaviaturalarda xar xil (ung Alt va Shift yeki ikkita Shift yeki ung Ctrl va Shift tugmalarni birga bosish). Maxsus tugmalar bilan yaqinrok tanishaylik. Shift - Agar siz xarflar tugmasini bosgangiz u xolda kichik xarf kiritiladi, agar sizga katta xarf kerak bulsa u xolda maxsus Shift tugmani bosib, quyvor-masdan shu xarf tugmasini bosishiz kerak. Agar bitta rang bilan bir nechta belgilar yozilgan bulsa u xolda ulardan pastkidagi asosiy, yukoridagi passiv deb nomlanadi. Tugmani bosganizda asosiy belgi kiritiladi. Agar sizga passiv belgi kerak bulsa u xolda siz maxsus tugmani bosib, qo`yvormasdan belgi tugmasini bosishiz kerak. Ctrl va Alt - shu tugmalarni bosib turib boshqa tugmani bosganimizda xar xil amallar bajariladi. Caps Lock - Bu tugma yordamida Shift bosilib turgan holatini (fakat xarflar uchun) yokamiz yoki uchiramiz. Tab - Keyingi bo`linga yoki qismga o`tish. Backspace - Oldin (chapda) joylashgan bitta belgini uchirish. Enter - Yangi satrga utish yoki ma`lumotlarni kiritish. Esc - Oxirgi xarakatdan voz kechish.

Funksional tugmalar: Maxsus bo`yruqlar va amallarni bajarish tugmalari F1 - F12. Xar xil programmalar bu tugmalarga xar xil amallarni urnatadi.

Yunalish tugmalari: Kursor joylanishini uzgartiradi. Kursorni bitta belgi chapga, yukoriga, ungga va pastga siljitish.

Yordamchi tugmalar: Home - Satr boshiga utish. End - Satr oxiriga utish. PgUp - Bir sahi-fa yukoriga utish. PgDn - Bir sahifa pastga utish. Insert - Belgilarni uchirib ustiga yozish yoki ularni siljitib urtasiga yozish holatini urnatish. Delete - Keyin (ungda) joylashgan bitta belgini uchirish.

Raqamlar tugmalari: Rakamlarni kiritish uchun klaviatura. 0-9 gacha rakamlar va /,*,-,+ belgilari

Nazorat uchun savollar:

1. Shaxsiy kompyuter asosiy kurilmalarini tariflab bering?
2. Monitorlar haqida nima bilasiz?
3. Printerlar haqida nima bilasiz?
4. Sichkoncha, modem, skaner va aktiv kolonkalar xaqida nima bilasiz?
5. Mikroprosessor va qattiq diskni tariflab bering?
6. Tezkor va kesh xotira mikroshemalarini tariflab bering?
7. Kontroller va adabterlarni kiskacha tariflab bering?
8. Ona platasi, disk yurituvchilari va elektr ta`minlovchi blokni tariflab bering?
6. Klaviatura turlari? Asosiy kism va maxsus tugmalarni tariflab bering?
7. Funksional va yordamchi tugmalarni tariflab bering?

4-Mavzu: Zamonaviy operasion tizimlar to`g`risida umumiy ma`lumotlar

Reja:

1. Dasturiy ta`minoti va uning tarkibiy qismlari.
2. Operasion sistema va uning turlari.
3. Fayl va katalog tushunchasi.
4. Faylli sistema.

Tayanch iboralar: dasturiy ta`minot, operasion sistema, fayl, katalog, qism katalog, faylli sistema, operasion sistema buyruqlari.

Dasturlar turlari

Kompyuterda xar xil turdagi ma`lumotlar saklanadi. Ular bilan ishlash uchun biz xar xil maxsus dasturlar bilan foydalanishimiz zarur, chunki kompyuter uzi xech kanaka xarakatlar bajarmaydi u fakat bizning bo`yruqlarimizni va kursatmalarimizni bajaradi. Bo`yruqlar va kursatmalar ketmaketligi esa dastur deb nomlanadi (dastur tushunchasi yuqoridagi mavzularda utilgan). Dasturlar 3 turga bulinadi:

1) **SISTEMA DASTURLAR TURI.** Sistema dasturlar bu kompyuter ishini boshkaruvchi va xar xil yordamchi amallarni bajaruvchi dasturlar.

Masalan: fayllar ustidan xar xil amallar bajarish (qayta nomlash, yaratish, uchirish, nusxasini olish, xajmini uzgartirish), diksni tozalash va tekshirish, kompyuterni sozlash (tashqi qurilmalar ishini boshkarish). Sistema dasturlar ichida 4 dasturlar guruhlari ajratilib turadi. Bular: operatsion tizimlar (sistemalar), utilita dasturlar, drayver dasturlar va dastur koplamlar.

Shulardan *operatsion sistemalar* dasturlar guruhi juda katta axamiyatga ega. Bu dasturlar kompyuter ishini boshkaradi, xar xil dasturlarni kompyuter xotirasiga yuklaydi va bajaradi, fayllar, kataloglar va disklar ustidan xar xil amallarni bajaradi. Xamma dasturlar shu operatsion sistema dasturning imkoniyatlaridan foydalanadi va shuning uchun xamma dasturlar fakat shu dastur orkali ishga tushadi. Yeng tanikli operatsion sistemalar: MS-DOS va Windows (Microsoft korporasiya) dunyodagi kompyuterlarning 75-80%, Makintosh (Apple firmasi) dunyodagi kompyuterlarning 5-10%, Linux va Unix dunyodagi kompyuterlarning 10-15%. MS-DOS operatsion tizimi bilan biz keyin yakinrok tanishamiz.

Utilita-dasturlar bu operatsion sistemani imkoniyatlarini kuchaytiruvchi dasturlar. Masalan: disklar ustidan xar xil amallarni bajaruvchi dasturlar, kompyuter ishini tezlashtiruvchi dasturlar, malumotlar xajmini uzgaruvchi dasturlar, viruslarni aniklovchi dasturlar va xokazo

Boshqa ko`p tarqalgan sistema dasturlardan biri bu *drayver dasturlari* va *dastur-kooplamlar*. *Drayverlar-dasturlar* bu operatsion sistemaga tashqi va ichki qurilmalar bilan ishlashda kulayliklar yaratuvchi dasturlar. Bu dasturlar asosan shu qurilmalar chikaruvchi firmalarda yaratiladi va qurilmalar bilan birga tarkalinadi. Masalan: monitorlar drayverlari, SD-ROM lar drayverlari va xokazo. *Dastur koplamlar* bu operatsion sistemaning imkoniyatlardan chiroliiy va kulay xolda

foydalanishni taminlovchi dasturlar. Shulardan eng tanikliysi bu NORTON COMMANDER dasturi, bu dastur bilan biz 4-bobda tanishamiz.

2) **AMALIY (prikladnyye) DASTURLAR TURI.** Amaliy dasturlar bu ma'lumotlar bilan ish jarayonida foydalanadigan dasturlar.

Masalan: matn ma'lumotlarni yaratish va taxrirlash, rasm va tasvir ma'lumotlarni yaratish yoki uzgartirish, malumotlar ombori bilan ishlash, musika va video ma'lumotlarni kurib chikish va taxrirlash.

Amaliy dasturlar foydalangan ma'lumotlar turiga kura guruhlanadi: matn muharrirlari (Word, Lexicon, WD, Notepad, Write va xokazo), rasm va tasvir muxarirlari, rasm va tasvirlarni kursatuvchi dasturlar (Corel, Adobe Photoshop, Imaging, ACDSsee, Paint vaxokazo), musika va video muharrirlari, musika va video kursatuvchi dasturlar (Adobe Premier, Winamp, universal proigrovatel va xokazo), jadvallar muharriri (Lotus, Excel va xokazo), ma'lumotlar ombori bilan ishlovchi dasturlar (Access, Dbase, FoxPro va xokazo), uyin dasturlari, urgatuvchi dasturlar, bugalteriya va moliya dasturlar, va boshkalar.

3) **INSTRUMENTAL DASTURLAR TURI.** Instrumental dasturlar bu yangi dasturlar yaratuvchi dasturlar sistemalari.

Instrumental dasturlarga maxsus dasturlash tillari bilan ishlaydigan dasturlar sistemalari kiradi. Ular dasturlash tiliga kura farqlanadi: S, Basic, C++, Delphi, va boshkalar. Bu dasturlar sistemalar uziga bir nechta dasturni jamlagan bulib bular: dasturlash tili muharriri, translyator, komplyator va boshka yerdamchi dasturlar.

Bundan tashkari xamma dasturlar pulliy, bepul va kisman pulli bulishi mumkin. Masalan: drayverlar asosan bepul yoki kisman pulliy buladi, mashxur bulmagan firmalar dasturlari xam bepul yeki kisman pulliy buladi, tanikli firmaning maxsuloti esa pulliy. Bepul dasturlar asosan imkoniyatlari kiskartirilgan xolda buladi.

Oxirga paytlar pirat nusxa dasturlari xam juda ko'p tarqalgan. Shuning uchun dasturlarni pirat va original nusxa turlariga bulish xam mumkin. Pirat dasturi original dasturga karaganda juda arzon buladi, leykin bu dasturlarga xech kanday kafolat berilmaydi. Shuning uchun katta firma va korxonalar, banklar va davlat idoralari fakat original dasturlardan foydalanadi.

Har bitta dastur uzining nomeriga ega. Bu nomer versiya deb nomlanadi. Versiyalar asosan rakamlar bilan kuyiladi va oxirgi paytlarda, dastur chikkan yili buyicha kuyiladi. Masalan Windows 95 yoki Windows 98 yoki Windows 2000. Xar bitta yangi versiyali dastur, oldingi versiyalardan kulayliklar va imkoniyatlari ko'p bo'lgani bilan yoki kompyuterga talablari uzgargani bilan farqlanadi.

Hozirgi kunda kompyuterlarning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun bir necha minglab turli xil dasturlar yaratilgan bo'lib, ular kompyuterning dasturiy ta'minotini tashkil qiladi. Bu dasturlar bajaradigan funksiyalariga qarab operasion sistemalar, dasturlash sistemalari va amaliy dasturlar sistemasi kabi guruhlariga bo'linadi. Dasturli ta'minotni eng asosiy qismini operasion sistemalar tashkil qiladi.

Operasion sistema kompyuterning dasturiy ta'minotiga kiruvchi, uning ishini ta'minlovchi, masalalarni bajarilishini rejalashtiruvchi, foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasida muloqot o'rnatuvchi, uning barcha imkoniyatlarini boshqaruvchi dasturlar tizimidir.

Boshqacha aytganda, kompyuterlarning operasion sistemasi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- kompyuterning turli ichki qurilmalari orasida ma'lumotlar almashinuvchi amalga oshiradi;
- foydalanuvchi yoki sistemali dasturni bajarilishini ta'minlaydi;
- klaviatura, displey, disk yurituvchi, chop etish va boshqa qurilmalar ishini yengillashtiradi;
- masalalarni tartib bilan ketma-ket bajarilishini rejalashtiradi;
- foydalanuvchi kompyuterdan to'liq foydalanishi uchun barcha imkoniyatlarini yaratadi;
- operasion sistema mashina tilida yozilgan dasturlar to'plamidan iborat bo'lib, uning elementlarini yaratishda avtokod va hatto yuqori darajali dasturlash tillari ishlatilishi mumkin.

Dasturlar yaratilib bo'lingach, translyasiya qilinishi, ya'ni kompyuter tiliga o'tkazilishi kerak. Operasion sistemaning asosiy qismi doimiy xotirada, qolgan qismlari esa tezkor va tashqi xotirada hamda maxsus magnitli disklarda saqlanadi.

Hozirgi kunda kompyuterlar uchun o'nlab turli xil operasion sistemalar yaratilgan bo'lib, ular asosan uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1. 8-razryadli mikroprocessorli kompyuterlar uchun SR/M operasion sistemasi. Bu operasion sistemaning yaratilishi kompyuterlar uchun boshqa operasion sistemalarning yaratilishiga asos soldi. SR/M operasion sistemasi 1974 yilda yaratilgan va ko`plab 8 razryadli mikroprocessorli shaxsiy kompyuterlarga o`rnatilgan. Uning asosiy yutug`i juda soddaligida va turli xil kompyuterlar uchun tezroq moslash-tirilishidan iborat.

2. 16-razryadli mikroprocessorli kompyuterlar uchun operasion sistemalar. Hozirgi vaqtda MS DOS operasion sistemasi 16-razryadli mikroprocessorli kompyuterlar uchun eng ko`p qo`llaniladigan operasion sistemasi hisoblanadi. U o`zining imkoniyatlarining kengligi bilan SR/M operasion sistemadan farq qiladi. Bu turdagi operasion sistemadan farq qiladi. Bu turdagi operasion sistemalar asosiy ustunligi quyidagidan iborat: buyruqlar tilining kengayganligi; faylli sistemaning iyerarxik ko`rinishga egaligi; tashqi qurilmalar bilan ishlash imkoniyatini mavjudligi va hokazo. MS DOS operasion sistemasida ishlash uchun 60 Kbaytga yaqin xotira hajmi kerak bo`ladi.

3. 16-32 razryadli mikroprocessorli kompyuterlar uchun UNIX operasion sistemasi. Bu sistema 70 yillardan boshlab imkoniyatga ega ekanligi uchun 16 va 32 razryadli mikroprocessorli kompyuterlarda qo`llanila boshlandi.

UNIX sistemasi keng imkoniyatli faylli sistema va buyruqlar tili prosessoriga ega. Bu sistema o`zining imkoniyatliligi, boshqa kompyuterga tez va samarali sozlanishi hamda foydalanuvchi bilan muloqotni soddaligi bilan farq qiladi.

Bundan tashqari, yuqorida sanab o`tilgan operasion sistemalar asosida aniq kompyuterga va ma`lum bir sohada qo`llanish uchun ko`plab boshqa operasion sistemalar ham yaratilmoqda. Bu sistemalarga MSX DOS, mikro DOS, CP/M-80, PAFOS forth, Mikros -80, XENIX, OC DBK va boshqa shu kabi sistemalarni keltirish mumkin.

Operasion sistemalarni qo`llanish sohalari quyidagicha berish mumkin:

Qo`llanish sohasi	Kompyuter		
	8-razryadli	16-razryadli	32-razryadli
O`quv jarayoni	CP/M-80, Mikro DOS, Foth, MS DOS	MS DOS, DAFOS, INFOS, OSDVK	UNIX, MNOS, INFOS
Iqtisodiy-rejalashtirish hisoblashlar	CP/M-80, Mikros-80	MS DOS, RAFOS, Mikros-86	UNIX, XENIX, CP/M-68 K
Injenerlik hisoblashlar	CP/M-80, Mikros-80	MS DOS, INFOS, RAFOS, OSDVK	UNIX, DEMOS
Ilmiy izlanishlar	Maxsus operasion sistemasi	INFOS, DEMOS, MS DOS	UNIX, DEMOS

Operasion sistemalar quyidagi asosiy komponentalardan iborat bo`ladi: fayllar sistemasi, tashqi qurilmalar drayveri va buyruqlar tili prosessori.

Fayllar sistemasi. Fayl kompyuterlar xotira qurilmasida saqlanadigan ma`lumotlarning turi. Har bir fayl biror ko`rinishdagi ma`lumotni saqlash uchun ishlatiladi. Fayl-biror dasturdan, matndan, hujjatdan, grafik tasvirdan va hokazolardan iborat bo`lishi mumkin.

Kompyuter xotirasida saqlanayotgan fayllar fayllar sistemasini tashkil qiladi. Fayllar sistemasi kompyuterlarning operasion sistemasining eng asosiy tarkibiy qismi bo`lib, foydalanuvchilar kom-pyuter bilan muloqot qilishi, kerakli axborotlarni izlab topishi va samarali ma`lumotlar bazasini yaratish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi.

Fayllar operasion sistema tomonidan xotira qurilmalarida ajratilgan maxsus joylarda saqlanadi. Har bir fayl foydalanuvchi tomonidan berilgan o`z nomiga ega bo`ladi.

Fayl nomi 2 qismdan iborat bo`ladi, ya`ni fayl nomi va kengaytmasi. Faylni belgilash uchun unga nom va uning turini bildiruvchi kengaytma beriladi. Nom sakkiztagacha lotin harflaridan, belgilardan va raqamlardan iborat bo`lishi mumkin. Kengaytma esa uchtagacha belgidan iborat bo`ladi va u fayl turini ko`rsatadi. Nom va kengaytma bir-biridan (.) **nuqta** bilan ajratiladi. Nom kengaytmasi mavjud fayllar turidan, shu bilan birga ixtiyoriy nom kengaytmasidan ham iborat bo`lishi mumkin.

Operasion sistemalarda ishlatiladigan nom kengaytmalari quyidagicha:

- **.txt** - matnli fayllar;
- **.doc** - hujjatli fayllar;

- **.bas** - Beysik tilidagi dastur;
- **.c** - SI tilidagi dastur;
- **.pas** - Paskal tilidagi dastur;
- **.exe** - bajariluvchi fayl;
- **.com** - bajariluvchi buyruqli fayl;
- **.bat** - buyruqli fayl;
- **.bak** - matnli fayl nusxasi;
- **.dat** - ma`lumotli fayl;
- **.dbf** - ma`lumotlar bazasining tezkor fayli.
- **.xls** – Excel dasturidagi fayl.

Xotira qurilmasida saqlanayotgan barcha fayllar ro`yxati katalogda joylashgan bo`ladi.


Katalog – yunoncha katalogos - so`zidan olingan bo`lib, ro`yxat degan ma`noni bildiradi.

Katalog –fayl nomlari va turlari joylashgan xotira qurilmasidagi maxsus joy.

Har bir katalogda bir necha fayllar joylashishi mumkin, ammo diskdagi fayllarning har biri yagona katalogda qayd etilgan bo`ladi.

Kataloglar fayllar haqidagi axborotlarni saqlash uchungina emas, balki diskdagi yuzlab, ba`zan esa minglab fayllarni tartib bilan saqlash, saralash, ularni izlash va foydalanishda qulaylik yaratish uchun ham zarurdir. Kataloglar o`z nomiga ega bo`ladi. Katalog nomi 8 tagacha belgidan iborat bo`lishi mumkin. Kataloglar ichma-ich joylashgan bo`lishi mumkin. Agar bir katalog boshqa bir katalog ichida joylashgan bo`lsa, boshqa katalog ichida joylashgan katalog ichida joylashgan katalog unga nisbatan qism katalog deb yuritiladi. Bunday holda faylli sistema iyerarxik ko`rinishga ega bo`ladi, ya`ni turli darajadagi kataloglar saqlanadi.

Diskdagi barcha katalog va fayllar ro`yxati saqlanadigan katalog asosiy yoki ona kataloglar deb yuritiladi. Unda birinchi darajali kataloglar va alohida fayllar saqlanadi. Birinchi darajali katalogda esa ikkinchi darajali katalog va alohida fayllar saqlanishi mumkin. Har bir katalog darajalari bo`yicha joylashgan kataloglar uchun ona katalog bo`lishi mumkin:



Bitta katalogda bir xil nomdagi bitta fayl saqlanishi mumkin. Lekin, bir xil nomdagi fayllar turli xil darajadagi kataloglarda saqlanilishi mumkin.

Tashqi qurilmalar drayveri. Qurilmalar drayveri – kompyuterning tashqi qurilmalar bi-lan aloqasini ta`minlaydi. Drayver so`zi inglizcha so`zdan olingan bo`lib «driver» - haydovchi yoki boshqaruvchi degan ma`noni bildiradi.

Kompyuterlar katta hajmdagi tashqi qurilmalarga ega bo`ladi. Bular displey, klaviatura, disk yurituvchi, disklar va chop etish qurilmalaridir. Bundan tashqari kompyuterga qo`shimcha kiritish-chiqarish qurilmalari: sichqoncha, telefon, manipulyator, modem, lokal va global tarmoq, skaner va boshqalarni ulash mumkin

Tashqi qurilmalar to`plami ishini to`liq ta`minlash opearasion sistemaning asosiy funksiyalaridan biridir. Bu funksiyani bajarish uchun tashqi qurilmalarni boshqarish dasturlari – drayverlar ishlatiladi.

Standart tashqi qurilmalar drayveri kiritish-chiqarishning bazaviy sistemasini hosil qiladi va kompyuterning doimiy xotira qurilmasiga joylashgan bo`ladi. Kompyuter ishga tushirilgan paytda, bu qurilmalar kompyuterga qo`shilgan yoki qo`shilmaganligidan qat`iy nazar, ular

kompyuter xotirasiga yuklanadi. Qo`shimcha qurilmalar drayverlari esa o`zlarining doimiy xotirasida saqlanadi va ular kompyuterga qo`shilgandan keyin ishga tushiriladi.

Buyruqlar tili prosessori. Har qanday operasion sistema o`zining buyruqlar tiliga ega bo`lib, ular yordamida foydalanuvchi u yoki bu turdagi amallarni ifoda qiladi. Foydalanuvchi buyruqlar tilida tuzilgan dasturini tahlil qilishni va bajarishni uchun operasion sistema tarkibiga kirgan maxsus dasturlar – buyruqlar tili prosessori orqali amalga oshiradi.

Buyruqlar tili prosessori – foydalanuvchi bilan kompyuter o`rtasida muloqot o`rnatuvchi maxsus dasturdir. Buyruqlar tili prosessori alohida buyruqlardan tashqari, foydalanuvchi tomonidan ilgari tuzilgan ancha murakkab ko`rinishdagi buyruqlar ketma-ketligini ham tahlil qiladi va bajaradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Operatsion tizim tarixini va asosiy kisimlarini tariflab bering.
2. Operatsion tizimning yuklanish tartibini tariflab bering.
3. Katalog nima uchun ishlatiladi?
4. Fayl to`g`risida ma`lumot bering.

5-Mavzu: MS DOS operasion tizimi, vazifasi va asosiy buyruqlari. Fayl va kataloglar bilan ishlash

Reja:

1. MS DOS operasion sistema va uni tashkil etuvchilar.
2. MS DOS operasion sistemasining vazifasi va imkoniyatlari.
3. MS DOS operasion sistemasining asosiy buyruqlari.
4. MS DOS fayllar bilan ishlash.

Tayanch iboralar: MS DOS, asosiy buyruqlar, fayl va katalog yaratish, fayl va katalogdan nusxa olish, fayl va katalogni o`chirish, fayl nomini o`zgartirish

MS-DOS (MicroSoft Disk Operation System) 1981 yilda Microsoft firmasida IBM firmasining birinchi personal kompyuteri IBM PC uchun yaratilgan. Disk Operasion Cistema (DOS) bizga fayl, katalog va disklar bilan ishlash va ular ustidan xar xil amallarni bajarish uchun yordam beradi. Bu dastursiz kompyuter bilan ishlaolmaysiz. Shuning xar bitta yangi kompyuterga firmalar xar xil operasion sistemalarni yezib kuyishadi. DOS ning asosiy kismlari kuyidagilar:

Disk sistemaning asosiy fayllari (IO.SYS va MSDOS.SYS). Bu fayllar MS-DOS ning asosiy qismini kompterning tezkor xotirasiga yuklatadi. Bu fayllar asosiy (yuklanish) katalogida joylanishi shart.

Bo`yruqlar prosessori fayli (COMMAND.COM). Klaviaturadan berilgan bo`yruqlarni bajaradi. Agar bo`yruq ichki (command.com fayl ruyxatidagi bo`yruq) bulsa u xolda uni bajaradi, agar bo`yruq tashki (command.com fayl ruyxatida yuk bo`yruq) bulsa u xolda shu nomli programmani diskda topib uni xotiraga yuklaydi. COMMAND.COM fayli asosiy katalogda joylanishi shart.

- Tip dannyx (Ma'lumotlar turi) ustunining qatorida uni sichqoncha ko'rsatkichi bilan turtganda hosil bo'ladigan pastki tomonga yo'nalgan strelkachali tugmachani turtganda ochiladigan ro'yxatdan ma'lumotlarning Schetchik deb nomlangan maydon ko'rsatgichlarini dastur taklif qilgan ko'rinishda qoldirganingiz ma'qul.

- Xuddi shunday tartibda yuqorida ko'rsatilgan jadvaldan foydalangan holda uning barcha maydonlarini ma'lumotlar bazasiga kiriting.

Ushbu konstruktor darchasining «Opisaniye» (Tavsif) deb nomlangan ustuni qatorlarina ma'lumot kiritish shart emas, chunki u maydon haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni kiritish uchun xizmat qiladi.

4. Hosil qilingan jadvalni saqlash uchun:

- «Fayl» menyusidan «soxranit» (saqlansin) punktini tanlang;

- «Soxraneniye» deb nomlangan muloqot oynasida jadvalning nomini kiriting: O'qituvchilar

- Undan so'ng OK tugmachasini bosing.

OK tugmachasi bosilganda ACCESS ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi Sizga kalit maydonni (boshlang'ich kalit maydonini) aniqlashni talab qilishi mumkin. Bu maydon dastur tomonidan avtomatik ravishda jadvalning har bir yozuvini aniq ifodalashga (aniqlashga) imkon beradi. Ko'p jadvallardan iborat bo'lgan ma'lumotlar bazalari uchun bu katta ahamiyatga ega


bo'ladi. agar ma'lumot bazangiz bittagina jadvaldan iborat bo'lsa, bu ish unchalik ahamiyatga ega emas, shuning uchun ushbu holda «net» (yo'q) tugmasini turtir.

Jadvalning konstruktor rejimidagi darchasining pastki qismidagi Obshchiye (Umumiy) tugmachasi bosilganida kiritilgan maydonning bir qancha ko'rsatkichlari ekranda namoyon bo'ladi. ularning barchasini o'zgartirish mumkin. Lekin bizning maslahatimizga rioya qilsangiz «Razmer polya» (Maydon kattaligi) punktinigina o'zgartiring, boshqalarini esa hozircha o'zgartirishsiz qoldiring (ularning nima vazifalar uchun xizmat qilishini keyinchalik ko'rib chiqamiz).

Masalan, ACCESS ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi matnli ma'lumotlar uchun 50 simvulli kattalikni taklif qiladi. Lekin Familiya, Ismi, Otasining ismi va shu kabi maydonlar kattaligi 15 simvoldan katta bo'lishi mumkin emas. Agarda ularning bundan kattasi uchrab qolsa, keyinchalik osonlik bilan o'zgartirish mumkin. Sonli maydon turlari uchun ACCESS dasturi «Dlinnoye seloye» (Uzun butun son) turini taklif qiladi. Lekin agarda Sizning sonli ma'lumotlaringiz butun sonlar (-32768 dan +32767 gacha) bo'lsa «Seloye» (Butun) imkoniyatini tanlash kerak, agar ular kasr sonlar bo'lsa, u holda «S plavayushyey tochkoy» (Suzuvchi nuqtali sonlar – Kasr sonlar) imkoniyatini tanlash kerak bo'ladi. Kerakli imkoniyatni yoki ko'rsatkichni tanlash kerak bo'ladi. kerakli imkoniyatni yoki ko'rsatkichni tanlash uchun sichqoncha ko'rsatkichini maydonga keltirgan holda uni bir marta turtish kerak bo'ladi, keyin esa hosil bo'lgan pastga yo'nalgan strelka shaklidagi ro'yxatni ochish tugmachasini bosilsa, tegishli ro'yxat hosil bo'ladi va Siz undan kerakli imkoniyatni tanlab olishingiz mumkin. Bu ishlarni bajarish natijasida yaratayotgan jadvalingiz ixcham va oddiy holatga bo'linganidan so'ng, uni saqlaysiz. Demak, birinchi usulda jadval yaratish jarayoni nihoyasiga yetdi deyishimiz mumkin.

Endi ikkinchi usulda, ya'ni «Jadval ustasi» yordamida jadval qurish usulini ham ko'rib chiqamiz. Bu usulda jadval qurish oldindan ma'lum bo'lgan bir necha turdagi jadvallar namunalari asosan yaratilayotgan jadval ko'rsatkichlarini tanlash yo'li bilan amalga oshadi. Buning uchun (qurish, Sozdat – «Master» tablis) tugmachasini bir marta turtish yoki «Usta» yordamida jadval hosil qilish (Sozdaniye tablisы s pomoshyu mastera) yozuvini ikki marta turtish lozim bo'ladi. Bunda ekranda quyidagi oyna hosil bo'ladi:


Hosil bo'lgan oynada jadvallar namunalari (Obrazsy tablis) va ko'rsatkich (maydon)lar namunalari (Obrazsy poley) oynalari bor. Ma'qul kelgan namunadagi jadvaldan tegishli ko'rsatkichlar tanlab olinadi va yangi jadval ko'rsatkichlari hosil qilinadi. Agar zarur ko'rsatkich namunadagi jadvalda bo'lmasa, biror-bir ko'rsatkichni tanlab, uning nomini klaviaturadan foydalanib o'zgartirish mumkin (Pereimenovat pole).



Jadvallar ustasi darchasining ko'rinishi

Har bir ko'rsatkich tanlanganidan so'ng >> (hammasi) yoki > (bittadan) tugmachalarini sichqoncha bilan bosish orqali ko'rsatkichlar yangi jadvalga o'tkaziladi.


Yuqorida aytilgan ishlarni tushunish va bajara olish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz. Bunda jadvallar namunasidan «Sotrudniki» (Xodimlar) jadvali tanlanib, unga tegishli «Табельный номер», «Имя», «Отчество», «Фамилия» kabi ko'rsatkichlar ham yangi jadvalga nom beriladi. Undan so'ng jadvalning boshqa jadvallar bilan bog'liqligi yoki bog'liq emasligi haqida so'rov hosil bo'ladi, uni ham aniqlagandan so'ng yana «Далее» tugmachasi bosiladi. Endi kerakli ishlar bajarilib, «Готово» tugmachasi bosilishi kerak bo'ladi. Bunda ekranda tuzilgan jadvalimiz ustunlar shaklida osil bo'ladi va biz unga kerakli barcha ma'lumotlarni kiritishimiz mumkin. Agarda bizga maydonlarning tuzilishini ko'rib chiqish va unga kerakli o'zgartirishlar kiritish kerak bo'lsa (masalan, kalit maydonlarni tanlash kerak bo'lsa) yana konstruktor rejimiga o'tishimiz mumkin. Buning uchun «Вид» menyusidan yoki uskunalar panelining «Вид» uskunasiidan foydalangan holda Konstruktor rejimiga o'tiladi. Bu ko'rinishni quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin.



Kalit maydonlarini aniqlash


Endi jadvalning kalitini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Kalit deganda har bir jadvalning boshqa jadvallar bilan aloqasini aniqlab beradigan maydon yoki maydonlar majmuasi tushuniladi. Kalitni berish uchun tegishli maydon yoki maydonlarni belgilab (maydonni belgilash uchun sichqoncha ko'rsatkichini chapdagi eng chetki qatorga keltiriladi va uning chap tugmachasi bir marta turtiladi). Uskunalar panelidan kalit rasmi tugmacha

bosiladi yoki sichqonchani o'ng tugmachasini bosib, hosil bo'lgan kontekst menyudan Klyuchevoye slovo buyrug'i tanlanadi. Bunda tanlangan qatorlar to'g'risida (birinchi ustunda) kalitchaning tasviri hosil bo'ladi. Tanlanganda hamma kalitli qatorlarni birdaniga belgilash yodingizdan chiqmasin. Ushbu holatni quyidagi tasvirda ko'rish mumkin.




Endi hosil bo'lgan jadvalni saqlash uchun «Uskunalar» panelidan «Disket» rasmi tugmachani bosamiz yoki «Fayl» menyusidan «Soxranit» buyrug'ini tanlaymiz.

Navbatdagi ishimiz hosil bo'lgan bo'sh jadvalni ko'rish bo'lgani uchun «Uskunalar» panelidan «Vid» (Ko'rinish) deb nomlangan tugmachani bosamiz. Bunda quyidagi imkoniyatlar hosil bo'ladi: «Konstruktor» va «Rejim tablisy» buyrug'ini tanlasak, quyida ko'rsatilgan bo'sh jadvalni tasvirini olamiz.




«Rejim tablisy» da hosil bo'ladigan bo'sh jadvalning ko'rinishi.

Bu oynada hosil qilingan jadvalga ma'lumot kiritish uchun tegishli maydonlarga ularning qiymatlarini klaviatura orqali kiritishimiz mumkin. Agarda uning tuzilishini o'zgartirmoqchi bo'lsak yoki unga boshqa maydonlar qo'shmoqchi bo'lsak «Vid» menyusidagi «Konstruktor» rejimiga o'tishimiz lozim bo'ladi. Masalan, jadvalga xodimning ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiridigan ustunni qo'shish uchun «Vid» menyusidan Konstruktor buyrug'ini tanlab olamiz va hosil bo'lgan jadvalda tegishli qatorni sichqoncha bilan belgilab Uskunalar panelidagi «Postroit» tugmachasini bosamiz. Undan so'ng hosil bo'lgan oynadan «Sotrudniki» hamda «Zarplata» imkoniyatlarini tanlaymiz va OK tugmachasini bosamiz. Bu holda kompyuter ekranida quyidagi darchaga ega bo'lamiz:




Endi Uskunalar panelidagi «Vid» menyusidan «Rejim tablisy» buyrug'ini tanlasak, quyidagi tuzilishdagi bo'sh jadval ko'rinishi ekranda hosil bo'ladi:




Bu jadvalni ham yuqoridagi tartibda klaviatura orqali tegishli ma'lumotlar bilan to'ldirishimiz mumkin.

Endi ma'lumotlarni jadvalga to'g'ridan-to'g'ri kiritishni ko'rib chiqamiz. Yuqorida ko'rsatilgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar haqidagi jadvalga ma'lumotlarni kiritish jarayoni quyidagi rasmda keltirilgan:




Ushbu jadvalni yuqorida ko'rib chiqilgan jadvaldan foydalangan holda qurish uchun har bir ustun nomini o'zgartirishimiz kerak bo'ladi. Buning uchun sichqoncha ko'rsatgichini o'zgartirilishi kerak bo'lgan katakchaga olib kelib, sichqonchani o'ng tugmachasini bosamiz va hosil bo'lgan konstekt menyudan «Pereimenovat stolbes» buyrug'ini tanlaymiz. Keyin esa klaviatura orqali yangi nomni kiritamiz. Xar bir ustun nomi uchun ushbu amalni bajarsak, yuqoridagi jadval hosil bo'ladi.

Ushbu jadvalni hosil qilishning ikkinchi, osonroq usuli ham mavjud. Buning uchun Access dastursi yuklanganidan so'ng, uning asosiy panelida (Ushbu oyna 3 – rasmda ko'rsatilgan) oldingi tanlaganimizdan farqli ravishda ikkinchi imkoniyatni (Sozdaniye tablisy s pomoyshyu mastera) tanlaymiz. Bunda ekranda quyidagi oyna hosil bo'ladi:




Endi masalan, agar biz «Sotrudniki» jadvalini tuzishimiz kerak bo'lsa, uning qanday ustunlardan iboratligini bilib olib, chap tomondagi ro'yxatdan «Sotrudniki» so'zini tanlaymiz. Keyin esa o'ng tomondagi ro'yxatdan kerakli nomdagi maydonlar nomlarini bitta-bittadan tanlaymiz va har bir tanlaganimizda > belgisi tugmachani bosamiz. Bunda ro'yxatdan tanlangan maydonlar (ustunlar) nomlari «Polya novoy tablisy» deb nomlangan oynaga o'tadi. Agar maydon nomlarining (jadval ustunlarining) nomlari bizga kerakligidan farqli bo'lsa, ularni o'zgartirish uchun, hohlaganini tanlab, «Pereimеноvat pole» tugmachasini bosamiz va klaviatura orqali ushbu nomlarni bizga kerakli bo'lganiga bemalol o'zgartiramiz so'ngra, oynadagi «daleye» tugmachasini bosamiz. Bunda quyida ko'rsatilgan oyna hosil bo'ladi:




Ushbu oynadan foydalanib, yangi jadvalga nom berish mumkin va uning kaliti aniqlanilishi usulini ko'rsatish mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kalit jadvalning har bir yozuvini aniqlab berish va topish imkoniyatini amalga oshirib beradi. Ushbu kalitni aniqlashning ikki xil usuli mavjud. Birinchi usulda Microsoft Access kalitni o'zi, avtomatik ravishda aniqlab beradi. Ikkinchi usulda esa, kalitni foydalanuvchi mustaqil ravishda aniqlashi mumkin. Agar birinchi usulni tanlagan holda, «Daleyе» tugmachasi bosiladi, quyida ko'rsatilgan oyna hosil bo'ladi.

Ko'rib turganingizdek, bu yerda uch imkoniyat tanlanishi mumkin. Ularning birinchisi tanlaganida jadvalning tuzilishini o'zgartirish imkoniyati yaratiladi, ikkinchi imkoniyat tanlansa, tayyor jadvalga ma'lumotlar kiritishni boshlash mumkin va agarda uchinchi imkoniyat tanlangan holda, «master» yordamida yaratilgan formadan foydalangan holda jadvalga ma'lumotlar kiritish imkoniyati yuzaga keladi.




Xozir birinchi imkoniyatni tanlab, jadvalimizning maydonlari turini aniqlab olamiz. Bu ish «Тип данных» maydoniga sichqoncha ko'rsatgichini olib borish va uning chap tugmachasini bosish, ya'ni uni tanlash natijasida hosil bo'ladigan pastga yo'nalgan strelkachali tugmachasini bosganda hosil bo'ladigan ro'yxatdan kerakli maydon turini tanlash orqali amalga oshiriladi. Buni quyidagi rasmda ham ko'rishingiz mumkin:



Maydon turini tanlash darchasi.


Endi jadvalni saqlab olamiz va so'ngra «Вид» menyusidan «Режим таблицы» imkoniyatini tanlaymiz. Bundan ekranda yana to'ldirilishi kerak bo'lgan tayyor jadval ko'rinishi paydo bo'ladi.



1. So'rovlar yordamida yozuvlarni tanlab olish va saralash.
2. Namuna bo'yicha so'rov.
3. «Master» va konstruktor yordamida so'rovlarni tuzish.
4. Hisoblanuvchi maydonlarni aniqlash.


1. So'rovlar yordamida yozuvlarni tanlab olish va saralash

Keyingi bosqichdagi ishimiz so'rov (zпрос) va hisobot (otchet) qanday tashkil etilishini ko'rish chiqishimiz bilan bog'liq bo'ladi. Buning uchun asosiy oynadan (3-rasm) «Zпросы» tugmachasini bosamiz, so'ng «Sozdaniye zaprosa s pomoshyu mastera» imkoniyatini tanlab, «Novyy zapros» oynachasidan «Prostoy zapros» imkoniyatini tanlagandan so'ng quyidagi oynaga ega bo'lamiz:




Ushbu oynadan qaysi jadval asosida so'rovlar tashkil qilinishini (Таблицы и запросы – Jadvallar va so'rovlar) va qaysi maydonlar kerakligini (Доступные поля) tanlab olamiz. Maydonlarni tanlash uchun har bir maydon nomi tanlanib > belgili tugmachasini bosish vositasida barcha kerakli maydonlar o'ng tomondagi «Выбранные поля» (Tanlangan maydonlar) darchasiga o'tkaziladi va undan so'ng «Далее» tugmachasi bosiladi.

Bu oynadan hisobotning qanday turga mansub bo'lishi kerakligini tanlab olshimiz mumkin. Agar biz «Подробный» (To'liq) imkoniyatini tanlab, «Далее» tugmachasini bossak, kompyuter ekranida quyidagi darcha hosil bo'ladi:



Bu oyna bizdan so'rovning nomini berishni talab qilayapti. Agar so'rovning nomini berib, «Открыт запрос для просмотра данных» (Ma'lumotlarni ko'rish uchun so'rovga ochish) imkoniyatini tanlansa va «Gotovo» tugmachasi bosilsa, quyidagi oynachaga ega bo'lamiz:


Ushbu oynada bizning konkret so'rovimizga mos bo'lgan ma'lumotlar hosil bo'ldi. Lekin jadvalimiz maydonlari to'liq ravishda tanlanmagani va tegishli ma'lumotlar kiritilmagani uchun so'rov jadvalida hech nima yo'q.



2. Namuna bo'yicha so'rov

So'rovlar tayorlashni o'rganish maqsadida «Konstruktor» rejimidan foydalanish kerak bo'ladi.

Ma'lumotlar omborida jadvallarga so'rovlar maxsus dasturlash tili – SQL da yoziladi, ammo MS Access foydalanuvchilari bu dasturni bilishi shart emas. Sichqoncha yordamida ma'lumotlarni bir joydan boshqa joyga ko'chirish yo'li bilan ko'p operasialarni bajarish mumkin. Namuna bo'yicha so'rov blanki quyidagi rasmda keltirilgan.



Namuna bo'yicha so'rov blanki

So'rov blanki ikki qismdan iborat bo'lib, yuqori qismida so'rovga mo'ljlanlangan jadvallar strukturasi keltirilgan. Quyi qismi esa ustunlarga bo'lingan bo'lib, har bir ustun yaratilayotgan natijaviy jadval maydonini hosil qiladi.

Namuna bo'yicha so'rov yaratish uchun “Dobavit tablisy” oynasidan so'rov uchun kerakli jadvallar va so'rovlar blankning yuqori kismiga ko'shamiz. So'rovga kiritiladigan maydonlarni tanlab quyi qismiga “Pole” satriga joylashtiramiz. Natijaviy jadval maydonlari aniqlangandan so'ng, “Imya tablisy” va “Vывod na ekran” satri avtomat ravishda to'ldiriladi. Bunda ma'lumot olingan maydon nomi va ekranga chiqarish haqidagi ma'lumotlar joylashadi. “Sortirovka” satrida ma'lumotlarni saralash shartlari keltiriladi. “Usloviya otbora” satrida esa maydon ma'lumotlari ichidan faqat berilgan shartga mos keluvchi ma'lumotlar natijaviy jadvalda aks etadi.

So'rovning bajarilishi va natijaviy jadvalni ko'rish uchun asboblari panelidagi “Zapusk” tugmasi bosiladi.

Bir yoki bir nechta jadvallar asosida ma'lumotlarni tanlab olish uchun ACCESS da “Zapros na vyboroku” oynasi qo'llaniladi va quyidagi amallar bajariladi:


1. “Zapros ! Sozdat” tanlab oling. “Sozdaniye zaprosa” oynasida “Noviy zapros” tugmachasini bosing.

2. Zarur ma'lumotlarni o'zida saqlovchi jadvallarni tanlab oling.
3. Jadvallar orasidagi bog'lanishlarni o'rnatish.
4. Natijaviy jadvalda aks ettiriladigan maydonlarni tanlab oling. Buning uchun sichqoncha bilan pastki jadvalni yuqori satrini bosib qo'ying. Natijada maydonning o'ng tarafida ro'yxatni ochish tugmachasi paydo bo'ladi. Shundan so'ng kerakli maydonlar tanlab olinadi.

3. «Master» va konstruktor yordamida so'rovlarni tuzish

MS Accessning yettita standart obyektlaridan biri bu so'rovdur. So'rovlar bitta yoki bir necha jadvallardagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish, tahlil va tahrir qilish uchun yaratiladi. Masalan, ma'lumotlarni bitta yoki bir necha jadvallardan tanlab olish, tartibga keltirish, ma'lumotlar guruhida hisob-kitob operatsiyalarini bajarish, berilgan shartlar asosida ma'lumotlarni tanlash uchun so'rovlar bajariladi. So'rovlar asosida shakllar va hisobotlar tuziladi.

So'rov yaratish bir necha jadval asosida tuziladi, bunda qo'yilgan shart asosida ma'lumotlar jadvallardan tanlanadi va ular natijaviy jadval sifatida taqdim etiladi. So'rov yaratish uchun MS Access oynasida "Zaprosy" bo'limi tanlanadi va "Sozdat" tugmasi bosiladi. Hosil bo'lgan oynadan "Konstruktor"ni tanlaymiz. Konstruktor asosida so'rov yaratishda "Dobavleniye tablis" oynasi hosil bo'ladi.




Konstruktor asosida so'rov tuzish.

Bu oynada yangi so'rov tuzish uchun ma'lumotlar omborida mavjud bo'lgan jadvallar va so'rovlar ro'yxati ekranga chiqadi. Kerakli jadval nomi belgilanib "Dobavit" tugmasi bosilsa "Zaprosy" oynasida tanlangan jadval nomi va rekvizitlari hosil bo'ladi. Boshqa jadvallarni qo'shish maqsadida yuqoridagi operatsiyalar takrorlanadi. Masalan biz mijozlar manzillarini bilish uchun so'rov yaratamiz. Kerakli ma'lumotlar bitta "Kliyenty" jadvalida joylashgan. "Dobavleniye tablisy" oynasidan "Kliyenty" jadvali belgilanib, «Dobavit» tugmasi bosiladi. Natijada "Kliyenty" jadvali namunaviy so'rov oynasiga qo'shiladi. Bu misolda faqat bitta jadval kerak bo'ladi. Jadval tanlangandan so'ng, so'rov yaratishda qaysi maydonlardan foydalanishini aniqlashimiz kerak. Foydalanadigan maydonlar so'rovning maqsadidan kelib chiqadi.

So'rov blankidagi birinchi ustunning "Pole" satriga matn kursorini olib kelib, ruyxatlar tugmasini bosib, kerakli ma'lumotni tanlaymiz. Bizning misolda "Obraztsya k" maydoni tanlanadi. Kursorni keyingi ustunga o'tkazib, ro'yxatdan "Nazvaniye" maydoni tanlanadi. Maydonga ma'lumotlar kiritishning boshqa usuli – jadvaldagi kerakli ma'lumotlarni belgilagan holda sichqoncha yordamida ustun maydoniga siljitib olib kelish.

Bir necha ma'lumotlarni Shift tugmasini bosib turgan holda belgilab, sichqoncha yordamida bo'sh ustunga siljitish mumkin. Bunda ketma-ket turgan bir necha ustunga ma'lumotlar joylashadi.




So'rov maydonlarini shakillantirish.

Natijaviy jadval maydonlari aniqlangandan so'ng, "Imya tablisy" va "Vывod na ekran" satri avtomat ravishda to'ldiriladi. Bunda ma'lumot olingan maydon nomi va ekranga joriy ustun ma'lumotlarini chiqarishga olib keladi. So'rov bajarilishi uchun jadval ko'rinishga o'tkazish yoki asboblari panelida joylashgan "Выполнит" tugmasi bosiladi. "Usloviya otbora" va "Sortirovka" satriga kiritilgan matematik yoki mantiqiy ifoda asosida ma'lumotlarni saralash va faqat kerakligini ekranga chiqarish mumkin.

«Master» yordamida so'rov tuzish uchun quyidagi operatsiyalarni bajaramiz:

ma'lumotlar ombori oynasidagi "Zaprosy" bloki tanlanadi va oynaning o'ng qismidagi "Sozdaniye zaprosa s pomoyshyu mastera" tugmasi bosiladi. Ekranga "Sozdaniye prostyx zaprosov" oynasi hosil bo'ladi.



«Master» yordamida so'rov tuzish.

Master bo'yicha so'rov yaratilganda mavjud jadvallardan kerakli maydonlar tanlanib "Daleye" tugmasi bosiladi. Keyingi qadami bu ma'lumotlar ustida natijaviy jadvaldagi ma'lumotlar bilan bajariladigan funksiyalar belgilanadi. Keyingi qadamda So'rovga nom berib, saqlanadi. "Gotovo" tugmasi bosilgach, natijaviy jadval ekranga chiqadi.


4. Hisoblanuvchi maydonlarni aniqlash

Ma'lumotlar ustidan hisob-kitoblar, masalan xar bir davlat uchun yetkazib beriladigan maxsulotning umumiy summasi, ikkita maydondagi ma'lumotlarni qo'shish,

yoki maxsulot narxini ma'lum foizga oshirish operatsiyalarini bajarish zarur bo'lib qoladi. Bu maqsadda hisoblanuvchi maydonlar tuzish qo'l keladi.

Hisoblanuvchi maydon – bu so'rovda hisob-kitob operatsiyalari natijasini aks etirish uchun yaratilgan yangi maydondir. Hisoblanuvchi maydonda ma'lumotlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish bo'lish va boshqa matematik va mantiqiy funksiyalardan foydalanish mumkin.

Hisoblanuvchi maydon tuzish uchun so'rovning konstruktor rejimida bo'sh maydonga kursor "Pole" satriga keltirilib, asboblari panelidagi "Postroit" tugmachasi bosiladi. Natijada "Postroitel vyrajeniye" oynasi ekranda hosil bo'ladi. Agar ifodaning sintaksisi ma'lum bo'lsa, konstruktor jadvaliga "Pole" satriga kiritish yo'li bilan ham hisoblanuvchi maydon yaratish mumkin.



Hisoblanuvchi maydonlarni tuzish.


"Postroitel vyrajeniye" oynasi uch qismdan iborat bo'lib, yuqori qismi ifodani aks ettiruvchi maydon sifatida hizmat qiladi. Ikkinchi qismida matematik va mantiqiy belgilar aks etadi. Uchinchi qismi ma'lumotlar omboridagi ma'lumotlar(jadvallar, so'rovlar, shakllar, hisobotlar) va MS Accessda mavjud funksiyalar, konstantalar, operatorlar va umumiy ifodalarni o'z ichiga oladi. Hisoblash uchun kerak bo'lgan ma'lumot tanlangandan so'ng "Vstavit" tugmasi bosiladi. Ifoda to'liq kiritilgandan so'ng "OK" tugmasi bosiladi. Natijaviy jadvalda hisoblanuvchi maydon hosil buladi, unga nom berib saqlanadi. Shuningdek, hisobot va shakllar tuzishda so'rov sifatida bu maydon ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Hisoblanuvchi maydonda faqat sonlar hisob-kitobi emas, balki matnlar va sanalar bilan ham mantiqiy operatsiyalar bajarish mumkin. Malumotlar ombori maydonning ma'lumotlaridan farqi shundaki, hisoblanuvchi maydon natijasi ma'lumot sifatida saqlanmaydi. Hisob-kitoblar so'rov bajarilganda qayta hisoblanadi.

Agarda mavjud jadvaldan biror-bir ko'rsatkichlar asosidagi so'rovni o'zgartirishimiz lozim bo'lsa, «Vid» menyusidan «Konstruktor» rejimini tanlaymiz va quyidagi oynaga ega bo'lamiz:

Bu oyna oldin tayyorlangan jadvaldan ushbu oyna orqali tayyorlaniladigan so'rovlarni hosil qilishga imkon beradi. Bu yerda «Pole» satri jadvalning ustunlari nomidan iborat. Masalan, ushbu holda STIR, ST familiyasi, Faoliyat turi, Imtiyozi va Manzilgohi maydonlari aks ettirilgan. Ikkinchi Imya tablisı satrida esa maydonlar ma'lumotlari olinishi kerak bo'lgan jadvallar nomi aks ettirilgan. Ko'rilayotgan uchinchi faqatgina «Sotrudniki» jadvaliga oid maydonlar ishlatilgani uchun, uning nominigina ko'rishingiz mumkin. Keyingi uchinchi satrda tegishli ustundagi katakchani sichqoncha bilan turtganingizda so'ng hosil bo'ladigan pastga qaragan strelkali tugmachani bosish orqali ma'lumotlarni saralash uchun uch xil imkoniyat tanlash mumkin:

- po vozrastaniyu – ko'payish bo'yicha;
- po ubyvaniyu – kamayish bo'yicha;
- otsutstvuyet – saralanmagan holda.



Masalan, ST familiyasi maydondagi ma'lumotlarning alfavitli ko'payish tartibi bo'yicha joylashishini xohlasak, u yerga sichqoncha ko'rsatkichini olib kelib turtlsa, pastga qaragan tugmacha tasviri hosil bo'ladi va ushbu tugmachani bosib, bizga kerak imkoniyatni «Po vozrastaniyu» tanlashimiz mumkin.

Keyingi to'rtinchi qatorda ma'lumotlarning ekranda ko'rinishi kerakligi yoki bunday bo'lmasligi tegishli katakchalarga (galochka) belgi qo'yish orqali oldindan aniqlab qo'yildi. Ko'rayotgan misolimizda ularning barchasiga belgi qo'yilgan va demak ularning hammasi ham ekranda ko'rinadi. Oxirgi satr faqatgina mantiqiy turdagi maydonlar uchun ishlatiladi. Bizda mantiqiy maydon Imtiyoz bo'lgani uchun, faqat uning o'zigagina tegishli bo'lgan Istina/Loj, Da/Net, Vkl/Vыkl yozuvlarini yozishimiz mumkin. Usloviye otbora deb nomlangan beshinchi qatorda jadvaldan qaysi shartlarga bo'ysungan yozuvlar tanlab olinishi kerakligi mantiqiy shartlar asosida ko'rsatilishi mumkin (>, <, = va boshqalar). Masalan, ish xaqi 20 ming so'mdan katta bo'lganlar yoki ismi Anvar bo'lganlar tanlab olinsin, kabi shartlar shular jumlasiga kiritilishi mumkin. Yuqoridagi barcha ishlarni bajarib bo'lganidan so'ng «Vid» menyusidan «Rejim tablisy» rejimini tanlab olamiz va so'rovimizga asosan hamda ko'rsatilgan shartlar asosida qurilgan jadvalni ekranda ko'rishimiz mumkin.


Yuqorida jadval qurish, unga ma'lumotlarni kiritish, jadvallardan foydalanib, so'rovlar tashkil qilish va so'rovimizga asosan qurilgan yangi jadvalni ko'rish kabilarni batafsil tahlil etdik.

ACCESS MUHITIDA SHAKLLARNI TUZISH

1. Ma'lumotlarni kiritish uchun shakllarni tuzish.
2. Jadval yoki so'rov yordamida shakllarni avtomatlashgan xolda tuzish.
3. Konstruktor rejimida shakllarni tuzish.

1. Ma'lumotlarni kiritish uchun shakllarni tuzish


Jadvalga ma'lumotlarni klaviatura orqali kiritish juda oson amalga oshiriladi. Lekin buning uchun unga mos bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak. Shuning uchun ham biz ushbu jadvalga aynan mos bo'lgan va unga kerakli ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan ma'lumot shakllari qanday qilib yaratilishini ko'rib chiqamiz. Buning uchun, hosil qilingan jadvalni yopish tugmachasini bosib yopamiz va dasturimizning quyida tasvirlangan asosiy darchasiga qaytib kelamiz:



Ko'rib turganingizdek ma'lumot kiritish uchun mo'ljallangan shakllarni hosil qilish uchun yuqoridagi rasmning chap tarafidagi imkoniyatlardan foydalaniladi.


2. Jadval yoki so'rov yordamida shakllarni avtomatlashgan xolda tuzish

«Формы» deb nomlangan imkoniyatni tanlaymiz. Undan so'ng hosil bo'lgan darchaning o'ng tarafidagi «Sozdaniye formy s pomoshyu mastera» imkoniyatini tanlasak quyidagi darcha hosil bo'ladi.



Ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan shakllar tuzish dialog darchasi

Endi ushbu oynaning «Таблицы и запросы» darchasidan qaysi jadval bilan ishlamoqchi bo'lsak o'shani tanlab, pastdan uning maydonlarini bittadan (> tugmacha orqali) tanlashimiz yoki birdaniga barcha maydonlarni tanlab olishimiz mumkin (>> tugmacha orqali). So'ngra ushbu oynadagi «Далее» tugmachasini bosilsa komyuter ekranida ma'lumot kiritish uchun mo'ljallanilgan shaklning turini tanlashga yordam beradigan quyidagi dialog darcha hosil bo'ladi:





Ushbu oynadan shaklning tashqi ko'rinishi qanday bo'lishi kerakligini tanlab olishimiz mumkin. Bu shaklning tashqi ko'rinishi to'rt hil usulda bo'lishi mumkin:

- bitta ustunda (v odin stolbes);
- tasmali (lentochnyy);
- jadval ko'rinishida (tablichnyy);
- tekislangan ko'rinishda (vyrovnenennyy).

Masalan bitta ustunda imkoniyatini tanlanib, «Daleye» tugmachasi bosilsa, ekranda yuqorida keltirilgan shaklning real tasvirini olishimiz mumkin.

Bu oyna orqali shaklning foydalanuvchi uchun ma'qul bo'lgan muloqot ko'rinishini (stilini) tanlay olamiz. Masalan, agar «Diffuznyy» holdagi ko'rinish tanlansa, quyidagi oynachaga ega bo'lamiz:

Bundan keyin hosil bo'ladigan, quyidagi oyna bizga shaklning nomini o'zgartirishga (Zadayte imya formy) shaklni ko'rishga va ma'lumotlar kiritishga (Otkryt formu dlya prosmotra i vvoda dannyx), hamda shaklning maketini o'zgartirishga (Izmenit maket formy) imkon beradi.



Agar maketni o'zgartirish zarur bo'lmasa, ma'lumotlar kiritish imkoniyatini (Otkryt formu dlya prosmotra i vvoda dannyx) tanlaymiz va «Gotov»o (Tayyor) tugmachasini bosamiz. Bu holda kompyuter ekranida quyidagi oynani ko'rishimiz mumkin:


Jadvalga ma'lumotlar kiritish oynasi

Ushbu shakldan foydalanib, hosil qilinayotgan jadvalga kerakli ma'lumotlarni kiritish mumkin. Buning uchun har bir maydonga tegishli qiymatlar kiritiladi va pastdagi Zapis (yozuv) deb nomlangan qatorning o'ngga yo'nalgan bitta strelkachali tugmasini bosamiz yoki klaviaturadagi Tab tugmachasini bosamiz. Bu bizga keyingi yozuvga o'tish imkoniyatini beradi. Barcha ma'lumotlarni shakl yordamida jadvalga kiritib bo'lgandan so'ng, uni saqlab olish kerak. Hozir bizda kerakli ma'lumotlar asosida jadval hosil qilindi va unga tegishli ma'lumotlarni kiritish shakli tashkil qilindi.

3. Konstruktor rejimida shakllarni tuzish

Konstruktor rejimida shakl yaratish uchun "Formy" bo'limini tanlab, "Sozdat" tugmasi bosiladi va konstruktor rejimi tanlanadi. Access dasturi yangi shakl yaratadi va "Shakl 1" deb nomlaydi. "Vid" menyusidan "Zagolovok i primechaniya formy" bandi tanlanib ekran ko'rinishini tahrir qilamiz. Ish maydonining eni va balandligini kerakli o'lchamlarga keltirish uchun lineykadagi o'lchov belgilarini sichqoncha yordamida siljitish bilan amalga oshirish mumkin.

Shaklning sarlavhasini kiritish uchun asboblardagi panelida joylashgan "Nadpis" tugmasidan foydalanamiz. "Zagolovok formy" bandiga "+" ga aylangan kursor yordamida sarlavha matniga joy ajratib belgilab olinadi. Mavjud bo'lgan oynada kursor belgisi hosil bo'ladi. Sarlavha matni kiritiladi va taxrir qilinadi.



Конструктор rejimida shakllar tuzish.

"Oblast dannых" bo'limiga shaklda aks etiladigan ma'lumotlarni kiritamiz. Buning uchun asboblardagi "Spisok poley" tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan oynadan kerakli maydonlarni "Oblast dannых" qismiga olib kelamiz. Maydonlar joylanishini, shrift o'lchamini taxrir qilgandan so'ng, shaklni saqlab unga nom beramiz.

"Primechaniye formy" bo'limida shakl uchun izohlar beriladi. Masalan, shakl to'ldirilgan sana, bo'lim nomi, rahbarlar imzolari va h.k. Joriy sana avtomatik ravishda qo'yilishi uchun Access dasturida tayyor funksiyalardan foydalanish mumkin. Buning uchun «Primechaniya» bo'limida yangi maydon hosil qilib, "Postroitel vьrajeniю" oynasi chaqirilib, "Funksii" bulimidan "Vstroyennыye funksii" tanlanadi va Data/vremya funksiyasidan Date tanlanib, OK tugmasi bosiladi.


ACCESS MUHITIDA HISOBOTLARNI TUZISH

1. «Master» yordamida hisobot tuzish.
2. Konstruktor yordamida hisobot tuzish.
3. Diagrammalar masteri.
4. ACCESSda ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining asosiy elementlari.

1. «Master» yordamida hisobot tuzish


Endi mavjud jadvallardan foydalangan holda hisobotlar qanday tayyorlanilishi kerakligini ko'rib chiqamiz. Buning uchun 3 – rasmda ko'rsatilgan asosiy oynaga o'tib,

«Otchetы» (hisobotlar) imkoniyatini tanlaymiz va quyidagi ko'rinishdagi suhbat oynasiga ega bo'lamiz:




Yuqoridaga barcha ishlarda «Master» rejimidan foydalanganligimiz uchun bu yerda ham xuddi shu rejimda ishlashni tanlab oldik, ya'ni «Sozdaniye otcheta s pomoshyu mastera» imkoniyatini tanladik.

Agar uni ekranda bir marta turtsak, biroz vaqtdan so'ng hisobotlar tashkil qilishning dastlabki dialog oynasi «Sozdaniye otchetov» hosil bo'ladi:




Bu oynaning asosiy maqsadi hisobot uchun mavjud jadvallardan tegishli maydonlarni tanlab olishdir. Bunda bir qancha jadvallarni qo'llash va so'rovlarni tashkil qilish imkoniyati mavjud. «Таблицы и запросы» maydonida kerakli jadval nomi tanlanadi, «Доступные поля» maydonida esa jadvaldagi ustunlar nomi tanlanib, ular > tugmachasi orqali «Выбранные поля» maydoniga o'tkaziladi. Buni ishni quyidagi darchada ko'rsatishimiz mumkin:




Ushbu ishlar tugatilganidan so'ng, «Daleye» tugmachasi bosilib, keyingi dialogli oynada ishlashga o'tiladi. Ushbu holda quyidagi dialog oyna hosil bo'ladi.

Ushbu oynadan hisobotdagi guruhlashtirish qaysi ko'rsatkich yoki ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilishini, ushbu ko'rsatkichlarning qaysi biri birinchi, ikkinchi yoki uchinchi darajali bo'lishini aniqlab olishimiz mumkin. Bu ishlar > tugmacha va «Uroven» tugmachalarini bosish orqali amalga oshiriladi. Ko'rilayotgan misolda Faoliyat turini tanlab > strelkali tugmani bosdik va bu bilan bir darajali

guruhlashtirishni tanladik, ya'ni faoliyat turi guruhlashtirish ko'rsatkichi bo'ldi hamda natijada quyidagi oynani oldik:



Bundan keyingi barcha ishlar suhbatli oynalardagi ko'rsatilgan ishlarni xuddi Zaproz rejimi singari bajarish va «Daley» tugmachasini bosish orqali amalga oshiriladi. Ishimiz so'ngida «Gotovo» tugmachasini bosib, tegishli hisobotni ekranda ko'rishimiz va chop qilishimiz ham mumkin. Demak, endi Siz ma'lumotlar bazasi tuza olasiz, unga ma'lumotlar kiritish uchun shakllar, jadvallar majmuasidan xilma-xil turdagi so'rovlar tashkil qila olasiz va jadval ko'rinishidagi (relyasion ma'lumotlar bazasi) ma'lumotlar majmuasi asosida turfa xil ko'rinishdagi hisobotlar tuza olasiz.




Bu esa Sizga ishingizni yanda unumdor va qiziqarli qilishga imkon beradi. Tajribangizni yana ham oshirish maqsadida va Access tizimsi bilan bevosita ishlash malakasini orttirish uchun guruhingizni, potokingizni va fakultetdagi talabalarining ma'lumot bazasini kompyuterda tuzib ko'ring hamda u bilan xilma – xil tajribalar o'tkazing. Ishonchimiz komilki, bu Sizga ma'lumotlar majmuasi bilan ishlashda katta va qimmatli amaliy tajriba beradi.

Access tizimsida ko'zda tutilgan makros va modullar yordamida amalda qo'llash mumkin bo'lgan qulay va foydali amaliy dasturlar yaratish mumkin.

Access ma'lumotlar bazalari bilan ishlashning keyingi va juda foydali imkoniyatlarini tajribangiz oshganidan so'ng tizimning kontekst yordam va Ma'lumotnoma kenja tizimlaridan foydalangan holda bemalol o'zlashtirib olishingiz mumkin.

2. Konstruktor yordamida hisobot tuzish.

Hisobotlar yaratishda so'rovlar va jadvallardagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Konstruktor yordamida hisobot tuzish uchun "Otchyoty" bo'limidagi "Sozdaniye otchyota v rejime konstruktora" bo'limi tanlanadi. Hosil bo'lgan oyna bir necha qismdan iborat: kolontitullar, sarlavhalar, ma'lumotlar maydoni va boshqalar.



Konstruktor yordamida hisobot tuzish.


“Zagolovok otchyota” satrida hisobot sarlavhasi yoziladi. “Verxniy kolontitul” satrida maydonlar nomi joylashadi. “Oblast dannyyh” bo’limida hisobot uchun kerakli ma’lumotlar joylashadi. Hisoblanuvchi maydonlarni tuzish uchun “Postroit” tugmasidan foydalanib yuqorida keltirilgan usul yordamida yaratiladi.

“Nijniy kolontitul” satrida hisobot tuzilgan sana, bo’lim nomi, bet nomeri va rahbarlar atributlariga joy ajratiladi. Hisobotga nom berib saqlanadi.

3. Diagrammalar «masteri»

Diagrammalar masteri (Master diagramm – Chart Wizard) – xilma – xil ko’rinishdagi grafik obyektlar yaratishga yordam beradi. Ular aylanma diagrammadan uch o’lchamli diagrammagacha ko’rinishlarda bo’lishi mumkin.

ACCESS diagrammalarni tuzish “hisobot” masteri orqali amalga oshiriladi. Buning uchun “hisobot” oynasiga kiramiz va “Sozdat” bandidan “Master diagramm” ko’rinishiga kiramiz:



Natijada «Dostupnyye polya» oynasidan kerakli ma’lumotlarni «Polya diagrammy» oynasiga o’tkazamiz. “Daleye” tugmasini bosib, hosil bo’lgan oynada diagramma turini tanlaymiz va “Gotovo” tugmasini bosamiz.

Pochta belgilari masteri (Master pochtovykh nakleyek – Label Wizard) – standart shakldagi pochta belgilarini chop qilishga yordam berishi mumkin.

Yuqorida aytib o’tilgan shakl va hisobotlar bir biridan quyidagilar bilan farq qiladi: Shakllar asosan ma’lumotlarni tahrir qilish va ko’rib chiqish uchun ishlatiladi.

Bunda yozuvlar ketma-ket ko'rib chiqiladi, hisobotlarni ham ko'rib chiqish mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati ma'lumotlarni chop qiladigan sahifa o'qilishi qulay holda ifodalashdan iborat. Undan tashqari hisobotlar ma'lumotlarni umumlashtirish va jamlash hisoblarini chiqarish uchun mo'ljallangan imkoniyatlarga ham ega.

Xuddi shakllarga o'xshab hisobotlar ham bir necha jadvallardagi ma'lumotlarni aks ettirishi mumkin. Bunday hisobotlar ko'p jadvalli hisobotlar deb ataladi (multi-table reports).

4. ACCESS ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimining asosiy elementlari

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu amaliy dastur relyasion turga mansub bo'lib, u jadval ko'rinishida ifodalangan ma'lumotlar majmuasi bilan ishlashga mo'ljallangan. Masalan, mijozlar va ularning talablari yozilgan jadvallar orasida muayyan boylklarni hosil qilish va uni boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Buning natijasida biz bir-biriga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar to'plami bilan osongina ishlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Pusk (Start) tugmachasi orqali «Программы» (Programs) bo'limidan Microsoft Access, belgisini tanlagan holda ushbu dasturni ishga tushirsak, bir qancha imkoniyatlardan birini tanlashimiz mumkin bo'ladi. Ular quyidagilardir:

- yangi ma'lumotlar bazasini tashkil qilish;
- ma'lumotlarni Internet Explorer yordamida ko'rib chiqish uchun ma'lumotlar ko'rish sahifasini hosil qilish;
- Access loyihasi hosil qilish;
- oldindan tuzib quyilgan ma'lumotlar bazasini yoki loyihani ochish.

Access loyihasi ma'lumotlar bazasiga o'xshash bo'ladi, lekin unda ma'lumotlar bilan to'ldirilgan jadvallar bo'lmaydi va u maxsus Microsoft SQL Server bilan bog'langan bo'lib, barcha kerakli jadvallar o'sh yerda saqlanadi. Undan foydalangan holda foydalanuvchi loyihalarga o'xshash ma'lumotlar bazalarini tuzish va ularni boshqarish imkoniyatini olish mumkin.

Ma'lumotlar bazasining asosini unda saqlanuvchi ma'lumotlar tashkil qiladi va ular obyektlar orqali boshqariladi. Obyektlarning asosiy turlari quyidagilar:

Jadvallar (Таблицы) – ma'lumotlarni saqlash uchun xizmat qiladi;

Talablar (Запросы) – ma'lumotlarni tanlash shartlarini berishni ularga o'zgarishlar kiritish uchun xizmat qiladi;

Shakllar (Формы) – ma'lumotlarni ko'rish va tahrir qilish uchun xizmat qiladi;

Sahifalar (Страницы) – HTML (gipermatn) shakltidagi fayllar, ular Access ma'lumotlarini Internet Explorer brauzeri yordamida ko'rish uchun foydalaniladi;

Hisobotlar (Отчеты) – ma'lumotlarni umumlashtirish va chop qilish imkonini beradi;

Makroslar – bir yoki bir qancha operasialarni avtomatik ravishda bajaradi.

Access ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har qanday ma'lumot jadvallarda saqlanadi. Jadvallarning qatorlari yozuvlar deb, ustunlari esa maydonlar deb ataladi.

So'rovlar jadvallardan ma'lumotlarni bir yoki bir necha kriteriyalar (ko'rsatgichlar) asosida tanlab olish uchun ishlatiladi. Jadvallar soni ham bir yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Masalan, so'rovlardan foydalangan holda quyidagi savollarga javob olish mumkin:

- Oxirgi kvartalda har bir mahsulotdan qanchadan sotildi?
- Oxirgi oyda qancha yangi mijozlar murojaat qildi?
- Qaysi korxonadan qancha mahsulot keldi?

Misol uchun agar jadvalning Nomlar yozilgan ustunidan foydalangan holda undagi Akrom Alimovga tegishli barcha yozuvlarni ajratib olish mumkin. Buning uchun Nomlar ustunining «Usloviya otbor» (Tanlash shartlari) deb nomlangan qatoriga Akrom Alimov deb yozish kerak bo'ladi.

So'rovlar konstruktorining imkoniyatlari faqatgina tanlovni amalga oshirish bilan chegaralanmaydi. U orqali quyidagi so'rovlarni ham amalga oshirish mumkin:

«Perekrestnyy zapros» (xilma – xil jadvallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan so'rov) – u orqali ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, oldingi kvartalda har oyda har bir mahsulot bo'yicha sotuv hajmi qancha bo'lishini aniqlashimiz mumkin.

«Zapros na sozdaniye tablisy» (Jadval hosil qilish uchun so'rov) – bunda so'rov natijasida hosil bo'lgan natijalar yangi jadvalga joylashadi.

«Zapros na obnovleniye» (Yangilanish so'rovi) – bunday so'rovlar vositasida jadvaldagi yozuv guruhlariga o'zgartirishlar kiritish, ma'lumotlarni tahrir qilish yoki bir jadvaldagi ma'lumotlarni boshqa jadvaldagi ma'lumotlardan foydalangan holda o'zgartirish mumkin.

«Zapros na dobavleniye» (qo'shish maqsadidagi so'rov) – bunday so'rovlar bir jadvaldagi ma'lumotlarni boshqasiga qo'shishga imkon beradi.

«Zapros na udaleniye» (Yo'qotish uchun so'rov) – bunday so'rov jadvaldan yozuvlar guruhini yo'qotish uchun xizmat qiladi.

Shakllar jadvaldagi ma'lumotlarni ko'rishni osonlashtirish yoki jadvalga ma'lumotlar kiritish uchun ishlatiladi. Bunda jadvaldagi yozuvning barcha maydonlari shaklda ko'rinib turadi. Shuning uchun ham ma'lumotlarni tahrir qilish ancha osonlashadi. Shakllar ham tegishli yordamida dastur – masterlar yordamida hosil qilinishi mumkin (Master form yoki Form Wizard).

Agarda shaklni tezlik bilan hosil qilish talab qilinsa, u holda Avtoshakl masteridan foydalanish mumkin. Bunda shakl turi tanlab olinadi xolos. Bir necha jadvallar asosida ham shakllar tashkil qilish mumkin.

Sahifalar (Stranisy) – ular alohida holda saqlanadigan HTML (gipermatn) shakltidagi fayllar bo'lib, Access ma'lumotlarini Internet Explorer brauzeri yordamida ko'rish uchun ishlatiladi.

Hisobotlar (Otchetiy) - ma'lumotlarni ko'rish va chop qilish uchun ishlatilib, quyidagi imkoniyatlarni yaratib berishi mumkin:

Hisobotlar masteri (Master otchetov – Report Wizard) – hisobotni bosqichma-bosqich tayyorlashga va chop qilishga imkon beradi.

Avtohisobot (Avtootchet - AutoReport) – ma'lumotlar bazasi dasturida oldindan mavjud bo'lgan tasmali yoki ustunli ko'rinishdagi hisobotlar tayyorlashga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Access jadval maydonlarining turini aytib bering.
2. Jadvallarni «Master» yordamida tuzish qanday amalga oshiriladi?
3. Jadvallarni konstruktor yordamida tuzish qanday amalga oshiriladi?
4. Access da shakllarni tuzishni mohiyati va usullari.
5. Birlamchi va tashqi kalitlarni hosil qilish.
6. Shakllarni yaratishda boshqarish elementlari.
7. Access da «Master» yordamida so'rovlarni hosil qilish.
8. Access da konstruktor yordamida so'rovlarni hosil qilish.
9. Namuna bo'yicha so'rovlarni hosil qilish.
10. Access da hisobotlarni tayyorlash usullarini aytib bering.
11. Access diagrammalar qanday tuziladi?

15 – Mavzu: Axborotlarni qayta ishlashni hozirgi zamon vositalari

Reja:

1. Мултимедия ва уни қўлланилиши.
2. Мултация тизимсини ўрнатиш учун компьютерларга қўйиладиган талаблар.
3. Овоз картаси ва унинг турлари.
4. Ҳозирги замон ахборот тизимлар программалари.

Таянч иборалар: мултимедия, кўп мухит, CD-ROM, винт, ахборот узатиш тезлиги, лазер диск, компакт диск, микропроцессор, оператив хотира, ташқи хотира, частота, хотирлаш ҳажми, видео тизим, разря, овоз картаси, овозни синтез қилиш, картани ишлаш принципи, WT, FM, овоз картаси турлари, MIDI, дастур, INSTALL, Office, NetWare, илова, операцион тизим, драйвер.

1. Мултимедия ва уни қўлланилиши.

Ахборот технологиядаги “мултимедия” (multimedi) терминини “кўп мухит” деб тушуниш мумкин. Мултимедия- бу махсус технология бўлиб, махсус программа таъминоти ва техник воситалар асосида компьютерда оддий матнли ахборотларни овоз ва ҳаракатланувчи объект билан боғлайди. Мултимедия қуйидагиларни ташкил қилади.

- компьютерни берилганлар ва мултимедия овоз чиқарувчи ахборотларига мурожат эта олувчи техник воситаларни;
- мурожатни ва овозни ўқишга хизмат қилувчи программа таъминоти;
- мултимедияда ахборот сақловчи қурилма.

2. Мултимедия тизимсини ўрнатиш учун компьютерларга қўйиладиган талаблар.

Компьютерни мултимедия воситаси сифатида қуриш учун баъзи минимум аппаратга эга бўлиши керак. Халқаро тажрибаларни кўрсатишга, ҳозирги замон мултимедияси программа таъминотини қўллаш учун шахсий компьютерга қуйидаги талаблар қўйилади:

- микропроцессор intel P4 ёки Athlon 2000 MG такт частотаси 2000 Мгц дан кичик бўлмаслиги;
- оператив хотира ҳажми 256 Мб дан, қаттиқ магнит диск ҳажми 40 GB дан кичик бўлмаслиги;
- видеотизимни имконияти 1024X1276 ва ранлар сони 65536 дан кам бўлмаслиги;
- овоз картаси ва акустик колонкалар;
- CD-Rom сисатемаси.

Мултимедияда асосий ахборот ташувчи тизимсида CD-Rom (Compact Disk Read-Only Memory) қурилмасида қўлланилувчи компакт диск ҳисобланади. CD-Rom эгилувча магнит дискга ва винчестер ўртасидаги жойини эгаллайди. Унинг хотираси ҳажми 700 Мб атрофида. CD-Rom қурилмасидан компакт диск осон олиб, қўйилади. Дискдан ахборот узатилиши тезлиги винчестерникдан анча паст. Ахборот компакт лазер дискдан ўқилади холос. Унга ахборот тайёрловчи завод томонидан езилади.

Дискдан ахборот узатилиши уни айланиш тезлигига боғлиқ ҳозирда 12 ва 52 тезликни CD-Rom □ел қўлланилмоқда.

CD-дискковод компьютерга аппарат ҳолида ўрнатилиб асосий платага махсус шлеф ёрдамида улангандан кейин дискководнинг драйвери компьютер оператив хотирасига юкланди. Драйвер юклангандан кейиноқ CD-дискководни тизим навбатдаги логик диск (D: ёки E:) каби экранга очади. Ундаги ахборотларни оддий винчестер (C: логик диск) каби бемоло ўқиш, бошқа жойга нусха олиш мумкин.

CD-Rom ҳажми катта ахборотларни сақлай олиши мумкинлиги учун қуйидаги ҳолларда кенг қўлланилади:

Биринчидан, CD-Rom дан ихтирий программа махслотларини узоқ вақт сақлаш мумкин. Бу эса саноат ва жамият учун зарур бўлган ахборотларни тўпламларини сақлаш имкониятларини беради.

Иккинчидан, компьютер тизимларини INSTALL программани сақлаш ва улардан фойдаланиб тизимларни шахсий компьютерларга ўрнатиш.

3. Овоз карталари ва уларни типлари.

Овоз карталари ёрдамида овозни синтез қилишни иккита методи мавжуд:

WT(Wave Table-тўлқинлар жадвали)-олдиндан ёзилган рақамли овозларини чиқаришни-сэмплов (Samples) дейилади. Киска вақт овоз берувчи инструментлар одатда □еле ёзилади. Колганлари боши ва охири ёзилиб ўртада ёзилиб ўртада қайтарувчи қисмлари ёзилади. Овоз балантлигини ўзгартириш учун ўқиш тезлиги ўзгаради.

Бу методни ютуғи-овозни хақиқийсига ўхшашлиги ва овоз олишни содалигидир. Камчилиги олдинданлаб қўйилган тембрлар, кўпчилик параметрларни вақт бўйича ўзгартириб бўлмамлигидир.

Айтиб ўтиш керакки, кўпчилик музика платаларида WT синтез методида ишловчилари эски тизимсидалигидадир.

FM (Frequency Modulation-частота модуляцияси)-овозни бир неча сигнал генераторлари ёрдамида синтез қилиш. Одатда синусоидал генератор кўзда тутилади. Ҳар бир генератор частота бошқариш ва сигнал амплитудасини бошқариш схемасига эга.

Методни ютуғи-олдиндан ёзиб қўйилган овоз йуклиги ва хотира керакмаслигидир. Камчилиги жуда оз тембрлар мавжудлигидир.

MIDI (Misical Instrument Digitalb Interface)-музикал инструментларни рақамли интерфейси. У бошқариш тизимсини ва бир неча инструментларни бирлаштирилиши.

MIDI дейилганда инструментларни улаш-кабели разёмини методлари, сигналларни узатиш методлари ва инструментлар ўртасида хабарлар, буйруклари йиғиндиси. Кўпчилик хабарлар реал вақтда узатилиб клавиатурага таъсир унда сезилади.

Овоз карталарини ишлатилиш мақсадига □елефоно группага бўлинади:

-фақат овозли, фақат рақамли ёзиш ва ўқишни бажаради. Бу платалар фақат узликсиз овоз окимини магнитофон сингари ёзади ва ўқийди.

-фақат музикали,музикали синтезатордан иборат. Бу платалар зунга узун бўлмаган музикаларни генерацияланишини процессордан олинган буйрук асосида амалга оширади.

-комбинациялашган платалар, бунда музикасиз синтезатор рақамли овоз билан кушилади.

Комбинациялашган картада бир-бирига унчалик боғлиқ бўлмаган тўрта блокга бўлиши мумкин:

1. Блок, рақамли ёзиш ва ўқиш блоки. Аналог сигналсини рақамига, рақамлини аналог сигналга айлантириш. У аналог-рақамли айлантирувчи ва бошқариш қисмидан иборат.

2. Блок синтезатор.

3. Блок MPU.Ташқи MIDI-интерфейси орқали берилганларни қабул қилиш ва узатишни бажаради.

4. Микшер блоки. Аналог сигналларни сатхини, «Кому»тацияни бошқаришни ташкил этилади. Микшер таркибига олдиндан, оралик ва чиқиш сигналларни кучайтиргич киради.

4. Ҳозирги замон ахборот тизимлар программалари.

Ҳозирги замон ахборот технологияни асосий ривожланиш сохалардан бири офис иловалари □елефо программалар пакетини яратиш йўналишидир. Амалий программалар инсонларни зерикарли ҳисоб ишларидан озод қилиб ижодий ишлар бажаришга вақтларини орттиради.

“Office” сўзини таржимаи контора (идора) деган маънони беради. Сўзни маъносидан келиб чиқиб шуни айтиш керакки, у ерда ахборотларни қайта ишлаб маълум формага солиниб, тайёрланиб, сақланиб зарурий ҳолларда олинади.

Демак office илова программалари □еле конторада олиб бориладиган илмий техникавий масалаларни ечиш, ахборотларни қайта ишлаш ва зарурий хужжатларни тайёрлаш ишлари учун мўлжалланади. Уларни умумлаштириб қуйидагини келтириш мумкин.

1. Ҳар хил матнли инфомацияларни яъни, хат, ҳисобот, □елефонограмма, жадвал ва бошқаларни қайта ишлаш.
2. Моливий ва тижорат ҳисобларини махсус жадвал ва расмлар билан тузиш.
3. Бухгалтерия ҳисоботларини юритиш, операцияларини бажариш. Кириш ва чиқимларни ҳисобини юритиш ва ҳокозолар.
4. Электрон почта: матнли ва график ахборотларни маълум масофадаги адресларга жўнатиш; жўнатиш хабарни қабул қилиш, регистрация қилиш;
5. Ходимларни ишларини бошқариш (ходимларга корхона ҳолатидан келиб чиқиб иш графигини тузиш, кадрлар ҳисобини юритиш.

Ҳозирда юқоридаги ишларни бажара оладиган офислар иловалар кенг тарқалган, Масалан: Lotus тройка (матн редакторлари AmiPro, электрон жадваллар Lotus 1-2-3), Microsoft office (матн процессори Word, электрон жадвал Excel, СУБД Access) ва бошқалар.

Nazorat uchun savollar:

1. Мултимедия нима?
2. CD-ROM деганда нимани тушинасиз?
3. Овоз картасини вазифаси нима?
4. Компакт дискларни асосий ютуқлари нимада?
6. Мултимедия нима учун ишлатилади?
7. Мултимедиянинг таркибига нималар киради?
8. Ҳозирги замон мултимедияси программа таъминотини қўллаш учун шахсий компьютерга қандай талаблар қўйилади?
10. WT нима?

16- mavzu: Shaxsiy kompyuterlar arxitekturasi va ularni effektivligini

РЕЖА :

1. Компьютер қурилмаларини вазифалари.
2. Ҳозирги замон шахсий компьютерларини асосий параметрлари.
3. Компьютерни модернизация қилишдан мақсад.

Таянч иборалар: компьютер, IBM, шахсий компьютер, асосий қурилмалар, ташқи қурилмалар, ҳисоблаш тезлиги, частотаси, оператив хотираси ҳажми, қаттиқ магнит диск хотирлаш ҳажми, разряди, магнит диск, тезлатувчи плата, математик процессор, ёрдамчи процессор, микропроцессор, автоматлаштирилган проект

1. Компьютер қурилмаларини вазифалари.

Маълумки, шахсий компьютерларни шартли равишда икки қисмга бўлиш мумкин. Биринчи қисм аппарат қисми, иккинчи қисми программа таъминоти. Бизни бу фанимиздан мақсад шахсий компьютерларни аппарат қисмини ўрганиш. Ҳозирда ишлаб чиқарилаётган шахсий компьютерларни архитектураси деярли бир хил. Уларни архитектурасини ёритишдан олдин, қўлланилаётган компьютерларга тўхтайлик.

Дунё бўйича IBM (International Business machine) компаниясини шахсий компьютерлари кенг тарқалган. Улардан ташқари Apple фирмаси, Ямаха, фирмаси ҳам уларини компьютерларини ишлаб чиқармоқда.

Шахсий компьютерларни таъминоти схемасини умумий кўринишда қуйидагича чизиш мумкин:

Компьютерларни асосий қурилмаларига микропроцессор доимий хотирлаш қурилмаси, оператив хотирлаш қурилмаси ва алоқа каналларини киритиш мумкин.

Ахборотни киритиш, чиқариш, ташқий хотирлаш қурилмаларини ташқий қурил-маларга киритилади.

Келтирилган қурилмаларни алоҳида-алоҳида мавзуларда кўриб чиқамиз.


Қурилмаларни асосий функциялари куйдагилар:

Микропроцессор компьютер қурилмаларини иш фаолиятини текшириб, улар ўрта-сида алоқа ўрнатиб, бирлигини таъминлаб масалаларни ечилишини ташкил этади.

Доимий хотира - программа бажарилиши давомида ўзгармайдиган ахборотларни сақлаш учун хизмат килади. Унга ахборот завод тамонидан ёзилади.

Оператив хотира программаларни, берилганларни, оралиқ натижаларни ва натижа-ларни вақтинча сақлаб туриш учун қўлланилади.

Хар қандай операциялар микропроцессорда бажарилади.



Киритиш қурилмаларга-компьютер хотирасига ахборотларни киритиш қурилмала-ри мисол қилиш мумкин:

- клавиатура
- сичқон
- жёстик
- сканер ва бошқалар.

Ахборотларни чиқариш қурилмаларига

- монитор
- принтер
- графопостроителр ва бошқалар киради.

Компьютерларда катта хажмдаги ахборотларни сақлаш учун ташқий хотирлаш қурилмаларидан фойдаланилади. Асосан ҳозирда икки турдаги ташқий хотирлаш қурил-малари ишлатилмоқда.

Биринчиси каттиқ магнит дискларга ахборотларни ёзиш ва ўқиш қурилмаси.

Иккинчиси эгулувчан магнит дискларга ахборотларни ёзиш ва ўқиш қурилмаси.

Бундан ташқари лазерли дисклардаги ахборотларни ўқиш қурилмаси CD-ROM ларни ҳам ташқий хотирлаш қурилмасига мисол қилиш мумкин.

2. Ҳозирги замон шахсий компьютерларини асосий параметрлари.

Ҳозирги замон шахсий компьютерларни имкониятларини белгиловчи асосий параметрлари қуйидагилар:

- частотаси, шахсий компьютерни ҳисоблаш тезлиги (75 МГц дан 800 МГц гача)
- оператив хотираси ҳажми ; (128 М байтдан-1024 Мб гача)
- ўрнатилган қаттиқ магнит дискларни (винчестерларни) ҳажми (10 Мбайтдан-1000 Гбайтгача)
- комплектга қўйилган монитор параметрлари.

Фойдаланувчи ўзига компьютер танлашда олинаётган шахсий компьютерни юқорида кўрсатилган параметрларига эътибор бериши керак. Имконият даражасида параметр кўрсаткичлари юқорироғини танлаш зарур.

3. Компьютерни модернизация қилишдан мақсад.

Шахсий компьютерларни такомиллаштиришни сабаблари кўп. Масалан: компьютерни ҳозирги замон талабига жавоб бериши, катта оператив хотира ва магнит диск хотирасига эга бўлиш, уни бошқа тизим ва программа таминотига мос кела олиши-ни таминлаш.

Купчилик ҳолатларда шахсий компьютерни тезкор қилиш қуйидагилар асосида олиб борилади:

- катта тезликда ишловчи қаттиқ магнит диск юритувчи қўйиш;
- катта оператив ҳажм қўйиш;
- математик сопроцессор қўйиш;
- тезлатувчи плата қўйиш;
- марказий процессорни алмаштириш.

Компьютер тезлигини модернизация қилиш билан оширилганини доимо сезиб бўлмайди. Бу қандай программалар билан ишлаётганига боғлиқ.

Масалан магнит дискга катта ахборот ёзилган маълумотлар билан ишлашда ҳисоблаш тезлиги ва хотира ҳажмига ҳам боғлиқ. Чунки асосий вақт қаттиқ магнит дискдан керакли ахборотни қидириш, ўқиш ва ёзишга кетади. Бу ерда тезкорликни оширишни йули-тезрок ишловчи винт қўйишдир.

Винчестер тезлиги милли секундларда (мс) ўлчланади. Ҳажми эса Мбайтларда. Бу характеристикалар шахсий компьютерга қўйилган контроллерлар билан боғлиқ. Чунки винчестерни янги қўйиш, контроллерни ҳам алмаштиришни талаб қилиши мумкин.

Компьютерларга ихтиёрий микродоғи оператив хотира (RAM) ни қўйиш мумкин эмас. Масалан ўрнатилган Windows XP қўллай оладиган компьютерга 128 Мбайт хотира қўйишни ёки шунчага кенгайтиришни ҳожати йук. Шунинг учун энг биринчи навбатда компьютерни оператив хотирасини 64 Мбайт етказиш керак.

Бундан ташқари қўшимча хотира қўшиш мумкин, лекин у фақат фойдаланувчи программаларни берилганларни сақлаш учун хизмат қилади. Қўшимча хотира ўрнатиш учун плата ва EMS-драйвери зарур.

Демак имконияти кам бўлган процессор қўлланилаётганда қўшимча хотира учун махсус драйвер талаб қилинади.

Математик сопроцессор-бу ёрдамчи чип бўлиб, процессорга калкулятор ролини ўйнайди. У асосан микропроцессорга мурракаб математик операцияларни бажаришга ёрдам беради. Микропроцессор ўз фаолиятида математик масалага тўғри келса, уни математик сопроцессорга узатади. Демак микропроцессор математик ҳисоблашда озод этилиб ҳисоблаш тезлиги ортади.

Лекин компьютер тезлиги қачонки математик ҳисоб ишлари кўп масалаларни ечимдагина сезиларли бўлади. Бу асосан электрон жадваллар билан ишлаганда ёки автоматлаштирилган проектлашда кўринади.

Математик сопроцессор ҳам микропроцессор каби микросхема бўлади, лекин у фақат ёрдамчи процессордир. Микропроцессор ўзи ҳам математик операцияларни бажариши мумкин. Лекин сопроцессор қўйилиши билан 300% га эффе́ктивлик ошади.

Сопроцессор номери процессорникига мос келади, фақат охирги рақамида фарк бор. Микропроцессорни охирги рақами 6, сопроцессорники 7.

Яна бир нарсага эотибор бериш керакки қўйилаётган сопроцессор частотаси микропроцессор частотасига мос келиши керак. Акс холда улардан бири ишдан чиқади.

Математик сопроцессор ўрнатилганлигини АТ компьютерлар автоматик қабул кила олади.

Шахсий компьютер микропроцессорларини янги микропроцессор билан алмаштириш уларни самаралилигини ортиради. Лекин ихтиёри микропроцессорни ихтиёри микропроцессор билан алмаштириш мумкин эмас. Чунки компьютерни асосий платаси аниқ бир гуруҳ процессорларига мўлжаллаб чиқарилган.

Масалан Intel P3 микропроцессорларни Intel P4 билан алмаштириш мумкин.

Микросхемаларни алмаштириш ўрнатилаётган асосий плата неча разрядли микропроцессор билан ишлай олишини билишни талаб килади.

Компьютер тезлигини оширишни яхна бир йули қўшимча тезлатгич қўйишдир. Бу платага ўрнатилган микропроцессор бўлиб асосий процессорни функцияларини ўзига олади.

Янги микропроцессор ўзини платаси билан кенгайтириш платасига уланади. Уни кабели чиқариб ташланган микропроцессор разёмниги уланади. Микропроцессор ўрнатилган қўшимча плата ўзини RAM ига эга бўлиб, уни ҳажми бир Мбайт.

Энг охирги тезликни ошириш вариантларидан бири компьютер асосий (материнский) платасини алмаштиришдир. Бунда янги компьютер хосил бўлганидек бўлиб қолади.

Nazorat uchun savollar:

1. Компьютер асосий қурилмаларини айтинг?
2. Компьютер ташқи қурилмаларига қайси қурилмалар киради?
3. Алоқа каналлари вазифаси нима?
4. Компьютер параметрини қандай қилиб яхшиланади?
5. IBM-нинг кенгайтмаси қандай?
6. Шахсий компьютерларни тамойилиал схемасини умумий кўринишда қандай чизиш мумкин?
7. Компьютерларни асосий қурилмаларига қайсилар киради?
8. Қурилмаларни асосий функциялари қайсилар киради?
9. Доимий хотира нима?
10. Киритиш қурилмаларга-компьютер хотирасига ахборотларни киритиш қурилмалари қайси қурилмаларни мисол қилиш мумкин?

17 - mavzu: Modemni ishlash tamoyili

Р Е Ж А :

1. Модем қурилмасини вазифалари.
2. Модемни ташкил этган қурилмалар.
- 3 Баъзи кузатиладиган хатоликлар ва уларни бартараф этиш.

Таянч иборалар: модем, модем вазифаси, аналог сигнал, рақамли сигнал, модуляция, демодуляция, контроллер, разряд, ички процессор, ахборот узатиш тезлиги, ўлчов бирлиги, хатоликлар, ишончлилик, тўхталишлар, қурилмаларни бир-бирига мос келмаслиги, хатолик турлари.

1. Модем қурилмасини вазифалари.

Ҳозирда компьютерлар ўртасида телефон линияси ёрдамида алоқа ўрнатилаган. Бу алоқани ўрнатиш учун махсус қурилма талаб қилинади. Бу қурилмани вазифаси телефон линияси орқали олинган сигнални рақамли сигналга айлантириш, киришда эса тескари операцияни амалга оширишдан иборат. Демак у модуляция ва демодуляция операцияларини бажариши керак. Шунинг учун қурилма Modem номи олинган.

Модемни вазифаси компьютердан келган “0” ва “1” лардан иборат рақамли сигнални акустик диапазондаги электр тебранишига айлантириб узатиш ва тескари операцияни бажаришдир.

Модем акустик канални паст ва юқори частотали полосаларга бўлади. Паст частотали полоса ахборот узатиш, юқори частотали палоса ахборотни қабул қилишга қўлланилади.

Ахборотларни кодлаштиришни кўп йуллари мавжуд. Улардан кенг тарқалгани FKS (Frequency Shift Keying) методи. У 300 бод (1 бодк1 бит/с) тезликда ахборот узатилишига мўлжалланган.

PSK (Phase Shift Keying) етарли катта тезликда ишловчи модемлари учун, ахборот узатиш тезлиги 2400 бодгача.

FSK тўрта ажратилган частоталарни қўллайди. Ахборот узатишда 1070 Гц частотали сигнални “ноль” деб, 1270 Гц ли сигнални логик “бир” деб тушинилади.

Қабул қилишда эса нолга 2025 Гц, бирга 2225 Гц частотали сигналлар мос келади.

PSK эса иккита частотани ишлатади:

Ахборот узатиш 2400 Гц, қабул қилиш учун 1200 Гц. Ахборот икки битдан узатилади, бу ерда кодлаш фаза сурилиши билан амалга оширилади. 0 градус “00” учун, 90 градус “01”, 180 градус “10”, 270 градус “11” ларни белгилайди.

Булардан ташқари бошқа модуллашлар ҳам бор. Модел ташқи ёки ички бўлиши мумкин. Ташқий моделли битта кабелли телефон линиясига, иккинчи кабелли эса компьютерни стандарт сом портига уланади.

Ички модем эса оддий платадан иборат бўлиб умумий шинага уланади.

2. Модемни ташкил этган қурилмалар.

Модем контроллери кичик махсус компьютер бўлиб типичи SC 1107 ёки SC 1108. У 8 разрядли арифметик-логик қурилма, 8 Кбайт доимий хотира, 128 байтли оператив хотира, таймер, буйрук регистри, тухталиш контроллери, киритиш ва чиқариш портларига эга.

Энг кўп тарқалган модемлардан бири Hayes бўлиб, ишлаб чиқарган фирма номи билан юритилади. Бу модемлар AT (Attention) буйруқларни қўллайди. AT командалари бошқа модемларга ҳам мос келувчи хисобланиб, кўп сондаги буйруқларни ўз ичига олади.

Модемда қўлланилаётган буйруқлар бошқа модемларга ҳам мос келишида ташқари, телефон линиясида узатилаётган ахборот коди (сигнали) бирор халқаро стандартга мос келиши керак. Бундай стандарт МК КТТ (халқаро телеграф ва телефон консултатив комитети) ССИТТ (Comit Consultariv International Telegraphique et Telephonique) рекомандациясидир. АКШ ва Канадада юқоридаги сингари стандарт бўлиб уни номи Bell. Уни ССИТТ дан фарқи фақат логикдир.

Ахборот алмашинуви 2400 бод гача модемлар, стандартга мос келувчилари эркин ахборот алмашади. Тезлиги 2400 боддан ортик бўлган модемларда стандартдан четланишлари мавжуд бўлади. Бу четланишлар махсус илова протоколда келтирилади.

Кенг тарқалган ва орзон моделларга мисол қилиб Sport, Worldport, Courier ларни келтириш мумкин. Уларни ишлаш тезлиги 9600 дан 21600 бод гача. Бундан ташқари Zy XEL фирмаси моделларни ҳам кенг тарқалган. У ўзини протокоliga эга бўлиб ахборот алмашинув тезлиги 19200 бод.

Кенг тарқалмаган, киймат лекин кучли, тургун сигналли, химоя филтрларни ҳам эътиборга олмайдиган Telebit фирмаси моделлари TraiBlazer ҳам мавжуд.

3. Баъзи кузатиладиган хатоликлар ва уларни бартараф этиш.

Кузатилган хатоликларни аниқланиш усулларидан бири янги ўрнатилган қурилмаларни қаттиқрок режимда ишлатишдир. Чунки компьютерни ҳамма қурилмалари завод томонидан синаб қурилган бўлиб, ундан ташқари амалиётни кўрсатишига компьютерларни электрон қурилмаларида бузуқликлар бўлса, у биринчи 90 соат компьютерни ишлашида билинади.

Агар компьютер биринчи уч кун ичида нормал ишласа унинг қурилмаларида бузуқликлар 1-2 йил эксплуатация давомида кузатилмайди.

Малумки ҳар сафар компьютер ишга туширилиши билан POST дастури ишга тушиб компьютер асосий қурилмаларини иш фаллятини тест орқали текширади. Агар бирор хатолик кузатилса, у тўғрисида хабар бериб хатолик кодини кўрсатади. Фойдаланувчи хатоликлар жадвалидан кодга мос келган хатолик сабабини олиб тузатиши мумкин. Бундан ташқари компьютер электр тармоғига уланиши ёки қайта юклатиш билан бирор хатолик (бирор қурилма уланмаса ёки ишламаса) бошқа турдаги овоз сигнали чиқиши билан билдирилади.

Энг кўп хатоликлар компьютер қурилмаларини такомиллаштиришда кузатилади. Демак бу ҳолларда кузатиладиган хатоликни тузатиш осон бўлади.

Агар компьютер тармоқга уланиши билан монитор экранига ҳеч қандай маълумот чиқмаса, компьютер қурилмаларини аниқ кетма кетликда алмаштириб кўриш мақсадга мувофиқ. Чунки компьютер қурилмалари модул сифатида қурилган бўлиб уларни олиб қўйиш осон.

Кўп ҳолларда янги қурилма қўйилганда ундаги ёки асосий платадаги DIP-переключателлари янги қурилмага мос келмаслиги мумкин.

POST дастури кўрсатган хатоликларни баъзи сабаблари:

- 101-тизим платаси ишламаслиги;
- 102-BIOS ROM да назорат суммасида хатолик;
- 104-тухтатиш назоритидаги хатолик;
- 105-таймердаги хатолик;
- 106-тизим платасидаги хатолик;
- 107-тизим платаси, ёки математик сопроцессор хатолиги:

Nazorat uchun savollar:

1. Модем нима?
2. Модуляция ва демодуляцияни тушинтиринг .
3. Ахборот алмашиш тезликлари қайси интервалларда
4. Қандай модемга ташқи модем дейилади?
5. FKS нима?
6. Компьютерлар ўртасида телефон линияси нима учун керак бўлади?
7. Модем-нима?
8. ССИТ нима?
9. Агар компьютер тармоқга уланиши билан монитор экранига ҳеч қандай маълумот чиқмаса нима қилиш керак?
10. POST дастури қандай дастур ва у нима учун керак бўлади?

18 – mavzu: INTERNET TARMOҒI

Reja:

1. Интернетда доменли адреслаш.
2. Протоколлар.
3. IP - адреслаш.
4. Internetда доменли адреслаш.
5. Янгиликлар ва телеконференциялар рўйхатини ўқиш.
6. Ping, Telnet ва FTP билан ишлаш.
7. Arcie ва Gopher билан ишлаш.
8. World Wide Web да ишлаш
9. Internet ресурсларининг манзилгоҳлаш услубиёти.
10. WWW да ишлаш.
11. Модемни урнатиш.
12. Интернет хизматини компьютерга урнатиш.
13. Амалий машгулотлар.
14. Webнинг куриш воситалари.
15. Explorer 5.0 дастурида ишлаш.
16. Web-саҳифаларни очиш ва куриш.
17. Броузери бошқариш усуллари.
18. Бир нечта дарчалар билан ишлаш.
19. Броузернинг хоссаларини юклаш.
20. World Wide Web да маълумотларни излаш
21. Интернетдан файлларни қабул қилиш


Таянч иборалар: тармоқ, мустақил тармоқ, компьютер тармоқларининг ривожланиш тарихи, Internetни ташкил этилиши, тармоқларда адреслаш, протокол, қоида, IP протокол, TCP протокол, тармоқ даража, транспорт даража, амалий даража, протокол аҳамияти. байт, адрес, протокол, host-тугун, боғланиш, ахборотни адресли узатиш, иккилик сон, разряд, домен, доменли адреслаш, тармоқ ишчи станцияси адреси, адрес структураси, адресларда шартли белгилар, бир неча адресга мурожат, янгиликлар, конференция, телеконференция, маълумотлар базаси, жўнатма рўйхат, янгиликларни жойлаш, зарурий янгиликни қидириш, конференцияларни йўналишлар бўйича тартиблаш. Ping, Telnet, FTP, терминал, протокол, эмуция, операцион тизим, алоқа, Arcie, Gopher, Интернет, маълумотлар базаси, сервер, архив, тармоқ, World Wide Web, глобал, глобал гиперматн, график, видео, Markup Language, почта, HTTP, манзилгоҳ, типик манзилгоҳ, сервер, сервер манзилгоҳи, деректория, порт, порт номери, WWW, браузерлар, кўриш, браузерлар уруши, Internet Explorer. Интернет, модем, Web-саҳифалари, WWW, сервис-провайдер, модельатор ва демодулятор, Internet Explorer.

Интернетда доменли адреслаш.

1957 йили ARPA(Advanced Research Projects Agency) ташкилоти тузилди. 60 - йиллар охирида DARPA(Defense Advanced Research Projects Agency) ARPANet тажриба тармоғини ташкил этиш ҳақида қарор қабул қилди. Илк бор тармоқ 1972 - йили намоиш этилди. У 40 та компьютердан иборат бўлиб, асосий тузилиш тамойили тармоқдаги барча кампьютерларнинг тенг ҳуқуқли бўлиши эди. 1975 - йили ARPANet тажриба тармоғи макomini ҳаракатдаги тармоқ макомига ўзгартирди. 80 - йиллар бошида тармоқда машиналарнинг ўзаро таъсири пратаколлари стандартлаштирилди. Бошланғич вариант TCP/IP(Transfer Control Protocol /Internet Protocol). BBN компанияси билан шартнома тузилди, бу эса TCP/IP ни UNIX OT сафига киритди. 1983 йилда Internet ташкил этилди. ARPANet 2 қисмга бўлинди; MILN ва ARPANet, уларга NSFNet ва бошқа тармоқлар уланди. 1989 - йили ARPANet мустақил тармоқ сифатида тугатилди.

Интернет-ахборотлар билан муваққил алмашиш имкониятини яратди. Бирок бир неча йил илгари унинг ресурсларига фақат файлга мурожаат қилишга мўлжалланган дастурий таъминот ёрдамидагина кириш мумкин эди.

Геперматнли инқилоб; 1965 йили Нелсон геперматн сўзини қўлади. Ван Дам ва бошқалар 1967 йили геперматн тахрирловчисини тўзиб чиқди. Нелсон 1987 йили маълумотларнинг геперматн тахрирловчисини тузиб чиқди. Женева ЦЕРН да ишловчи физик Тим Бернес Ли 1990 йил геперматнли лойихани таклиф этди. Бу лойиха физик олимларга Интернет орқали тадқиқот натижаларини ўзаро алмашиш имконини берар эди.



Глобал тармоқ тузилмаси

Шундай қилиб халқаро ахборот тармоғи - World Wide Web(WWW) га пойдевор бўлди. 1993 йили Марк Андерсон раҳбарлигида биринчи гиперматнли Mosaic график браузер ишлаб чиқди. 90 йиллар ўрталари да Internet бизнес-ишловчилар билан ишлаш учун қўлланила бошлади. Бирок бу борада турли хил муаммолар; тармоқ каналларини ортқича юклаш ва ахборотни ҳимоялаш мавжуд эди. Internet нинг статистик маълумотлари қуйдагича.

- * 1981 й. - Internet га 213 та компьютер уланган ;
- * 1983 й. - Internet га 562 та компьютер уланган ;
- * 1986 й. - Internet га 5089 та компьютер уланган ;
- * 1992 й. - Internet га 727000 та компьютер уланган ;
- * 1995 й. - Internet га 20-40 миллион компьютер уланган ;

Интернетга жойлашган асосий гоёлар.

ISO очик тизимлар ўзаро таъсир стандартини ишлаб чиқди, унинг асосий мақсади, турли даражадаги тармоқ компонентларининг ўзаро муносабатларини ташкил этувчи тартиблар ва турли хилдаги даражалардир.

7-даража -амалий. У тармоқда амалий ва тизимли дастурларнинг ўзаро алоқасини таъминлайди.Бу даражада амалий хизматлар бажарилади, яъни, файлларни узатиш, олислашган холда терминалга кириш, электрон почта ва ҳоказо;

6-даража-Маълумотларни тақдим этиш. Бунда маълумотларни узатишда кодировкани бир хиллаштириш таъминланади. Тармоққа бирлаштирилган компьютерлар ўртасида маълумотлар алмашуви учун фодаланиладиган шаклни белгилайди. Маълумотларни узатувчи компьютерда бу даража амалий даражадан олинган форматдан маълумотларни оралик форматларга қайта айлантиришни амалга оширади. Маълумотларни қабул қилувчи компьютерда бу даражаси маълумотларни оралик

дараматдан қабул қилувчи компьютернинг амалий даражасини аниқлайдиган форматга айлантиради.

5-даража-сеансли. Уиккита гапни турли компьютерларга жойлаш, фойдаланиш ва бирикишини тугаллаш имконини беради. Бу даражада қуйдагилар амалга оширилади:

- хавсизлик воситаларини бошқариш.
- маълумотлар алмашувини синхронлаш.
- ўзилиш натижасида сеансни колдириш.

4-даража-транспортга оид. Ушбу даража маълумотларни тўғри ташишни таъминлайди, хатоларни имкон даражасида тўғрилайди. Ташиш бўйича сервис хизматини кўрсатади;

3-даража-тармоқли икки машина ўртасида алоқани ташкил этади.

Маълумотлани манзилларига жўнатишга ва мантиқий манзилгоҳлар ва номларнинг жисмоний манзилларига ўзгаришга жавоб беради; жўнатувчи компьютердан қабул қилувчи компьютергача бўлган маршрутни белгилайди; тармоқ шартларига боғлиқ холда маълумотларнинг ўтиш йулини белгилайди;

2-даража-каналга оид. Тармоққа узатиш ва тармоқга олиш учун маълумотларни тўплайди. Маълумотларнинг жисмоний мухитга киришини бошқаради;

1-даража - Ҳисоблаш тармоғи ўртасидаги аниқ жисмоний ахлоқани таъминлайди.

Кўпчилик замонавий тармоқлар ISO/OSI эталон моделига фақат яқиндан мос келади. Бирор хил номдаги даражалар тўғридан-тўғри ўзаро таъсир қилмайди. Ҳар қандай даража фақат қўшни даража билангина таъсир кўрсата олади. Қўшни даража билан ўзаро таъсир кўрсатиш интерфейс деб юритилади.

Агар бирор машинанинг битта даражаси бошқа машинанинг мос келувчи даражасига мувофиқ килса, аслида у интерфейс орқали қўшни пастки даражага мувофиқ килган бўлади. Ахборот бир даража пастга тушади, чунки у ерда ахборот яна қайта ишланиб янада пастга узатилади. Жисмоний даражада ахборот алоқа канали бўйича бошқа машинага узатилади. У ерда тескари жараён юз беради; ахборот керакли жойга етмагунча керакли даражага кўтарилаверади. Бир хил номдаги даражаги тишимларнинг ўзаро таъсир қоидаси маълумотларни узатиш қоидаси деб юритилади. Ахборотларни Интернет бўйича узатиш асосида пакетлар коммуникацияси этади. Интернет орқали юбориладиган ахборотлар алоҳида пакетларга тахланадиган қисмларга ажралади. Пакет ичида ахборот ҳажми одатда 1 дан 1500 байтни ташкил этади. Бу бирор фойдаланувчи томонидан ахлоқ тармоғининг монополиялашнинг олдини олади ва қолганларга тенг ҳуқуқ ва имконият яратади. Барча ахборот пакетлари тармоқ бўйича улар учун умумий бўлган жойга юбрилади. Ҳар бир пакет белгиланган жойга етиб келишидан олдин турли маршрутлар бўйлаб ҳаракатланиши мумкин. Биз маршрут деган маълумотларни узатиш тармоғи тугунларининг кетма-кетлигини тушунамиз. Кабўл қилиш охирида пакетлар яна тегишли тартибда тўпланади.

2. Протоколлар

Протокол қонидани белгилайди. Бу қонид асосида иккита дастур ёки иккита компьютер биргаликда ҳаракатланади. Айрим протоколлар маълумотлар ҳаракатини бошқаради, айримлари хабарларни бутунлигича текширади, яна бирлари эса маълумотларни бир форматдан бошқасига ўтказишади.

Интернет бўйлаб юборилган ҳар-бир ахборот протокол орқали камида уч даража бўйлаб ўтади:

- тармоқ даража - бунда хабарни бир жойдан иккинчи жойга етказиш кузатиб борилади.

- транспорт даража - бунда узатиладиган хабарлар бутунлиги кузатилади.

- амалий даража - хабарларнинг компьютер формати кишининг маълумотни қабул қилиш учун қулай кўринишга ўзгаришади.

Интернетда иккита асосий протоколдан фойдаланилади:

1. IP (Internet Protocol)-тармоқлараро протокол, маълумотларни алоҳида пакетларга ажратади. У қабул қилувчининг манзили (IP-манзил) бўлган сарлавха таъминлайди.

Уларнинг белгиланган пунктга тўғри кетма-кетликда етиб бориши протокол билан кафолатланмайди. Ушбу протоколнинг муҳим вазифаларидан бири - бу маршрутлаш (Internet бўйича йул танлаш. Пакетлар шу йул орқали узатилади). IP протоколи мантикий бирикишларсиз ишлайди, у хатоларни аниқламайди ва тўзатмайди.

2. TCP(Transmission Control Protocol) - транспорт даражаси протокол - у пакетни тўғри етказиб бериш жавоб беради (6.1 жадвал). Интернет IP протоколини ва TCP оиласига мансуб протоколлардан бирини кафолатли қўллаб-қувватлайдиган кўплаб тармоқларни бирлаштиради. Қоида бўйича TCP/IP атамаси TCP ва IP протоколлари билан боғлиқ барча нарсаларни англатади. У бутун бир протоколлар оиласини камраб олади. Интернетда кўпгина амалий протоколлар мавжуд бўлиб, улар Mail, telnet, ftp, archie, gopher, WAIS, World Wide Web каби дастурлар фойдаланилади. Масалан файлларни жўнатиш протоколи (FTP), олислашган машина терминал эмуляцияси протоколи (telnet), оддий почтанинг жўнатиш протоколи (SMTP), номларнинг (DNS) домен (минтакавий) тизимли протоколи, маршрутлашнинг ахборотлашган протоколи (RIP), ва ҳоказо. TCP/IP протоколи аввалига глобал тармоққа мўлжалланган эди.

TCP/IP оиласи 4 - даражаси схема бўйича ташкил этилади.

ISO/OSI	TCP/IP
1.Амалий дастурлар даражаси	1.Амалий дастурлар
2.Маълумотларни акс этиш даражаси	2.Транспорт даражаси
3.Сеанс даражаси	3.Тармоқлар даражаси
4.Транспорт даражаси	4.Тармоққа кириш даражаси
5.Тармоқ даражаси	
6.Канал даражаси	
7.Жисмоний даража	

Жисмоний дастур даражаси маълумотларни тақдим этиш муаммосини мустақил ҳал этувчи амалий дастурдан иборат.

Транспорт даражаси - маълумотларни компьютердан компьютерга етказиб беришни таъминлайди.

Тармоққа кириш даражаси - Аппарат интерфейслари ва ушбу аппарат интерфейслари драйверлари.

INTERNETДА АЛОҚАНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

1. IP - адреслаш.

IP протоколи ўз ишини бажариш учун ахборотлар алмашувида иштирок этувчи компьютерларни бир хиллаштириш керак. TCP/IP тармоғига уланган ҳар бир компьютер ўзининг IP адресига эга. У 32 разрядли иккилик сон билан ифодаланади. Масалан: 01001011001001001011010010100101. Бундай адресни ёдда сақлаш қийин. Шу боис 8 байтдан иборат 4 блокка бўлинади ва унли санок тизимига ёзилади. Байтлар бир-биридан нуқталар билан ажралади:123.45.67.89.

IP адресларига мисоллар:196.201.90.0

204.1.1.23

host - компьютер адреси (IP - адрес) мантиқан икки қисмга бўланади. Улардан бири Network ID тармоқ идентификатори, иккинчиси эса Host ID тугун идентификатори деб юритилади.

Тармоқ идентификатори	Тугун идентификатори
Network ID	Host ID

Глобал тармоқ ўзи Network ID идентификаторига эга бўлган кўплаб тармоқларни бирлаштириши мумкин. Ҳар бир тармоққа ўз Host ID идентификаторига эга бўлган бир

канча тугунлар бўлиши мумкин. Сизнинг компьютерингиздан келувчи ва унга келувчи ахборот пакетлари оралик компьютерлар орқали ўтади. Ушбу компьютерлардан ҳар бири пакет сарлавҳасидаги IP манзилгоҳини таҳлил этади ва маршрутлаш жадвали(routing table) ёрдамида унга уланган компьютерлардан бирини танлайди.

А синфдаги адреслар умумий фойдаланиладиган катта тармоқларда қўллаш учун мўлжалланган. А синфдаги тармоқлар 126 та бўлиши мумкин, ундаги мумкин бўлган тугунлар сони эса 224 та бўлиши мумкин-бу гигант тармоқдир. Бундай тармоқлар кам. В синфдаги адреслар урта ўлчамдаги тармоққа (катта компаниялар, илмий текшириш институтлари, университетлар тармоғи) фойдаланиш учун мўлжалланган.

В синфдаги тармоқлар сони 16.000, ундаги тугунлар сони 65.000 тани ташкил этади.

С синфдаги адреслар тармоқда унча кўп бўлмаган компьютерлар юилан ишлашга мўлжалланган(унча катта бўлмаган фирма ва компаниялар тармоғи). С синфдаги тармоқ 2.000.000 та, ундаги тугунлар сони эса 255 тадан кам бўлади.

Д синфдаги компьютерлар гуруҳига мурожат қилиш учун фойдаланилади.

Е синфдаги адреслар эса захираланган D ва E синфлар - гуруҳли ва махсус тармоқлардир.

Биринчи байт бўйича IP адреслар тармоқлар синфи аниқлайди. Агар бир байт киймати 1 дан 126 гача бўлса, у А синфдаги тармоққа тегишли:

* 127-191-В синфдаги тармоқ;

* 192-233-С синф тармоғи;

Қолганлар D ва E синфга мансуб. Тармоқ номерларини тақсимлайдиган халқаро ташкилот мавжуд. Тармоқ маомури тармоқ тугуни номерини белгилайди.

IP нинг бешта катагорияли адреслари мавжуд

Синф	Биринчи байтни маъно диапазони	Тармоқлар сони	Тугунлар сони
A	1 - 126	126	16.777.214
B	127 - 191	16.382	65.534
C	192 - 223	2.097.150	254
D	224 - 239	-	228
E	240 - 247	-	227

2 Интернетда доменли адреслаш

Ҳар бир IP адрес битта тармоқ йўналишга мурожат килади. Домен - бу тармоқдаги номма - ном хостлар гуруҳидир. Агар сизга компьютер ва домен номи маълум бўлса, уларнинг манзилгоҳи ҳақида аниқ тасавурга эга бўласиз.

Номерлардаги доменлар бир-биридан нукталар орқали ажралиб туради. Номда биринчи ўринда IP адресли аниқ компьютер - ишчи машинанинг номи туради. Номда ҳар қандай сонли доменли бўлиши мумкин, аммо 5 дан юқориси кам учрайди.

Масалан:

ux.cso.uiuc.edu

nic.ddn.mil

yoodyne.com

ИНТЕРНЕТДАГИ МАВЗУЛИ ДОМЕНЛАР

Домен	Мавзу белгиси
com	Тижорат корхоналари
edu	Ўқув муассасаси(масалан Университет)
gov	Ноҳарбий ҳукумат муассасаси
mil	Ҳарбий муассасалар
net	Тармоқ ташкилотлар

org - - - - - Бошқа ташкилотлар

Интернетдаги географик доменлар

Домен	Мамлакатлар
au	Австралия
ca	Канада
de	Германия
fr	Франция
jp	Япония
it	Италия
ru	Россия
uk	Буюк Британия
us	АКШ
uz	Ўзбекистон

Интернетда доменли адреслашни куйдаги схема бўйича ташкил этиш мумкин:

1 - схема. Protocol ,organisation.domain

Мисоллар: www.microsoft.com.domain

2 - схема.department.organisation.domain

Мисол: os.msu.su

3 - схема.name.domain

Мисоллар:gnn.com,weblis.ru

4 - схема. User host

Мисол:avt cs.msu.su

Интернетдаги асосий протоколлар ва уларнинг қўлланиши Интернет орқали такдим этиладиган барча хизматлар стандарт протоколлар орқали амалга оширилади ва фойдаланадиган компьютерга боғлиқ эмас. Протоколлар технологиялар ўртасидаги мантикий кўприк бўлиб, «Кому»никациянинг кўплаб элеменларни бошқаради. Интернет протоколлар ҳақидаги ахборотни RFC(Request For Comment)да топиш мумкин. RFC бу файл кўринишда такдим этилган Интернет хужжатлардир.

Тармокнинг, протоколнинг техник муфассаллигига берилмай олдида қўйилган вазифани бажариш учун фойдаланувчига илова кўмак беради. Илова - бу амалий ва дастурий таъминот. Интернетнинг нисбатан кенг оммалашган тўплами (мажмуи) мавжуд.

Электрон почта(e-mail), олисдан туриб кириш, файлларни узатиш WWW ва хоказо. Деярли ҳамма амалий дастурий таъминоти Интернет "клиент - сервер" схемаси бўйича ишлайди. Фойдаланувчи компьютерда "дастур - клиент" технологиясида ишлайди. У сервердан хизмат ҳақида, сервер эса сўралган хизмат бўйича ҳаракат килади. Клиент ва серверлар "ўзаро тилда" - протокол орқали гаплашади.

Электрон почта (E-mail) Интернет такдим этадиган машхур оммабоп хизмат тури ҳисобланади. Унинг хусусияти шундаки, электрон почта маълумотларни компьютер орқали жўнатади ва қабул килади. Почта билан ишлаш учун(ўқиш, сақлаш, янги электрон почта жўнатмаси) сиз клиент дастурини киритасиз. сизнинг хост компьютерингиз сервер - почта ролини бажаради.

Айни бир сервер тури учун сиз турли хил клиентлардан фойдаланишингиз мумкин.

Маълумотларни электрон почта орқали жўнатишда Интернет компьютерлари ўртасида TCP/IP нинг бир қисми ҳисобланган SMTP протоколидан(Simple Mail Transfer Protocol) фойдаланилади. Хабарлар папкасига киришга руҳсат олиш учун олислашган компьютерларда IMAP (Internet Message Access Protocol) фойдаланилади. Одатда e-mail хабарлари фақат матндан иборат бўлади, лекин у иккилик - файл, график тасвирини,

шунингдек, аудио ва видео файлни киритиш мумкин. Бунинг учун клиент ҳам, сервер ҳам MIME (Multipurpose Internet Mail Extension - Интернетнинг кўп мақсадли почта кенгайиши) билан ишлай олиши керак. MIME стандарти Интернетга маълумотларни узатишни таъминлай олиши учун ишлаб чиқилган. Бу маълумотлар соф матндан ташкари маълумотларнинг иккилик тизимини ўз ичига олади.

Ҳозирги электрон почтанинг кўплаб дастур клиентлари мавжуд. (E-mail адрес). Интернетдаги почта манзилгоҳи бир-биридан @ (амперсанд) белгиси билан ажратилган иккита қисмдан иборат бўлади, @ гача турган почта манзилгоҳи - бу почта қисмини билдиради, @ дан кейингиси эса - хост-компьютер манзилгоҳидир.

Электрон почта манзилгоҳи шакли қуйдаги кўринишда бўлади.

@ манзилгоҳ, хост компьютердан фойдаланувчи номи.

масалан:

johnb@yooyodyn.com

petrova@cs.msu.ru

Интернетда маршрутловчи фақат @ белгисидан ўнгда турадиган команда каторини ишлаб чиқди. Фойдаланувчи номини компьютерни ўзи ўқийди.

Кўплаб тезкор мунозараларда қатнашиш почта жўнатмасининг электрон руйхатини ташкил қилиш имконини беради. Фикрлар алмашинуви шаклининг бундай қоидаси электрон почтани турли мавзулар бўйича йиғиш ва тарқатишги асосланган. Шу мақсадда жўнатма руйхати (mailing lists) аниқ мавзу қизиқтирадиган ва у ҳақида почта олишни хоҳлаган кишилар руйхатидир. Электрон почта гуруҳининг мавзуи кенг ёки тор бўлиши мумкин. Мавзу бўйича мазкур руйхатга мос келувчи барча маълумотлар иштирокчилар ўртасида тарқалади. Агар келадиган маълумотларга шарҳ ёки жавоб ёзиладиган бўлса, бу жавоб ҳам руйхат бўйича иштирокчиларга тарқатилади.

Электрон почта гуруҳи бошқариладиган ёки бошқарилмайдиган бўлиши мумкин.

Бошқариладиган гуруҳнинг маълумот жўнатувчи маъмури бўлади. У ўз компьютеридаги ресурсларни муҳокама иштирокчиларига такдим қилади. У келадиган хабарларни қайта ишлайди, ҳар бир хабарни кўриб чиқади ва мавзуга тегишли бўлсагина жўнатади.

Бошқарилмайдиган гуруҳ аҳзолари (бундай гуруҳлар кенг тарқалган) мазкур адрес руйхати бўйича ҳамма маълумотларни олади. Жўнатма руйхатнинг дастурий таъминоти ичида LISTSERV ва Majordomo дастурлари нисбатан кенг тарқалган. Бу дастурлар жўнатмаларни руйхатга кўчириш, ўчириш учун эски маълумотлар ичида берилган ахборотларни қидириш, стандарт файлларга ўзгартиришлар жўнатиш учун фойдаланилади. Масалан, LISTSERV да барча руйхатлар Listserv хизмат номига эга. Сиз ўз сўровингизни Listserv @bitnic.bit.net (АҚШ) ёки Listserv@Listserv.net (Европа) манзилгоҳи бўйича жўнатишингиз мумкин. Net happening жўнатмаси Internet да руй бераётган барча воқеалардан хабардор бўлиш имконини беради. Обуна бўлиш учун куйидагича хат жўнатиш лозим:

Манзилгоҳ Listserv@is.Internic.net

Мазмуни: SUBSCRIBE NET - HAPPENINGS

3 Янгиликлар ва телеконференциялар бўлимларини ўқиш.

UseNet - барча мавзулар буйча умумий хабарлар билан алмашиш имконини берувчи компьютерлар жумласидир. Бу хабарлар электрон почтани дастурий таъминотидан факланувчи махсус дастурий таъминот орқали узатилади. UseNet хабарлар хат (article) деб юритилади. Хатлар янгиликлар гуруҳи (news groups) ёки телеконференция гуруҳларига мавзу бўйича гуруҳланади. Хат ва янгиликлар гуруҳининг жумласи янгиликлар (news) деб юритилади. Ҳар бир UseNet компьютерлар хат маълумотлари баъзасини суяб туради ва хат қўшни компьютерлар билан алмашиш орқали янгиланади. Маълумотлар базаси фойдаланувчиларга ёзиб юбориладиган мақолалардан иборат. Янгиликлар гуруҳи жўнатма руйхатидан фокланмайди. Лекин мақолалар ҳаммага жўнатилмайди, фақат уни ўқий оладиганларгагина юборилади.

Ҳозир 2000 дан ортиқ янгиликлар гурухи мавжуд. Улар барча қисмдаги янгиликларни (компьютер техникаси, фанинг турли соҳалари, сиёсат, дам олиш мавзуси ва ҳоказони) қамраб олади.

Телеконференция категория ва категория бўлимлари иерархик усулда ташкил этилган. Бу керакли телеконференцияни топишга ёрдам беради. Расмий иерархияда 7 та асосий категория (иерархиянинг юқори даражаси) мавжуд.

Категория	Мавзу
comp	Компьютерлар
misc	Турли хил маълумотлар
news	Янгиликлар (UseNet тизими ҳақида)
rec	Дам олиш (муסיқа, спорт ўйинлари)
soc	Жамият ҳақида
sci	Табиий фанлар
talk	Мунозара ва муҳокамалар

Бошқа бўлимлар ҳам мавжуд. Янгиликлар гуруҳининг номи одатда нукта билан ажратилган иккита ёки ундан ортиқ бўлимдан иборат бўлади. Номлар чапдани ўнга қараб ўқилади. Биринчи қисм (энг чапдаги) ном янгиликларнинг мазкур гуруҳига мансуб бўлган иерархиянинг юқори даражасини акс эттиради: Comp.sys.os.msWindows - Microsoft Windows операцион тизимига бағишланган телеконференция.

News answers - Жўнатманинг кенг рўйхати шу орқали Интернетга обуна бўлиш мумкин.

Res.collecting - Коллекционерлар учун телеконференция.

Sci physics - Физика бўйича телеконференция.

Alt.cooking-chat - Қандолатчилик бўйича телеконференция.

Usenet DejaNews хабарлари билан ишлаш учун NNTP (NetNews transfer protocol - Интернет янгиликларини узатиш протоколи)дан фойдаланилади.

Ҳозир телеконференциялар билан график муҳитда(Microsoft Widows,X Microsoft Windows System) ишлаш дастури мавжуд шу билан бирга Netscape ва Microsoft Netshow дастури анча танилди. Сизни қизиқтирувчи телеконференция бўлимини қидириш учун <http://www.dejanews.com> манзилгоҳи бўйича UseNet DejaNews дан қидириш тизими хизматидан фойдаланиш қулай. Бунинг бошқа йули ҳам бор:

- Web браузерга Москвадаги Иктисодий ривожланиш халқаро банкини сайти манзилгоҳи (<http://www.edimo.ru/>) саҳифасини юклаш.

- " Сичқон " билан " Умумий ахборот " бўлимига кириш;

- " Умумий ахборот " бўлимида "Интернетда ахборотни излаш тизими" рўйхатига мурожат қилиш;

- "Интернетда ахборотни излаш тизими" бўлимида "UseNet - бўйича қидириш тизими" бандига мурожат қилиш;

INTERNETДА ТУРЛИ ДАСТУРЛАР БИЛАН ИШЛАШ.

1.Ping, Telnet ва FTP билан ишлаш.

Ping дастури Интернетда бошқа компьютерлар билан боғланиш мумкинлигини текшириш учун мўлжалланган. У қисқача хабар жўнатади, унга бошқа компьютер автоматик равишда жавоб беради. Агар сиз Ping ёрдамида бошқа компьютер билан боғлана олмасангиз, демак буни умуман амалга ошира олмайсиз. Уланишни текшириш учун алоқа қилишни истаган post компьютер номини киритиш ва Ping командасини бериш ("сичқон "орқали Ping тугмасини босинг) кифоя қилади. Бунга жавобан алоқа боғлаш мумкинлиги ҳақида ахборот келади.

Telnet бу терминалнинг эмулция протоколдир. У орқали Интернетга олисдан туриб кириш мумкин. Терминал эмулцияси - бу бошқа компьютерларга киришни таъминловчи иш режими. Бу ҳолатда бошқа компьютер билан унинг терминали сифатида мулоқатда бўласиз. Кўпчилик холларда DEC фирмаси томонидан ишлаб чиқилган ва

UNIX операцион тизимида терминал эмуляция учун мўлжалланган vt100 термунал эмуляция устидан фойдаланилади.

Unix операцион тизимида файлларни бошқариш DOS OT операцион тизимидаги каби ўша каталоглар тизилмасига асосланган.

Олисан туриб ишлаш сеансини бошлаш учун Telnet (UNIX) командасини бериш ва сиз ишлашни хоҳлаган машина номини кўрсатиш лозим. Telnet host domain

Масалан:

Telnet well.cf.ca.us

Бу командага нисбатан олисдаги компьютер сўзини рўйхатга олинган номингизни (login) ва паролни суради. Чунки telnet алоқани ўрнатиш учун сиз ушбу олислашган компьютерда рўйхатга олинган бўлишингиз керак. Агар сиз telnet команда қаторида туриб telnetнинг барча командалари ҳақида маълумот олишни истасангиз клавиатура билан сўров(?) аломатини киритинг.

Telnet дастурини киритган компьютер локал ҳисобланади ва ўз ўрнида алоқа ўрнатадиган компьютер - олислашган компьютер ҳисобланади.

Telnet мақсадга мувофиқ фойдаланиладиган ҳолатлар:

- Сиз бир қатор компьютерларда рўйхатга олингансиз ва баъзи ишларни бажаришингиз керак(дастурни киритиш учун сизнинг компьютерингизда ресурс етишмайди, нисбатан кучли компьютерга киришга рухсат олиш керак. Бошқа компьютерда сақланган маълумотга эга файл бор ва ушбу маълумотлар билан ишлаш учун дастурни киритмокчисиз);

- Сиз Интернет тизимининг "клиент - сервер" иловасидан фойдаланмокчисиз, лекин сизнинг машинангизга керакли "клиент - дастур" киритилмаган;

- Бошқа компьютерда жойлашган локал дастурга киришга рухсат олишингиз шарт;

Локал дастурнинг учта тури мавжуд

- Маълум мавзу бўйича файлга киришни таъминловчи эълонлар тахтаси;

- Маълумотлар базаси

- Меню тизими ёрдамида файлларга қулай киришни таъминловчи дастурлар;

Telnet базасида hytelnet ишлаб чиқилган. Hytelnet telnet ёрдамида очикдан - очик уланиш имконини берувчи тизимлар ва кутубхоналарнинг гиперматнли рўйхатида қайд этиш учун компьютерлар танлаш имконини беради. Hytelnet ни ишга солиш учун Hytelnet командаси берилади.

Менюда танлаш учун юқори киритиш клавишлари ва ENTER клавишидан фойдаланилади. Фойдаланувчининг Hytelnet маълумотлар базасида сақланадиган идентификатори ва пароли дастур билан афтоматик равишда киритилади. Web Hytelnet тахминича <http://library.usask.ca/hytelnet> манзилгоҳи бўйича киритиш имконини беради.

FTP (file transfer protocol - файлларни узатиш протоколи) - бу бир хост - компьютеридан бошқасига нусха олиш имконини берувчи FTP протокол ва дастурнинг жамламаси бўлиб, Интернетнинг илк хизмат турларидан бири саналади.

FTP имкониятлари:

- олисдаги машинадан файлларни қидириш;

- файлларда маълумотларни жўнатиш(ҳам иккилик, ҳам матнли маълумотларни);

FTP серверларда қатта ҳажмдаги файл архивлари сақланади.

Ҳозир Интернетда FTP - сервернинг уч хил тури мавжуд:

- Internet - style (сервернинг барча файлларига кириш);

- Listserver (чекланган кириш);

- FTPmail (электрон почта орқали кириш);

Баъзи ўринларда ftp telnetга ухшаб кетади. FTP ишлаши учун олисдаги машинага киришга рухсат бўлиши зарур (фойдаланувчининг мантқиқий номи ва паролни билиш лозим). Кўпгина тугунларда аноним FTP усули қабул қилинган. Бунда мантқиқий ном сифатида anonymous сифатида рўйхатга олинсангиз, олислашган тизим файлларининг чекланган тўпламига киришга рухсат берилади.

- FTP ёрдамида файллардан нусха олиш қуйдагича амалга оширилади:
- FTP конадаси ёрдами билан
- WinSock стандарти FTP - дастури ёрдамида.
- Web - браузер ёрдамида

Кўпгина Web - браузерлар аноними FTPни амалга ошириши мумкин, лекин фақат файлларни компютерингизга ёзиш учун фойдаланилади. Freeware (бепул дастурий таъминот) - бу дастурий таъминот тарқатиш ва фойдаланиш учун такдим этилади. Унинг Sharewareдан фарқи шундаки, Shareware бепул тарқатилиши мумкин, лекин бир қанча танишув давридан сўнг ҳақ тўлаш лозим.

2.Arcie ва Gopher билан ишлаш.

Интернет орқали кириш бўлган дастурлардан ўз компютерингизга нусха кўчиришингиз мумкин. Бунда керакли дастурни қидириш лозим бўлади. Archie номи бўйича FTP серверда файлни қидиради ва қидирилаётган файлни ўз ичга олган серверлар руйхатини чиқаради. Шундан сунг FTP ёрдамида керакли файллар ўз компютерингизга юборишингиз мумкин. Archie доимо Интернетни скайнерлайди ва унинг маълумотлар базаси тўхтовсиз янгиланади. Агар сиз файлни аниқ номини билмасангиз Archie ёрдамида қалит сўз бўйича файлни қидириш мумкин. Archie маълумотлар базаси кўпгина университетлар ва тармоқ ташкилотлар томонидан қўллаб қуватланади.

Archie маълумотлар базасига киришга рухсатни қуйдаги усулда олиш мумкин:

- сизнинг хост - компютерингиз орқали компютерингизга ўрнатилган Archie клиент дастури ёрдамида:
- электрон почта орқали;
- Telnet орқали Archie сервер билан компютерга уланиш;

Керакли файлни қидириш учун FTP - search қидирув тизими хизматидан фойдаланиш мумкин. Бу тизим барча доменлар бўйича ёки сиз буюрган домен буйлаб файлни тезкор усулда қидиради, ташкил этиш вақти, мамлакатлар ва бошқа белгилар бўйича танланган файлларни хилларга ажратади. Сиз /http://ftpsearch.ntnu.no/ манзилгоҳи бўйича мазкур қидирув билан боғланишингиз мумкин.

FTP Search - FTP архивида файлларни қидирувчи энг яхши машина ва у Тронхейм(Норвегия)да жойлашган. FTP Search - кўрсатилган ёки барча доменлар бўйича тезкор қидирувни амалга оширади, яратиш вақтида натижалари, мамлакатлар ва бошқа белгилар бўйича уни хилларга ажратади. Маълумотлар базаси 4,650 FTP Sites, 5млн. Директория ва 65 млн дан ортиқ 135 MB ҳажмдаги файллар номини ўз ичига олади, ҳар ҳафтада янгиланади.

Gopher қулай шаклда Internet такдим этадиган барча хизматлардан фойдаланиш имконини беради. Gopher серверларидан бирига уланиб, у билан ишлаш мумкин. Одатда ҳар бир Gopher - сервер маълум мавзуга: кишлок хужалаги, иктисод конунчилиги ва хоказоларга багишланган.

Gopher меню тизимидан фойдаланган ҳолда сизга керакли сервер билан боғланиш мумкин. Маълумотлар архиви билан ишлашни осонлаштириш учун Gopherда Veronica (Very Easy Rodent Oriyantal Netwide Index to Computerzed Archives-компютер архивининг ўта оддий тармоқ кўрсаткичи) дастури мавжуд. Ушбу дастур ёрдамида сиз қалит сўзлар бўйича Gopherнинг ҳар қандай серверида керакли маълумотларни қидириб топишингиз мумкин.

INTERNETДА МАНЗИЛГОҲЛАШ УСЛУБИЁТИ

1. World Wide Web да ишлаш

World Wide Web (WWW) - мултимедиа асосида глобал гиперматн ахборот тизимидир, у қуйидагиларни амалга оширади:

- Ахборотлар махсус дастурий таъминот жойлашган Интернетга бирлашган WWW - серверларида сақланади;
- Ахборот ўз ичига матнни, графикни, видео ва овозни олиши мумкин;

- Интернетдан фойдаланувчилар ушбу ахборотни Web-броўзерлар "дастур-клиентлар" ёрдамида олиш мумкин (Web-хужжатларни кўриб чиқиш дастури);
- WWWда ахборотлар хужжатлар шаклида тақдим этилган. Уларнинг ҳар бири гипер алоқа (hyperlinks)-жўнатмани ўз ичига олиши мумкин;
- WWWда гиперматнли хужжатларни яратиш учун HTML(Hyper Text Markup Language-ўлчаш ва гиперматн тили)дан фойдаланилади:
- WWWда "клиент - сервер"ларнинг ўзаро ҳаракати HTTP (Hyter Text Transmissn Protocol - гиперматнни узатиш) протоколи асосида амалга оширилади. Бунда бошқа иловалардан фарқли равишда бутун иш давомида иккита пункт оралиғида алоқа ўрнатилмайди, клиентнинг сўровига нисбатан сервернинг ҳар бир жавобидан сунг алоқа тухтатиб олинади;
- HTML-хужжатлар шаклидаги тармоқ ресурслари URL (Uniform Resource Locator - ресурсларнинг унификацияланган локаторлари) ёрдамида индентификацияланади. URL керакли ресурсларнинг каерда жойлашганлигини аниқлайди.

HTTP серверидан хужжатларни сураш учун қуйидагича схемадан фойдаланилади:

http:// сервер адреси: {порт номери}/директория_номи/файл номи.

Web тизими шуниси билан яхшики, Интернетнинг бошқа сервери World Wide Web сервери бўлиши шарт эмас. HTML ftp ёки Gopher буйича янгиликлар (UseNet) гуруҳидан олиниши мумкин бўлган хужжатлар билан алоқа ўрнатиш имконини беради. У telnet ва электрон почта адреслари билан алоқа ўрната олади.

2. Internet ресурсларининг манзилгоҳлаш услубиёти

HTTP схемаси (гиперматн билан ишлаш схемаси)

Типик манзилгоҳ қуйидаги кўринишга эга бўлади:

Протокол://сервер_манзилгоҳи:{порт номери }/директория номи/файл номи.

Масалан: HTTP://WWW.edimo.ru/ea/growth.html

FTP схемаси (файллар архиви билан ишлаш схемаси)

Типик манзилгоҳ қуйидаги кўринишга эга:

Протокол://{протокол}@сервер_манзилгоҳи: {порт номери} / директория номи/файл номи

Масалан: FTP: //FTP.msu.edu

Gopher схемаси (тақсимланган Gopher ахборот тизими ресурсларига таяниш учун схема).

Типик манзилгоҳ қуйидагича кўринишга эга:

протокол://сервер_манзилгоҳи:{порт_номери}/директория_номер/файл_номи.

Масалан: gopher://sunsite.une.edu

MAILTO схемаси (почтани жўнатиш учун схема)

Масалан:mailto: vmedvedev@woldbank.org

NNTP схемаси(Usener тизими хабарларини кўриб чиқиш учун схема)

Масалан: nntp://comp.infosystems.gopher/086

TELNET схемаси (олислашган терминал режимдаги ресурсларга кириш)

Масалан: telnet://marvel.loc.gov

WAIS схемаси (тақсимланган ахборот - қидирув тизими)

Масалан: wais//quake.think.com/pub/wais/bibliografhy.txt

FILE схемаси (локол режимда www технологиясидан фойдаланиш)

Масалан: file:///c:/Internet/html/index.htm

3. WWW билан ишлаш.

Браузерлар (клиент - дастурлар) www - серверларида сақланувчи www хужжатларни кўриб чиқиш махсус дастури. Бу дастурлар серверлар билан ўзаро ҳаракатланади ва экранга WWW хужжатларни чиқаради.

WWW хужжатлар HTML (hyper Text Markup Language) - гиперматнли ўлчам тили ёрдамида яратилади.


Internet Explorer 3.02 va Netscape Navigator 3.01 энг оммалашган (унинг бош ойнасини юкорида кўрганмиз).

Энг яхши ва энг оммалашган браузер деган ном учун кўраш шунга олиб келадики, дастурий махсулот ишлаб чиқарувчилар ҳар доим ҳам мос келиш масалаларига етарли этибор бермайди. Натижада кодлар Internet Explorer 3.02 ва Netscape Navigator

ИНТЕРНЕТГА УЛАНИШ

INTERNET EXPLORER dasturi bilan tanishish

Internetda ishlash uchun bizga maxsus dasturlar «internet yulovchilari» yordam berishadi. Uni ishga tushirish uchun biz Pusk menyusiga kirib Programмы bulimni tanlaymiz va shu bulimda Internet Explorer dasturni tanlaymiz.



Xar bir programma oynasiga uxshab bu programma xam uzining menyusi va yordamchi tugmalariga ega. Programmada ishlash uchun biz ularni xar bittasini bilishimiz shart. Oynaning eng yukorisida menyu satri joylashgan. Bu programmani ishlash xolatlarini tugri urnatish uchun biz menyudan foydalanamiz. Kuyida biz shu menyuning xar bir bulimini aloxida kurib chikamiz.

Menyu Fayl

Sozdat - Yangi oynani ochish

Otkryt okno - Yangi yoki saklangan saytni shu oynada ochish

Redaktirovat - Saytni taxrirlash

Soxranit kak - Saytni kattik diskga saklash

Parametry stranisi - Sayt varakasining xususiyatlarini uzgartirish

Pechat - Bosmaga chikarish

Otpavit - Saytni junatish

Eksport import -

Svoystva - Sayt xususiyatlarini kurish

Rabotat avtonomno - Telefon orkali ulanmasdan ishlash

Zakryt - Berkitish

Menyu Pravka

Vырезat - Xotiraga ko`chirib olish

Kopirovat - Xotiraga nusxani olish

Vstavit - Xotiradan chikarish

Vыdelit vsyo - Butun saytni guruxga tanlash

Nayti - Kidirish

Menyu Vid

Panel instrumentov - Yordamchi kurollarni urnatish

Stroka sostoyaniya - Ma`lumotlar satrini urnatish

Panel obozrevatelya - Obozrevatel kurollarini urnatish

Perxod - Saytga utish

Ostanovit - Tuxtatish

Obnovit - Yangilatish

Razmer shrifta - Xarflar shriftini uzgartirish

Vid kodirovki - Kodlarni uzgartirish

Vid HTML - HTML kurinishda kursatish

Vo ves ekran - Tulik ekran kurish

Menyu Izbrannoye

Dobavit v izbrannoye - Yashxi kurgan saytlar ruyxatiga kushish

Uporyadochit izbrannoye - Yaxshi kurgan saytlar ruyxatini tartiblash

Menyu Servis

Pochta novosti - Pochta bilan ishlash


Sinxronizirovat - Oynani qayta tekshirib yangilangan soxalarni uzgartirish

Windows Update - Windows ni versiyasini INTERNET orkali yangilatish

Pokazat svyaznyye ssylki - Xamma giperyullanmalarni kursatish

Svoystva obozrevatelya - Obshiy bulimida – boshlovchi saytni urnatish, vremennyy fayllarni yoki kirilgan saytlarni ruyxatini saklash, ekran ranglari tilli shrifti va xar xil boshka xolatlarni urnatish. Programma bulimida – pochta va telekonferensiyalar bilan ishladigan programmalarini urnatish. Soyedeneniye bulimida – ulanish vaziyat xolatlarini uzgartirish. Bezopastnost bulimida – viruslarda saklanish. Soderjaniye bulimida - bir xil saytlarga kirishni takidlash, ma`lumotlar tugrilikni urnatish. Dopolnitelno bulimida – Explorer programmani xususiyatlarini urnatish (kaysi obyektarni yuklash va yuklamasligini)

Menyu satri tagida yerdamchi tugmalar satri jolashgan. Bu satrdagi tugmalar yerdamida biz xar xil amallarni tezkor bajarishimiz mumkin. Shu tugmalari bilan xam yakinrok tanishaylik.



1. **Назад** - Bir saxifa orkaga yoki eski saytlarga qaytish

2. **Вперед** - Bir saxifa oldingi yoki yangi saytlarga utish

3. **Остановить** - Yuklanishni tuxtatish

4. **Обновить** - Yuklanishni qayta boshlash

5. **Домой** - Boshlovchi (uy) saytga utish



1. **Поиск** - Internetda saytni kidirish

2. **Избранное** - Yaxshi kurgan saytlarni ruyxatini kurish

3. **Журнал** - Kirilgan saytlar ruyxatini kurish

4. **Во весь экран** - Tulik ekran kurinishga utish

5. **Почта** - Pochta bilan ishlash

6. **Размер** - Ekran shriftlarini uzgartirish

7. **Печать** - Bosmaga chikarish

8. **Правка** - Saytni taxrirlash

Yerdamchi tugmalar satri tagida ADRES satri joylashgan. Bu satrda biz kerakli Web-sayt adresini yezib ENTER tugmasini bosamiz va shu vakt kompyuterimiz shu adresga tegishli Web-saxifani bizning ekranimizda chikaradi.

Masalan:

NETWARE тармоқ операцион тизимининг ядроси файл-серверда жойлашган бўлади. Тармоқ утилити эса файл-сервер хотирасида бўлади, аммо ишчи станцияларда юборилади. Ниҳоят, ишчи станцияларнинг тармоқ қобиғи компьютер тармоғининг ишчи станцияларига юкланади ва фаолият кўрсатади. NETWARE операцион тизими мултивазифали (кўп вазифали) операцион тармоқни ифодалайди. У марказлашган бошқарувчи локал тармоқда ишлашга мўлжалланган. NETWAREда бир ёки бир неча файл-серверлар тармоғида ишлаш имконияти мавжуд. Ривожланиш жараёнида бир қанча тахминлар ишлаб чиқилган.

NatWare 2.x (NatWare P1) P2 марказий процессор серверларида ишлашга мўлжалланган.

Бундай тахмин билан серверлар 100 тагача ишчи станцияларига хизмат кўрсата олади. 225 Мбайтгача дискли том яратиш ва 32 дисккача серверга узатиш мумкин. NatWare 2.x иш учун ўзининг тармоқлараро пакетлар алмашиву протолидан фойдаланади. Бу бошқа тармоқлар билан ўзаро таъсир имкониятини инкор этади. Тармоқ конфигурациясига озгина ўзгартириш киритиш учун серверни тўхтатиш ва махсус дастурни юбориш керак эди. NatWare 2.2 нинг охириги тахминий варианты ҳозирда чиқарилмайди.

NatWare 3.x (NatWare P4) P3, P4 марказий процессори серверларда ва Pentium билан ишлашга мўлжалланган. Бундай тахминли серверлар 250 тагача ишчи станцияларига хизмат кўрсатиши мумкин. Битта серверда 64 томгача жойлаштириш мумкин. Битта томга 32тагача дискни бирлаштиради бўлади. Шу боис том ҳажмини 32 Тбайтгача етказиш имконияти мавжуд. NatWare 3.x бир хил коммуникацияли протоколлар билан ишлашга мўлжалланган. Шунинг учун у билан таъминланган серверларни турли тармоқларга улаш мумкин.

Бу тахмин билан кўллаб - кувватландиган ишчи станцияларида UNIX ва Macintosh операцион тизимларидан фойдаланиш мумкин.

NatWare 3.x- NatWare 3.11-тахминлар варианты Novell фирмасининг анча машхур тармоқ махсулоти ҳисобланади.

NatWare 3.x операцион тизимининг ривожлантиришнинг кейинги босқичи NatWare 3.12 тахмини бўлади. Унда утилитларни бошқарувчи тармоқ драйверлар тўплами кенгайтирилган, электрон почта воситалари қўшилган ва компакт -дискларда (CD-ROM) ишлаш имконияти мавжуд.

NatWare 4.x - NatWare операцион тизими оиласига мансуб охириги тахмин. У ҳам бундан олдинги тахмин каби тамойилларга асосланган ва P3, P4 марказий процессор серверларда ҳамда Pentiumда ишлаш учун мўлжалланган.

NatWare 4.1 вариантыда илгариги версияларда мавжуд барча имкониятлар бор, уларни анча кенгайтиради ҳам.

NatWare 4.1 тармоқ операцион тизими MS DOS, Windows, OS/2, Unix ва Macintosh операцион тизимидан 1000 тагача ишчи станцияларни қўшиш имкониятига эга.

Битта тармоқда бир неча серверлар билан ишлаш кўриб чиқилди. NatWare 4.1 бошқа тахминлардан яна шуниси билан фарқ қиладики, у ҳеч бўлмаса битта серверда руйхатга олингандан барча ресурсларга кириш имконини беради. Тамойил жихатдан тармоқ химояси янги восита саналади. Тармоқ "клиент-сервер" технологияси бўйича амалга оширилади. Бу тақсимландиган барча ресурслар марказлашган холда файлга - сервер орқали бошқарилишини англатади. Ресурсларга фақат серверда тармоқ орқали трансляцияси килинган сўров орқали кириш мумкин.

ГЛОБАЛ КОМПЬЮТЕР ТАРМОҚЛАРИ.

1. Глобал компьютер тармоқларининг тижоратда қўлланилиши.

Ахборот технологиялари ва замонавий техника билан ўзаро алмашиш эҳтиёжи глобал компьютер тармоқларини мамлакатлараро ҳамкорлик дастурини амалга оширишнинг ажралмас қисми қилиб куйди. Илмий ва маърифий мақсадлари ва бизнес учун кўплаб компьютер тармоқлари ташкил этилган. Кўплаб тармоқ ларни бирлаштира

олувчи ва дунё ҳамжамиятига кириш имконини берувчи тармоқ бу - Internet. Internet фойдаланувчига чексиз ахборот ресурсларини такдим этади. Ушбу ресурсларга кириш учун мос келувчи амалий дастурий таъминотдан фойдаланиш керак. Дустона график интерфейс Internet хизматидан ҳар бир кишининг фойдалана олиши учун имконият яратади. Бундай дастурларнинг кўпи фойдаланувчи учун қулай бўлган Windows OT муҳитида ишлайди. График интерфейсли дастурлар муҳим хусусиятга эга: улар фойдаланувчидан барча тизимли архитектурани бекитади ва ҳар қандай компьютер платформасида сақланадиган маълумотлар билан ишлаш имконини беради.

2 Мустақил давлатлар ҳамдўстлиги ахборот ва молиявий телекоммуникация тармоқлари.

Замонавий ахборот технологисига эга ҳисоблаш технологиясидан ва электрон узатиш тизимидан фойдаланмай туриб замон талабига жавоб берувчи молиявий муассаларни ташкил этиш мумкин эмас. Шу боис, бундай муассалар ҳам дастурли-аппарат комплекси сифатида, ҳам электрон шаклда ахборот узатилишининг коммуникация воситаси сифатида энг йирик истемолчилар ҳисобланади. Ташкилотларнинг алоҳида автоматлаштирилган комплексларини боғловчи глобал тармоқлар миллий ва халқаро даражада ҳисоб-китоблар ўтказиш имконини беради. МДХда янги тижорат тармоқларини оммавий равишда барапо этиш 1991 йилдан бошланди ва доимий давом этиб келмоқда. Тармоқ хизматидаги кирадиган ҳудуд жадаллик билан кенгаймоқда, такдим этиладиган сервис даражаси ва сифати ўсмоқда. Телекоммуникация хизматининг ривожланиши хўжалик ва тижорат Фаолиятини ҳаракатлантиришнинг, иктисодий ривожланишнинг муҳим шартларидан биридир. Фаол маркетинг ва техник сиёсатни олиб борувчи айрим тармоқларни шарҳлаб ўтамоғимиз.

Relcom тармоғи.

1990 йилда Атом энергияси институтининг ва бир қанча илмий тадқиқот институтлари (ИТИ), UNIX - компьютерлар тизимини ишлаб чиқувчи мутахассислар ва фойдаланувчиларни бирлаштирувчи унча катта бўлмаган тармоқ ташкил этилди. тез орада тармоқ 30дан ортиқ ташкилотни бирлаштирди ва Internetнинг - ғарбий Европадаги EUNET тармоғига уланди ҳамда руйхатга олинди.

Ҳозирда Relcom умумий мақсадларга мўлжалланган тармоқ сифатида ривожланмоқда. У илмий ва тижорат ташкилотларини, давлат идораларини ва муассасаларини бирлаштиради. Техник жihatдан Relcomни ўз мақсатида фойдаланувчилар ўртасида маълумотлар алмашишни таъминловчи ва зарур пайтда минтакавий алоқа тугунлари орқали бошқа районга маълумот узатувчи минтакавий тугунлар жумласи деб тасаввур этиш мумкин.

Relcom минтака ичида ва EUNET, Internet, BitNet абонент тармоқларида электрон почта хизматларини таъминлайди. Тармоқ Usenet телеконференцияларидан фойдаланиш имконини беради. Relcom орқали RELIS тижорат ахборот тизими билан ишлаш осон ва қулай. Бу тизим кундалик янгиликларни, дайжестларни. тахлилий шарҳлар ва бошқа кўпгина мавзуларда ахборотларни такдим эта олади.

SprintNet тармоғи.

SprintNet маълумотларни узатиш тармоғи бўлиб, ўнлаб мамлакатларнинг юзлаб шаҳарларига кириш тугунларига эга. SprintNet тармоғига кенг соҳадги маълумотларга эга мингта маълумот базаси уланган. SprintNet ахборотларни катта тезликда алмашиш имконини беради.

Гласнет тармоғи

Ошкоралик кучайган пайтда ташкил этилган ва уни ўз атамасига айлантирган (Гласостф-ошкоралик) Гласнет тармоғи 1990 йилдан бошлаб Россия аҳолисига ва МДХдаги бир қанча давлатлар учун жаҳон Internet компьютер тармоғига кириш хизматини таъминлайди. Хусусий клиентлар ва тармоқ хизматидан фойдаланувчи кичик бизнес вакилларига этибор бериш - Гласнетнинг ажралиб турувчи хусусияти саналади.

Sovam Teleport тармоғи.

Sovam Teleport Халқаро компьютер ахборот тармоғи San Francisco / Moscow Teleport (АҚШ), Cabl & Wireles (Буюк Британия) компаниялари ҳамда автоматлаштирилган тизимлар институти (Россия) томонидан 1990 йилда ташкил этилган. Тармоқ аввало жорий вақт режимида телекс ва телефакс халқаро ахборот алмашув учун мўлжалланган. Халқаро тармоққа чиқиш ижарадаги йулдан Ғарбий Европага алоқа қилиш каналлари орқали чиқилади.

БАНК ТАРМОҚЛАРИ

1. Банк тармоқлари ва банклараро ҳисоб-китоб тизими.

Хўжаликда тўловларнинг катта қисми нақд пулсиз ҳисоб-китоб шаклида амалга оширилади. Нақд пулсиз айланманинг катта аҳамияти иктисод учун кўплаб банклараро пул ўтказишни ўзаро ҳисобга олиш тизими ёки клиринг билан алмаштириш заруриятини келтириб чиқаради. Клирингни қўллашни нисбатан самарали соҳалари куйидагича: Марказий Банк тизимида банклараро ҳисоб-китоб, пул маблағларини ўзаро ўтказишни доимий такрорловчи иктисодий жихатдан бир-бирига боғлиқ корхоналарга хизмат кўрсатиш, бир хилда тезкор битимларни амалга ошириш. Келажакда акционерлик клиринг ва ҳисоб-китоб тузулмаларини ташкил этиш ва уларни жаҳон молия тизимига бирлаштириш - бу Марказий Банк сиёсатининг йўналишларидан бири ҳисобланади.

Энди турли мамлакатлардаги мавжуд клиринг тизimini кўриб чиқамиз.

2. Турли мамлакатларнинг давлат ичидаги банклараро тизими.

АҚШ банклари тулов хабарларини узатиш учун куйидаги асосий коммуникация тармоғидан фойдаланади:

FEDWARE - АҚШ федерал заира тизимининг коммуникация тизими;

BANKWARE - Хусусий банклар ва тижорат корхоналари эҳтиёжига хизмат килувчи коммуникация тизими;

CHIPS - ҳисоб-китоб палаталари учун банклараро тўлов тизими;

ЕВРОПА банкларида куйидаги тизимлар кенг қўлланилади:

CHAPS - Буюк Британия банклараро клиринг ҳисоб-китоблари тизими. У ўз ичига 200 та банк ва бир нечта ҳисоб-китоб марказларини олади;

BACS - клиринг тизими, Буюк Британия йирик ва майда корхоналарига тижорат усулида нақд пулсиз айланма қилишига хизмат килади.

SIT - Франция марказий банки кўмагида 15та йирик банклар асосида ташкил этилган тизим.

Лойиха мақсади - банклар, савдо ва саноат фирмаларини ягона ҳисоб комплексига барлаштиради. Бу комплекс маблағ ўтказиш ва банклараро ўзаро ҳисоб-китобни тезкор усулда амалга оширилади.

Халқаро банклар тармоғи доимий ушиб бормоқда. маълумотлар ва телекоммуникация хизматига нисбатан ортиб бораётган талабни кондириш учун халқаро тармоқ ташкил этилмоқда. У туловларни ўтказиш, активларни бошқариш ва маълумотлар билан таъминлаш бўйича комплекс хизмат кўрсатади. Улар ичида HEBS (Hexagon Electronic Banking System) каби машхур тармоқлар мавжуд. Лекин дунёда энг йирик молиявий хабарлар тармоғи SWIFT ҳисобланади. Бу тизимга кушилган ҳар қандай банк ўзини жаҳон молия уюшмасининг тулик аъзоси деб ҳисоблаши мумкин.

70-йиллар бошида ғарбий мамлакатлардаги йирик молиявий муассалар тезда ўшиб кетган халқаро тўлов хабарларини қайта ишлашни автоматлаштира бошлади. Тижорат телекоммуникация тармоқлари сони кўпайди. Уларнинг ҳар бири ўз шахсий форматлари, алоқа воситаларидан, маълумотларни қайта ишлаш тартибидан, қиришдан химоялаш усулларидадан фойдаланди.

1973 йил Европа ва Американинг 250та йирик банклари Халқаро Банклараро Молиявий телекоммуникация - SWIFT(Society for Woldwide Interbank Financial Telecommunication)га асос солдилар. Жамиятнинг вазифаси - ягона банк хабарлари

тизимини йулга солиш ва қўллаб-қувватлаш эди. У иштирокчиларга сутка давомида дунёнинг ҳар қандай нуктасига молиявий маълумотларга стандарт шаклда кириш имкони беради. SWIFT Халқаро тармоғи 1977 йилдан бошлаб фаолият кўрсата бошлади. Маълумотлар тармоқ бўйича стандартга мувофиқ структуралаштирилган маълумотлар кўринишида узатилади.

Банк хабарлари стандартларини яратиш ва қайта ишлашда SWIFT тизими фирма - мутахасисларигина эмас, шунингдек, Стандартлар бўйича Халқаро Кўмита, Халқаро Савдо палатаси(ICC) ҳам иштирок этади. Натижада банкларнинг молиявий ва тижорат операциялари ҳақидаги намунавий хабарлар стандартлари шлаб чиқилди. Уларнинг айримлари халқаро миқёсда тан олинди. Мисол сифатида банкларнинг идентификация кодлари - BIC кодларни келтириш мкин.

SWIFT тармоғи стандартларида узатиладиган маълумотларнинг категорияси, гуруҳ ва тиллари аниқ белгиланган. Хабарларни узатишдан ташқари тизим IFT (Interbank File Transfer) хизмати даражасида банклараро файллар билан алмашишни қўллаб - қувватлайди. стандартларни жаҳон банклари амалиётига киритиш SWIFTнинг энг асосий ютуқларидан бири. Бу нарса молиявий муассасаларга хужжатлар билан алмашиш ва низо ҳамда хатолардан қочиш имконини беради. Ҳозирда тармоқ асосини учта коммуникация станциялари ташкил этади. Улар Амстердамда (Голландия), Брюсселда(Белгия), Калпепереда(АҚШ) жойлашган. Бундан ташқари ўз мамлакатларидаги клиентларга хизмат кўрсатувчи регион станциялар мавжуд. Замонавий технология ва талаблар SWIFT тармоғини замонавийлашни мувофиқлаштиради. Натижада архитектураси тўртта даражадан иборат янги - SWIFT-II яратилди:

- абонентнинг кириш нуктаси ҳисобланмиш фойдаланувчининг терминаллари (SWIFT Based Terminal - SBT);

- минтакавий процессор (Regional Processor - RP). Унинг вазифаси хабарларни узатиш, протоколларни бошқариш, келувчи хабарлар тўғрилигини текшириш, абонентларга уларнинг маълумотларини қабул қилганлик ҳақида тасдиқни узатишдан иборат. RP абонентларни уларга берилган кодлар бўйича танийди;

- маршрутловчи (гуруҳли) процессор (Slice processor - SP) хабарларни маршрутларни бошқаради, барча маълумотлар ва хабарларни узатиш ҳақидаги хотирани сақлайди, тизимли хабарларни ишлаб чиқади, тизимга асосланган архивни олиб боради ва уларнинг электрон нусхасини махсус маълумотлар базасида сақлашни бошқаради;

- тизимни бошқариш процессори, фақат барча тизимни бошқариш ва назорат қилиш вазифасини бажаради. Тизимда асосий комплексда барча операцияларни такрорлаш учун захира процессори мўлжалланган.

SWIFT маълумотларни юқори даражада химоялашни таъминлайди. SWIFTнинг асосий талаби - терминалларни улаш тартибидир. Тизим ҳар бир фойдаланувчи учун индивидуал яширин код билан кайд этиш орқали тизимли хабарлар назоратини ташкил этиш асосида ҳар бир уланган терминални аниқлаши (таниши) керак. Бу хабар махсус қурилма ёрдамида шифрланади. Қурилмада модул бўлиб, у тасодифий сонлар генераторидан фойдаланган холда шифрловчи калитни ҳосил қилади.

Фойдаланувчига кейинги кайд қилиш учун янги код берилади. Бу - калитлар алмашиш тартиби деб юритилади. Терминал аниқланганлиги тасдиқлангандан сунг, у тармоқда кайд этилади. Барча кодлар ва калитлар SWIFT терминалига микропроцессор карта (МК) ёрдамида киритилади. МК ни хавфсизлик тизими (User Security Enhancement-USE) ишлаб чиқарди. Терминални тармоққа улаш тартибларидан бирортаси бузилган тақдирда (шовкин, линия узилиши аниқланса, узатишда хато аниқланса ёки хабар формати тизимга киритиш тартиби нотўғри бўлса ва хоказо) терминал автоматик равишда учади, махсус файлда бу хол кайд этилади. Шу орқали паст сифатли линия аниқланади.

Фойдаланувчининг имтиёзини фарқлаш воситаси ахборот хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора ҳисобланади. Бундан ташқари тизимда тез-тез тўхтаб қолишдан ҳимоялаш учун ахборотларни захира нусхалаб қўйиш ҳисобга олинган. SWIFT тизимининг барча имкониятларидан фойдаланиш учун махсус дастурий-аппаратли интерфейс мавжуд. Бугунги кунда SWIFT тармоғи учун терминал комплексларни таклиф этувчи 100 дан ортиқ фирма мавжуд. SWIFT терминал комплекслари учун платформа ишлаб чиқарувчилари ўртасида Digital Equipment (VAX ва Alpha тизими), IBM (PS/2, S370, RS/600), Hewlett Packard (Apollo 9000), Sun Microsystems (SPARC оиласига мансуб процессорли компьютерлар) каби компаниялар мавжуд. Бугунги кунда SWIFT терминал комплекслар бозорида Digital ва IBM нисбатан машҳур саналади. SWIFT да ишлатиладиган баъзи терминал комплекслар таърифи 6.1-жадвалда кўрсатилган.

Бугунги кунда SWIFT тизими банк операциялари, валюта ва пул бозори, қимматбаҳо қоғозлар савдоси, савдо операцияларига хизмат кўрсатиш, халқаро туловларни амалга ошириш каби муҳим молиявий фаолият соҳаларида маълумотлар тезкор алмашувини таъминлайди. Восита ва хизмат ҳақи юқори бўлишига қарамадан SWIFT тармоғи абонентлари сони кўпайиб бормоқда. Бу ҳол SWIFT жамиятига келгусида молия фаолиятининг бошқа соҳаларини камраб олган ҳолда тармоқни янада кенгайтириш имконини беради.

3. Қимматбаҳо қоғозлар билан операциялар ўтказиш учун компьютер тармоқлари.

Қимматбаҳо қоғозлар бозорини самарадорлиги кўп жihatдан унинг қанчалик компьютерлаштирилганлигига боғлиқ. Ҳозир жаҳон молия бозорида самарали ишлаш учун компьютерлар даражасини яхши эгаллаш зарур. Глобал тармоқ компьютер тармоғи SIT (Франция) ва Taugus (Лондон халқаро фонд биржаси) тизимларидан кенг қўлланилади.

Қимматбаҳо қоғозлар бозорини электрон усулида ташкил этишга ва бозор иштирокчиларининг ягона ахборот муҳитини қўллаб-қувватлашга кенг эътибор берилади. Ахборотларни оқимини мувофиқлаштириш ва тизимга солишга ихтисослашган ташкилотлар пайдо бўлмоқда. Масалан, АКШ қимматбаҳо қоғозлар бозорида қимматбаҳо қоғозлар индустриясини автоматлаштириш корпорацияси шундай ташкилотлардан саналади.

Қимматбаҳо қоғозлар олди-соттиси буюртмалар билан хабарлар форматини стандартлаш масалалари кўпинча халқаро даражада ҳал этилади. (Бу нарса айниқса турли хил миллий ва регионал компьютер тармоқлари орқали маълумотлар алмашувида муҳим).

Стандартлаш бўйича Халқаро Ташкилот томонидан қабул қилинган стандартлар мавжуд бўлиб улар қимматбаҳо қоғозларни олиш ва бориш ҳамда улар олди-соттисига эгаллик қилиш, қимматбаҳо қоғозларни кодлаш ва сертификатларни номерлаш ҳақида маълумотлар форматини белгилайди.

Умумий ҳолларда глобал тармоқ компьютерлар ва терминаллар уланган алоқа тармоқчасини улайди. Локал тармоққа бирлашган компьютерларни улашга рухсат берилади. Алоқа тармоқчаси маълумотларни узатиш канали ва коммуникация тугунларидан иборат. Клиент-фойдаланувчилар ишлайдиган компьютер ишчи станциялар деб юритилади. Фойдаланувчиларга тақдим этиладиган тармоқ ресурслари манбаи серверлар деб юритилади.

Серверлар тармоқ буйлаб ахборотларни тез узатиш учун, ахборотни узатишнинг макбул маршрутини танлаш учун, узатилаётган ахборотларни пакетлар коммуникацияси учун мўлжалланган.

Коммуникация тугуни - бу айрим аппарат қурилмаси ёки тегишли дастурий таъминот ёрдамида вазифаларни бажарувчи компьютердир. Бу тугунлар алоқа

тармоғининг ишлаш самарадорлигини таъминлайди. кўриб чиқилган тармоқ тугуни хисобланади ва глобал тармоқда қўллаанилади.

6.1-жадвал

ТЕРМИ-НАЛ комплекс номланиши	Платформа	Операцион тизим	Тезкор хотира қурилмаси	Самарадорлик (қунига жўнатилган хабарлар сони)	Нархи(лицензия -аппарат комплексининг АКШ долл.
St 400	Vax	open vms 6,2	32(96 гача)	400	90-180
SVIFT Aliance	Alpha Server 400/1000	UNIX V.3.2	32/96	камида 4000	100/200
NERVA/2	ШК Server 310	OS/2 v.2.1	32	100000	79
<i>Turbo SWIFT</i>	<i>SPARC Station 4</i>	<i>Solaris 2.5</i>	32	<i>200/1000</i>	<i>65/150</i>

Мустақил ишлаш учун назорат саволлари.

1. Компьютер тармоғи деб нимага айтилади?
2. Глобал тармоқ деб қандай тармоққа айтилади?
3. Минтақавий тармоқ деб қандай тармоққа айтилади?
4. Локал тармоқ деб қандай тармоққа айтилади?
5. Тармоқнинг операцион тизими деб нимага айтилади?
6. Клиент - сервер деб нимага айтилади?
7. Клиент - сервер архитектуралар дастур тизими қандай бўлимлардан иборат?
8. Шахсий компьютерлар қайси тармоқда ишлайди?
9. Тармоқнинг хусусияти нима билан ўлчанади?
10. Тармоқ тугунлари орасидаги масофа қанчани ташкил қилади?
11. Локал тармоғининг қандай афзалликлари бор?
12. Тармоқ топологияси нима?
13. Тармоқларга кириш усуллари қандай?
14. Локал тармоқларида энг кенг тарқалган кириш услублари қайсилар?
15. Ethernet тармоғида локал тармоқлар учун маълумотлар узатиш тезлиги қанча?
16. Тармоқ объектлари нима?
17. Ethernet тармоқ нима?
18. Локал тармоқларида энг кенг тарқалган кириш услублари қайсилар?
19. CSMA/CD нима?
20. Тугун нима?
21. ЛХТ топологияси нима?
22. Тугун нима ?
23. Юлдузсимон топология нима?
24. Хисоблаш комплекси нима?
25. Сервер тушунчаси нима?
26. Клиент деганда нимани тушинасиз?
27. Глобал тармоқлар (WAN - Wide Area Network) нима?
28. Минтақавий тармоқлар (MAN - Memropolitan Area Network) деганда нимани тушунасиз?
29. Локал тармоқлар (WAN - Local - Area Network) нима?

30. Тармоқларга кириш усуллари қандай?
31. Netware амалга оширувчи тармоқ операцион тизимининг асосий вазифалари?
32. Ажратилган серверли тармоқнинг афзаллиги?
33. Ажратилган серверли тармоқнинг камчилиги?
34. Файл - серверни амалга ошириш учун компртер оператив хотираси ҳажми қанча бўлиши керак?
35. Ресурсларга нима орқали кириш мумкин?
36. NatWare 4.1 нинг ишлаш тамойили қандай?
37. CD-ROM нима?
38. CD-ROM нима учун ишлатилади?
39. Клиент-сервер ҳақида қандай тушунчага эгасиз?
40. NatWare нинг вазифалари нималардан иборат?
41. Relcom тармоғи қандай тармоқ?
42. SprintNet тармоғи нима?
43. Гласнет тармоғи қандай тармоқ?
44. Sovam Teleport тармоғи нима?
45. Relcom нима?
46. Электрон шакл нима?
47. Ахборот оқим деганда нимани тушунасиз?
48. Телекоммуникация хизматининг ривожланиши нимага боғлиқ?
49. Sovam Teleport қайси давлатларда ишлатилади?
50. Moscow Teleport нима?
51. Банк тармоқлари ва банклараро ҳисоб-китоб тизими нима?
52. Турли мамлакатларнинг давлат ичидаги банклараро тизими нима?
53. Қимматбаҳо қоғозлар билан операциялар ўтказиш учун компьютер тармоқлари нима?
54. Банклараро ҳисоб - китоб қандай амалга оширилади?
55. Банк тармоқлари дастурлари банк тизимида қўлланиладиган дастурлар қайсилар?
56. SPARC Station 4 деганда нимани тушунасиз?
57. NERVA/2 нима?
58. Alpha Server 400/1000 деганда нимани тушунасиз?
59. UNIX V.3.2 қайси тоифага киради?
60. Turbo SWIFT нима?

24 - mavzu: Masofaviy ta`lim tushunchasi. Masofaviy ta`lim modellari.

O`zbekistonda masofaviy ta`limni rivojlanishi

Reja:

1. Masofali ta`lim
2. Masofaviy ta`lim modellari
3. Masofaviy ta`limning yutuklari va kamchiliklari
4. Masofaviy ta`limning texnologiyalari va unda katnashuvchilari
5. Uzbekistonda masofaviy ta`limni rivojlanishi

Tayanch iboralar: Iterativ va iterativ bo`lmagan texnologiya, masofali ta`lim, yutuq va kamchiliklar

Masofaviy ta`lim modellari.

Masofaviy ta`lim (MT) - bu ukutuvchi va ukuvchi bir biri bilan masofa yoki vakt orkali ajratilgan sababli, informasion texnologiyalardan fodalangan ta`lim turi.

Bu ta`lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta`lim tashqil kilinishiga sabab bo`lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoklashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va

informatizatsiya darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

1) Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy ukuvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning xar bittasi virtual ukituvchiga birlashtirilgan bulishadi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo'limlar bulishi shart. Shunday ukuv kurslarda ukituvchi va ukuvchilarga ukuv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi.

Bu modelga misol kilib Buyuk Britaniyaning Ochik Universitetidagi (<http://www.ou.uk>) ta'limni olish mumkin.

2) Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim ukuvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil ukuv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud. Shunday ukuv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga karaganda kup. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yunalishlarni izlanishlarida kullaniladi.

Bu modelga misol kilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi (<http://www.une.edu.au>) ta'limni olish mumkin.

3) Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta'lim turlirini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. Ukuvchilar ukuv kursning bir kismini kunduzgi, boshka kismini esa masofadan ukiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiyalar utkazish xam kiradi.

Bu modelga misol kilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi (<http://www.massey.ac.nz>) ta'limni olish mumkin.

4) Konsorsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir biri bilan birlashini talab kiladi. Ushbu muassasalardan biri ukuv kurslarni tashqil kilib ishini ta'minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiklab, kurslarga ukuvchilarni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas balki bitta kafedra yoki markazi yoki universitet urnida ta'lim sohasida ishlaydigan korxonalar xam katnashishi mumkin. Ushbu modelda ukuv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xukuklarini tekshirish zarur buladi.

Bu modelga misol kilib Kanadadagi Ochik Ukuv Agentligidagi (<http://www.ola.bc.ca>) ta'limni olish mumkin.

5) Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir biri bilan uzlari yaratgan ukuv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta'lim sohasida yetakchi bo'lgan ukuv muassasa bu soxada ilk kadam kuyadigan muassasaga uzining ukuv kurslarni takdim kiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa ukuvchilari bir xil ta'lim va diplomlar olishadi.

Bu modelga misol kilib Ochik Universitet Biznes maktabi va Sharkiy Yevropa Universitetlari bilan bo'lgan xamkorligi bulishi mumkin.

6) Validatsiya. Ushbu model universitet va uning filiallari bilan bo'lgan munosabatlariga uxshash. Bu modelda bitta universitet ukuv kurs, diplomlarni kafolatlasa, kolgan bir nechta universitetlar ukuvchilarni ta'minlaydi.

7) Uzoklashgan auditoriyalar. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta ukuv muassasada bulib utgan ukuv kurslar videokonferentsiyalar, radiotranslyasiyalar va telekommunikatsion kanallar orkali sinxron telekursatuvlar kurinishida boshka auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan model bilan farki shundaki, bu modelda ukuvchilar kunduzgi ta'limda katnashmaydi.

Bu modelga misol kilib AKShning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning markaziy radio va televideniye Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

8) Proyektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maksadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta'lim mutaxassislari va pedagoglar tuplangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar axolining katta kisimga namoyish kilinib uz vazifasini bajargandan keyin tuxtatiladi.

Bu modelga misol kilib Afrika, Osiyo va Lotin Amerikadagi rivojlanmagan mamlakatlarida utkazilgan kishlok xujaligi, soliklar va ekologiya haqidagi utkazilgan xar xil kurslar bulishi mumkin.

Masofaviy ta'limning yutuklari va kamchiliklari

Masofaviy ta'limning uzini metodik, iktisodiy, sosial yutuklari va afzalliklarga xamda uzining kamchiliklari va salbiy tomonlarga ega.

Metodik yutuklar va afzalliklarga kuyidagilarni kiritish mumkin:

Dars jadvalni kulayligi. Ukuvchi uziga ma'kul bo'lgan vaktida ukuv jarayoniga katnashishi mumkin.

Kulay foydalanish manzillari. Ukuvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va boshka joylardan ukuv jarayoniga katnashishi mumkin.

Kulay ukish tempi. Ta'lim, ukuvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida utkaziladi.

Kulay ukuv reja. Ukuv rejani talabalariga individual va davlat ta'lim talablariga mos xolatda tashqil qilish mumkin.

Ma'lumotlar bazasini tuplanishi. Oldingi ukigan talabalar bilimlarini tuplash va undan foydalanish imkoniyati.

Kurgazmali kulayliklari. Multimediya imkoniyatlaridan tulik foydalanish imkoniyati.

Malakali ukituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish.

Iktisodiy yutuklar va afzalliklarga kuyidagilarni kiritish mumkin:

Cheksiz masofaga ta'lim berish. Ukituvchi va ukuvchilar urtasidagi masofa xech kandy axamiyatga ega emas.

Ish jarayoniga xalakit bermasligi. Ukuvchi ishdan ajralmas xolatda ta'lim oladi.

Ukuvchilar sonini oshirilishi. Masofaviy ta'lim texnologiyalarni tulik kullagan ukuv muassasa talabalar soni 2-3 barovar oshishi mumkin.

Narxi. Masofaviy ta'lim kurslari 2 va 3 barovar oddiy kurslarga karaganda arzon.

Sosial yutuklar va afzalliklarga kuyidagilarni kiritish mumkin:

Ijtimoiy guruhlariga ajratish yukligi. Masofaviy ta'lim kursida ikkinchi oliy yoki kushimcha ma'lumot oluvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorganlik utash istagida bo'lganlar; ikkinchi paralel ma'lumot olishni xovlagan talabalar; markazdan uzokda, kam uzlashtirilgan mintakalar aholisi; jismoniy nuksonlari bo'lgan shaxslar; armiya xizmatida bo'lgan shaxslar; erkin kuchib yurishi cheklangan shaxslar; va boshkalar katnashishi mumkin.

Yosh cheklanishlari yukligi. Ukishga jalb kilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno kilinadi.

Ammo masofaviy ta'limda salbiy tomonlari xam borligi haqida aytish lozim. Ularga kuyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Elektron xolatdagi ta'lim va mulokot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual xolatdagi ta'lim turida emas, balki oddiy (kunduzgi va sirtki) ta'lim turlarida ukish istagida bulishadi.

Davlat masofaviy ta'lim standartlari yukligi va natijada davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan kuppina masofaviy ta'lim kurslari bitiruvchilariga fakat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvoxonmalar berishadi.

Virtual muxit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikasion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taallukli.

Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda katnashuvchilari.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga kuyidagilarni kiritish mumkin:

INTERAKTIV texnologiyalar:

Internet masofaviy ta'lim portali.

Video va audio konferensiyalar.

Elektron pochta orkali ta'lim.

Internet orkali mustakil ta'lim olish.

Uzokdan boshkarish sistemalar.

Onlayn simulyator va ukuv dasturlar.

Test topshirish sistemalari.

INTERAKTIV bulmagan texnologiyalar:

Video, audio va bosmaga chikarilgan materiallar.

Televizion va radio kursatuvlar.

Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferensiyalar - bu Internet va boshka telekommunikasion aloka kanallari yordamida ikkita, uzoklashgan auditoriyalarni telekommunikasion xolatda bir biri bilan boglab ta'lim olish yuli. Video va audio konferensiyalar uchun katta xajmda maxsus texnika, yukori tezlikga ega bo'lgan a'loka kanali va ukitishni tashqil qilish uchun xizmat kursatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak buladi.

Internet orkali mustakil ta'lim olish - bu Internetda joylashgan kuppina saytlarda joylashgan katta xajmdagi ma'lumotlar ustidan mustakil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yuli.

Elektron pochta orkali ta'lim esa eng ommaviy Internet xizmatlaridan foydalanib, ukuvchi va ukituvchi urtasida xatlar orkali mulokot urnatib ta'lim olish yuli. U yordamida xar xil test, vazifa, savol-javob va kursatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshka kurinishida) junatib kabul qilishimiz mumkin.

Uzokdan boshkarish sistemalar - murakkab dastur, sistema va uskunalarni real xolatda boshkarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yuli. Uzokdan boshkarish sistemalarning asosiy vazifasi ukuvchiga fakatgina amaliy bilimlarni berish.

Simulyator, elektron darsliklar va ukuv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orkali ukuvchilarga off-layn xolatida olish yuli. Simulyator va elektron dasrliklar xozirgi kunda ta'lim soxasida juda keng kullanilyapti.

Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida ukuvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish ing asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baxolash.

Internetning masofaviy ta'lim portali bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ush bu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashqil qilish, yoki boshka suzlar bilan ukuvchi va ukituvchi urtasida elektron on-layn mulokotni urnatish, ukituvchilarga ukuv materiallarni joylashtirish va ukuvchilarga shu ma'lumotlar bilan ishlashga xamda boshka masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish.

IDC (<http://www.idc.com>) kompaniyaning ilmiy izlanish natijalari buyicha, global onlayn-ta'lim bozori 2000 yilda **2,2 milliard AKSh \$** ga teng bulsa, 2005 yilga kelib jaxonda ta'lim soxasiga tegishli internet-dasturlar **18.5 milliard AKSh \$** ga teng sotilishi kutilmokda.

Nielsen-NetRatings kompaniyaning izlanishlari natijasida, 2000 yil mart oyida Internet foydalanuvchilar soni **379 mln.** ga teng bo'lgan bulsa ulardan 211 mln. internetning aktiv foydalanuvchilari. Ushbu kompaniya ma'lumotlariga kura eng aktiv foydalanuvchilar Janubiy Koreyada joylashadilar - bir oyda **2164 veb saxifani** kurib chikishadi (dune buyicha urtacha **774 veb saxifa**). Undan keyingi urinlarda Singapur, Germaniya, Yaponiya va Kanada mamlakatlari turishadi. AKSh esa 7 urinda.

2005 yilga Internet foydalanuvchilar soni **1 milliardga** teng bulishi kutilmokda. **135 million** AKSh fukorolari Internet xizmatlaridan doimiy foydalanmokda bulib, 2002 yildagi xar bir ishlatilgan dollarning yarimi Internet orkali ishlatilgan.

Masofaviy ta'limni jarayonida kuyidagilar katnashishi shart, bular - masofaviy kurs avtori, metodist, ukituvchi (tyutor, koordinator), ruxshunos, administrator, dokumentovod, telekommunikasiya va dasturiy ta'minot gruppasi xamda ukuvchilar.

Avtor - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirlovchi shaxs.

Metodist - masofaviy kurs avtoriga konsultasiyalar beruvchi va kursni taxrirlovchi shaxs.

Ukituvchi - ukuvchilar bilan ukish jarayonida mulokotda buluvchi va ularga yordam beruvchi xamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

Ruxshunos - ukish jarayonining psixologik monitoringni tashqil kiluvchi shaxs.

Administrator - ukuvchilarni kabul qilish va ukishdan chetlash masalalarini yechuvchi va malakali ukituvchilarni jalb kiluvchi shaxs.

Dokumentoved - xujjatlar bilan ishlovchi shaxs.

Telekommunikasiya va dasturiy ta'minot gruppasi -dasturlar va telekommunikasiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.

Ukuvchilar - ukuv jarayonida katnashuvchi shaxs.

Ukuv jarayoninin tashqil qilishda esa albatta kuyidagi kadamlarni bajarishimiz zarur buladi:

Kurs maksadlarini aniklash. Kaysi bilimlarni (mavzular, fan va ...) va kimlar uchun ukitish kerak.

Ukish metodlarini tanlash. Ukuv jarayoni davomida bilimlar va kunikmalar darajasini diagnostika xamda tekshirish manbalarini va usullarini aniklash kerak.

Ukuv materialga metodik talablarini ishlab chikarish. Yangi bilimlarni berish usullarini va xajmlarni aniklash kerak.

Darslar jadvalini ishlab chikarish. Butun kursni bir nechta modullarga bulish, xar bitta modul tugallashidan keyin ukuvchi tomonidan kanaka bilimlarga ega bulishini aniklash kerak.

Ukuv jarayonini monitoringni tashqil qilish.

Tekshiruv jarayonlarni rejalashtirish,

Ukuvchilarning mustakil ishlarini rejalashtirish,

Ukuv jarayoni natijalarini prognozlashtirish,

Natijalarni aniklash va taxlil qilish.

Uzbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi

Uzbekiston boshka mustakil davlat xamdustligi mamlakatlariga uxshab uzining ta'lim soxasini jaxon standarlarga olib kelishda kup xarakatlar kilmokda. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik uzoklashgan regionlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga asosiy sabab bulib, unga katta axamiyat berilishiga olib kelmokda. Xozirgi moliyaviy tankislik davrida, ta'limning bu turidan keng mikyosda foydalanish lozim. Mazkur ta'lim turini joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chikishi tabiiy. Bular asosan mablaglar, texnika ta'minoti va shu soxada malakali muxandis xamda pedagog kadrlar yetishmovchiligi, lekin biz shu muammolarni imkoniyat darajasida xal qilishimiz zarur chunki, Uzbekiston sharoitida masofaviy ta'limni tashqil kilinish katta samara berishi anik.

Xozirgi kunda ta'lim va ishlab chikarish soxasini kompterashtirish va shu soxalarda informasion texnologiyalarni rivojlantirish haqida kuplab prezidentimiz farmonlari va Oliy majlis karorlari chikarilgan. Natijada oxirgi besh yil ichida Respublikasizda kuplab ibratli ishlar kilindi. Masalan **2002 yilda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti tashqil kilinib**, shu yildan boshlab bu universitet kompyuter va kommunikasiyalar, radiotelefon va axborot tarmoklari, dasturiy ta'minot va elektron kommersiya soxasiga zarur bo'lgan mutaxasislarni tayyorlanmokda. Ushbu va boshka oliy ta'lim muassasalari tomonidan kuplab ta'lim soxasiga tegishli yangi dasturlar va elektron kitoblar yaratilmokda.

Shu bilan birga mamlakatimizda **2000 yildan** uz ishini olib borgan, **AKSh Davlat Departamentining Ta'lim va Ma'daniyat masalalari buyicha byurosi (ECA) va Xalkaro Ilmiy Tadmokotlar va Olimlarni Ayrboshlash Kengashi (IREX)** tomonidan tashqil kilingan "Internetdan foydalanish va ukitish programmasi" (<http://www.iatp.uz>) va "Uzbekiston maktablarida Internet" (<http://www.connect.uz>) programmalarini xam aytish lozim. Shu programmalarining asosiy vazifasi - bizning Respublikamizda Internet va uning xizmatlarini rivojlantirish va axoli ichida keng tadbik qilish. Ushbu programmalar natijasi deb xozirgi kunda **Respublikamizning 16-ta shaxrida** axoliga beminnat xizmat kursatgan **"Internetdan bepul foydalanish" markazlari** xamda **Respublikamizning 6-ta viloyatining 60 maktablarida** tashqil kilingan **Internet markazlarini** aytish mumkin.

Shu bilan birga uzbek tilidagi Internetni rivojlanishi va undagi ta'lim soxasiga tegishli maxsus saytlarini paydo bulishini xam aytish lozim deb xisoblaymiz. **2004 yilning birinchi kvartalning uzida** Internet foydalanuvchilar soni taxminan **511 000** ga yetdi (2003 yil boshida

275 000 ta). Shu bilan birga 2003 yil boshiga nisbatdan internet provayder va operatorlar soni 263 (usish 94,8%), UZ zonadagi veb saytlar soni esa 2600 dan oshdi (usish 188,4%), Internetga boglangan davlat korxonalar soni 470 (usish 63,6%), xujalik subyetlar soni 8600 (usish 68,9%), internetdan ommaviy foydalanish punktlar soni 228 (usish 115,1%) ga teng buldi.

IATP programmasining internet grantlari natijasida tashqil kilingan va 2002 yildan faoliyat kursatib kelgan "Masofaviy ta'lim portali" (<http://dl.freenet.uz>) yoki kuplab Respublikamiz Universitet va Institutlari tomonidan uzlarining veb saxifalarida tashqil kilingan "Masofaviy ta'lim kurslari"ni xam aloxida aytishimiz zarur (masalan <http://nuu.uz> Uzbekiston Milliy Universiteti saytida tashqil kilingan kurslar). Ta'lim soxasiga tegishli kuplab foydali va kizikarli veb saytlar yaratilmokda, (<http://www.bilim.uz> , <http://www.bilimdon.uz> , <http://www.ilm.uz> , <http://www.student.uz> , <http://www.study.uz> va boshkalar). Eng kuvonarli esa internetda nafakat universitet, institut, kolledj va akademik liseylar balki maktablar xam uzlarining veb saxifalariga ega bulishmokdalar.

Boshka misol kilib Respublikamizning oliy yurtlari tomonidan tashqil kilingan videokonferensiyalarni xam aytish mumkin. 2002 yilda Respublikamizda birinchi marta Prezident Devoni, Tashqi Iktisod Alokalar Vazirligi, Jaxon Iktisod va Diplomatiya Universiteti va Toshkent Davlat Iktisodiiyot Universiteti urtasida videokonferensiya utkazildi. Xozirgi kunda Respublikamizning Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent Davlat Iktisod Universiteti, Jaxon Iktisod va Diplomatiya Universiteti, Toshkent Davlat Agrar Universiteti va boshka oliy ukuv yurtlarida bir necha marta videokonferensiyalar utkazilgan edi va utkazilmokda.

Nazorat uchun savollar:

1. Masofali ta'lim
2. Masofaviy ta'lim modellari
3. Masofaviy ta'limning yutuklari va kamchiliklari
4. Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda katnashuvchilari
5. Uzbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi

25 – mavzu: Kompyuter bilan ishlashda hayotiy faoliyat xavfsizligi qoidalari va talablari

Reja:

1. Kompyuter sinflarida yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasi
2. Shovqin
3. Ko'zning doimiy zo'riqishi
4. Elektrostatik va elektromagnit maydonlarni organizmga ta'siri
5. Kompyuter oldida uzoq o'tirishning mehnat unumdorligiga ta'siri
6. Operatorning ishchi joyini tashkil etish
7. Monitordan insonning ko'zigacha bo'lgan optimal masofa
8. Kompyuter bilan ishlaganda charchash sabablari
9. Hosil bo'ladigan nurlarning dozimetrik miqdorlari
10. Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari
11. Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda himoya usullari
12. Kompyuter bilan ishlashda sodir bo'ladigan xavfli omillar to'g'risida ma'lumot
13. Kompyuter monitorida sodir bo'ladigan elektromagnit nurlanish

Tayanch iboralar: shovqun, elektrostatik va elektromagnit maydonlar, ish loyi, alfa, bata, gamma nurlar, dozimetrik miqdor, radioaktiv moddalar, elektromagnit nurlanish

Kompyuter bilan ishlash davomida bir qator faoliyat bilan bog'liq fiziologik jarayonlar sodir bo'ladi va inson organizmiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bu kabi surunkali ta'sirlar va xavfli holatlar muxandis-dasturlarni ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatib kasb kasaliklarini keltirib chiqarishi tasdiqlangan.

Kompyuter sinflarida yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasi

Kompyuterlar joylashtirilgan xonalar va dasturlovchi o'rni yong'in xavfsizligi talablari bo'yicha «D» toifaga mansub bo'lib, tez yonuvchi materiallar kam hisoblanadi.

Elektr hisoblash mashinalari va aloqa vositalari joylashtirilgan xonalarda yong'in xavfi mavjud bo'lib, bu holat katta miqdorda tez eriydigan yengil materiallar. Bu xonalarda yong'in asosan yonuvchan moddalarning oksidlanishi, issiqlik ta'sirida erishi natijasida sodir bo'ladi. Mavjud xonalarda o'rnatilgan akustik va estetik talablarga mos keluvchi eshik, pol, kabellar izolyasiyasi va boshqalar yonuvchi komponentlar toifasiga kiradi.

Yong'inga qarshi kurash bu kompleks tashkiliy va texnik tadbirlar bo'lib, xodimlarni xavfsizligini ta'minlash, yong'inni samarali o'chirish uni tez tarqalishini oldini olishdan iborat. Uchqun chiqaruvchi manbalar esa, elektron sxemalar, elektr ta'minot tarmoqlari, turli elektron uskunalarning nosozligi, qisqa tutashuv, yer bilan notug'ri biriktirish, ulashdagi nosozliklar hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuterlar va EHMlarida elektron sxemalar va detallar zich joylashganligi va kabellar hamda ulash simlari yaqinligi sababli bu xavf ancha yuqoridir. Bulardan elektr tokini oqishi himoya qavatini erishiga olib keladi. Kompyuterlarda bu kabi ortiqcha issiqlik maxsus shamolatish bloki orqali chiqarib yuboriladi. Bu blokni ishdan chiqishi esa juda xavflidir. Bunday hollarda xavfsizlik choralarini ko'rish va qo'shimcha shamollatish tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, yong'in holatini kompyuter choralarida qo'llanilgan qurilish materiallarining yong'inga chidamligini, umumiy mustahkamlikni ta'minlaydi. Elektron uskunalarni yuqori narxini e'tiborga olgan holda bu turdagi xonalarni 1 yoki 2 toifali yong'inga chidamlilik deb darajalash mumkin.

Kichik hajmdagi yong'in o'choqlarini bartaraf etish uchun binolarda yong'in krani, o't o'chirish moslamasi, quruq qo'm, asbestli ko'rpa va boshqalarda foydalaniladi.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga binoan EHM joylashtirilgan xonalar, ko'paytirish nusxa ko'chirish uskunalari atrofida tutunli xabar berish moslamalari o'rnatiladi. Yonqin boshlangan holatda plastmassalarni tutashi natijasida zaharli is gazi ajralib chiqadi va ishchilarni bug'ishi mumkin. Shu sababli, belgilangan talablarga mos keladigan o'chirish usullari va tizimlaridan foydalanish maqsadidga muvofiqdir. Olib borilayotgan tadqiqotchilar va tahlillar asosida aynan shu holatga mos keluvchi usullar tanlanadi. Ish o'rnini samarali tashkil etishda asosiy e'tibor elektromagnit va elektrostatik maydonlar ta'sirini kamaytirishga qaratilishi darkor. Bugungi kunda ish o'rnini ergonomik talablar asosida tashkil etish, komfort ish sharoitini tashkil etish dolzarb sosial masaladir. Olingan tadqiqotlar asosida ish stolining optimal o'lchamlari, qo'lay konfigurasiya, ish o'rnini to'g'ri tashkil etishda asosiy manbadir.

Belgilangan talablarga javob beradigan sharoit yaratish, ish sifatini va unumdorligini oshirish, dastur ishini yaxshilash, nuqsonsiz ishlashni ta'minlash imkonini beradi.

Shovqin

Ma'lumki, turli darajadagi va kattalikdagi shovqinlar organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi va uni qobiliyatini pasayishiga sabab bo'ladi. Shovqin sharoitida ishlashda insonlarda jizzakilik, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, xotira susayishi, ishtaha bug'ilishi, quloqda og'riq va boshqalar kuzatiladi. Quyidagi jadvalda keltirilgan. Shovqinning og'irlik darajasi ko'p jihatdan ishning kuchlanganlik darajasiga bog'liq. Demak, kuchlanish katta bo'lsa, xavf darajasi katta bo'lishi kuzatiladi.

Ish o'rnida shovqinni chegaraviy qiymati, dB.

Ishni zo'riqish kategoriyasi	Ishning kategoriyalari			
	I. Yengil	II. O'rtacha	III. Og'ir	IV. Juda og'ir
I. Kam kuchlanishga ega	80	80	75	75
II. O'rtacha kuchlanishga ega	70	70	65	65
III. Kuchlanishga	60	60	-	-
IV. Juda katta kuchlanish	50	50	-	-

Muxandis dasturlarni ish o'rnida shovqinning maksimal qiymati, 50 dBa dan katta, informatika va hisoblash zallarida esa 65 dBa bo'lishi lozim. Bu kabi javobgarlik talab qiladigan xonalarda va kompyuter zallarida tegishli himoya vositalarini ko'rish va amalga oshirish juda muhimdir. Bu maqsadida maxsus shovqin yutuvchi va kamaytiruvchi moslamalar o'rnatish talab etiladi.

Ko'zning doimiy zo'riqishi

Kompyuter bilan ishlash davomida insonlarning ko'rish organlarida yuqori darajada kuchlanish holati sodir bo'ladi.

Turli o'lchamdagi va hajmdagi grafik materiallar, kichik o'lchamlar, hajmini ortishi natijasida ko'zda surunkali jiddiy kuchlanish yoki zo'riqish sodir bo'ladi. Bu kabi salbiy holatlar ko'zni ko'rish qobiliyatini pasayishiga olib keladi.

Belgilangan me'yorlarga binoan foydalanuvchi operator ko'zi bilan ekran oralig'idagi masofa 600-700 mm bo'lishi lozim, Ayrim hollarda harf va raqamlar kattaligini e'tiborga olgan holda bu masofani 500 mm bo'lishiga ruxsat beriladi.

Ko'zni zo'riqishini kamaytirish maqsadida har 1 soatda 15 minutlik tanaffus qilish tavsiya etiladi.

Elektrostatik va elektromagnit maydonlarni organizmga ta'siri

Bugungi kunda bir qator olimlar tomonidan kompyuter monitorlaridan tushayotgan turli nurlarni inson organizmiga ta'siri va ma'lum ionlanish sodir bo'lishi tasdiqdangan. Lekin, bu masalada to'laqonli ma'lumotlar mavjud emas.

Elektromagnit ionlashgan nurlarning monitordan tushadigan miqdori qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

Ma'lumki, tegishli me'yorlarga asosan ish joyida kompyuter monitoridan ajraladigan maksimal rangen nurlarning maksimal miqdori 10 mk ber/ch va ultrabinafsha va infraqizil nurlarning bu kabi miqdori esa 10-100 mVt/m² bo'lishi aniqlangan.

San P i N 2.2.2.542-96 ga asosan ionlashgan elektromagnit nurlarning ruxsat etiladigan qiymati qo'yidagicha:

T/r	Parametrlar nomi	Ruxsat etilgan Qiymatlar
1.	Vedimonitor yuzasidan 50 sm masofada elektrmagnit maydoni kuchlanishining elektr tashkil etuvchisi	10 V/m
2.	Vedimonitor yuzasidan 50 sm masofada elektrmagnit maydoni kuchlanishining magnit tashkil etuvchisi	0,3 A/m
3.	Elektr maydoni kuchlanishining qiymati katta yoshdagi foydalanuvchi uchun	20 kV/m
4.	Oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus va maktab o'quvchilari, shu jumladan maktabgacha tarbiya muassasalari o'quvchilari uchun	15 kV/m

Bugungi kunda bu kabi ta'sirlar miqdorini kamaytirish maqsadida nurlanish darajasi past bo'lgan monitorlardan foydalanish tavsiya etilmoqda. Bu kaab zamonaviy monitorlar toifasiga MRR- II, TSO-92, TSO-99 lar kiradi.

Demak, monitorlar tushayotgan ionlashgan nurlarning miqdorini kamaytirish muhim ahamiyatga ega.

Kompyuter oldida uzoq o'tirishning mehnat unumdorligiga ta'siri

Ma'lumki, kompyuter bilan ishlashda operatorlarda aqliy, emosional (his-hayojon) va jismoniy nagruzkalar bilan birga yuqori darajadagi shu jumladan ko'rish organlarining ortiqcha zo'riqishi sodir bo'ladi.

Bu esa juda ko'p jihatdan ish o'rnini tashkil etishda belgilangan talablarga rioya qilishni talab etadi. Ish o'rnidagi elementlarni optimal joylashtirish, ish joyini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Shu sababli, mavjud konstruksiyalar kompyuter stollari ish o'rne ergonomika talablariga mos ravishda operatorning gavdasining o'rchamlariga mos holda tanlanadi, ya'ni lozim bo'lgan hollarda konstruksiyalarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Bir o'rinli stolning o'lchamlari

T/r	Talaba va o'quvchilar balandligi, mm	Poldan balandligi, mm	
		Stolning Balandligi	Oyoq uchun kenglik Chegarasi
1.	116-130	520	400
2.	131-145	580	520
3.	146-160	640	580
4.	161-175	700	640
5.	175 va yuqori	760	700

Ayrim hollarda oyoq uchun monitoring eni va chuqurligi stol konstruksiyasining turiga qarab tanlanadi. Juda ko'p hollarda stolning optimal balandligi 760 mm, oyoq uchun maydon kengligi 800 mm qabul qilinadi.

Me'yoriy talablarga binoan o'quvchi va talabalar uchun stolning asosiy o'lchamlari qo'yidagicha:

t/r	Stol parametrlari	Talabalar va o'quvchilar o'lchamlari				
		116-130	131-145	146-160	161-175	176
1.	O'tirgichning poldan balandligi, mm	300	340	380	420	460
2.	Eni, mm	270	290	320	340	360
3.	O'tirgichning chuqurligi, mm	290	330	360	380	400
4.	Stol yelkasining balandligi	130	150	160	170	190
5.	Stol yelkasining eng yuqori balandligi	280	380	330	320	400
6.	Egilgan joyining balandligi	170	190	220	210	220
7.	Stol oldi qismining egrilik radiusi	20-50	-	-	-	-


8.	O'tirgichning egrilik burchagi radiusi, grad.	0-4	-	-	-	-
9.	Stol yelkasining egrilik, radiusi, grad.	95-108	-	-	-	-
10.	O'tirgichning egrilik burchagi radiusi, mm.	300	-	-	-	-

Berilgan ma'lumotlar asosida kompyuter ish o'rnini optimal tashkil etish mumkin. Shu sababli, kompyuter operatorlari uchun belgilangan talablarga mos keladigan ko'tariladigan - aylanadigan maxsus stoldan foydalanish tavsiya etiladi.

Bu turdagi stullar uzunligi 250 mm va eni 50 mm bo'lgan tirsak osti tayanch bilan ta'minlanadi. Oxirgi yillarda dasturlovchilarning qomatiga mos ravishda o'zgartirish imkoni mavjud konstruksiyalardan foydalaniladi. Ish o'rni albatta oyoq uchun taglik bilan ta'minlanadi va uning o'lchamlari eni 300 mm chuqurligi 400 mm bo'lib, o'zgartirish imkoni mavjud. Podstavkalar maxsus balandligi 10mm bo'lgan bortcha bilan ta'minlanadi. Ergonomik talablardan kelib chiqqan holda ish o'rnini qo'yidagi qismlarga ajratish mumkin.

- motor maydon – ish o'rinining kishi harakat qiladigan qsmi;
- qo'lning maksimal uzatish zonasi – bu mator maydoni, chet bilan chegaralangan bo'lib, uzatilgan qo'l harakatini ng yetadigan qismi;
- optimal zona – norama qo'l yetadigan uzunliu chegarasi.

Gorizonatal tekislikda qo'lni uzatish zonasi.



- a - eng maksimal uzatish zonasi;
- b – barmoqlarning uzatilgan qo'l qismi zonasi;
- v – kaftning yengil uzatish zonasi;
- r – qo'pol qo'l ishlarini bajarish tekisligi;
- d – nozik ishlarni optimal bajarish tekisligi.


Mehnat ashyolarini va hujjatlarni eng optimal joylashuvi zonalari qo'yidagicha;

- A zonada joylashtiriladi (markazda)
- Sistema bloki - stolning tokchasiga o'rnatiladi.
- Klavriatura - bilan xonada joylashadi.
- «Sichqoncha» -o'ng zonada joylashadi.
- Skaner - a/b zonada (o'ngda)

Printer a zonada (chapda) joylashadi.


Hujjatlar esa eng qulay bo'lgan B, A, B va siljuvchan yashiklarga joylashtiriladi.

Rasmda muxandis dasturlovchining asosiy va qo'shimcha hujjat va elementlar majmuasini joylashuvi ko'rsatilgan.



1 –skaner, 2-monitor, 3-printer, 4- ish stolining yuzasi, 5-klaviatura, 6-sichqoncha.

Kompyuterning asosiy va qo'shimcha tashkil etuvchilarining real joylashuvi sxemasi qo'yidagi rasmda ko'rsatilgan.



1 – printer, 2-monitor, 3- ish stolining yuzasi, 4-klaviratura, 5-sichqoncha.

Ekranning holati kattaligi 0,6-0,7 m bo'lgan o'qish burchagi va nigohning 20 ekranning markaziga yo'naltirilgan holatga mos kelishi kerak. Ekranning uyg'unlashtirish bo'ylama yo'nalishida - 10 dan + 20 gacha qabul qilinadi. Shu bilan

Shu bilan birga foydalanuvchining ish holatiga alohida e'tibor beriladi. Noqulay ish yuzasi esa muskullarda zo'riqishga sabab bo'ladi. Shu sababli, dasturlovchining ish holatiga qo'yidagi talablar qo'yiladi.

- 1) dasturlovchining boshi 20 dan kam darajada engashishi lozim;
- 2) yelkalar erkin bo'lishi lozim;
- 3) tirsak 80 – 100 burchak ostida joylashishi kerak;
- 4) Qo'l barmoqlari bo'ylama holatda bo'lishi kerak.

Juda ko'p hollarda noqulay holat klaviaturani baland joylashishi, hujjatlarni past joylashishi, oyoq va qo'l uchun yetarli bo'lmagan maydon mavjudligi sabab bo'ladi.

Ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida klavishlarni yaxshi xarakatlarini ta'minlovchi maxsus moslamalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kompyuterda kishining sifatli va unumli bo'lishini ta'minlash belgilarning kattaligiga, joylashuviga yorug'lik va ekran foniga bog'liq. Agar operator ko'zi bilan ekran oralig'i 60-80 mm bo'lsa, belgilar 3 mm bo'lishi tavsiya etiladi.

Tibbiyot xodimlari kompyuterdan foydalanishda monitorni ko'zdan 50-60 sm masofada joylashtirishni tavsiya etadi.

Muxandis-dasturlovchining ish o'rni yuqorida keltirilgan talablar asosida tashkil etish belgilangan ergonomik talablarga mos keladi. Bu esa unumdorlikni oshirish imkonini beradi.

Operatorning ishchi joyini tashkil etish

Xonani shifti oq ko'k fon bilan oqlanishi va devorlari esa yashil rangga oqlanishi kerak. Bu ranglar o'tob nurlanishini bizga rang iqlimini yaratib beradi. Xonalarga qo'yilgan talablar ishchi muhit ishchining (operator) ish joyi tashqi muhit faktorlari yig'indisi bo'lib ular quyidagi ishlardan iborat: fizik, ximik, biologik, axborot, sosial – psixologik va estetik faktorlar tashqi muhit xossalari bo'lib operatorga ta'sir etadi. Ishchi muhit turlicha bo'lishi mumkin: ish joyida hayot faoliyatini ta'minlovchi vositalar operatorning talab etilgan mehnat qobiliyati sharoitini hosil qiladi va uni noxush faktorlar ta'siridan himoya qiladi.

Xodimlar samarali faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratish va texnik vositalarni ishlash uchun xonalar yorug', toza, tovush va tebranishdan izolyasiyalangan holatda loyihalanaadi. Shkaf va devorlar tovush yutuvchi plitkalar bilan qoplanishi maqsadga muvofiqdir.

Xona harorati optimal haroratda 21-23°S da optimal namlik 40-60 %, chang konsentratsiyasi 0,2 Mg/m³ dan va chang maksimal zarracha o'lchash 3 Mk dan oshmasligi lozim. Xonalarda bunday sharoitni ushlab turish maqsadida, xonalarni havo almashtirib turish ko'zda tutiladi.

Operatorning kamfort ishlashiga operatorning ish joyini tashkil etilganligi, axborotning ko'rsatish manbai va mashinaning boshqarish organlari ta'sir ko'rsatadi. Ular shovqin chiqarmasligi va ish jarayonida diskomfort hisini uyg'otmasligi, inson uchun maksimal qulay bo'lishi kerak. EHM operatori komfort sharoit bilan ta'minlashning asosiy yo'li uni ishchi joyini tashkilash kiradi. Bunda har narsaga e'tibor berishi kerak ko'zga ko'rinmagan kichkina narsa ham uzoq vaqt davomidagi jarayondan keyin diskomfort keltirib chiqarishi mumkin va kasaliklarga olib kelishi mumkin. Operatorning uzoq vaqt davomida monitor ortida o'tirishi natijasida ko'rish aparatining zo'riqishi, ishdan qoniqmaslik, bosh og'rig'i, buzilishi charchoq va ko'z, bo'yin, bel, qo'larda og'riklar sezila boshlanadi.

EHM operatorining ish joyi deyilganda texnik manbalar va yordamchi qurilmalar bilan jihozlangan konkret ishlab chiqarish masalarni yechishga mo'ljalangan "operator – odam" ish faoliyati bilan shug'ulanadigan hudud tushiniladi.

Ish joyini mehnat xavfsizligi qoidalari va standartlar talablariga mos ravishda jihozlash kerak.

Ish joyi elemenlarini joylashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- operator odamning ishchi pozasi;
- operatorga kerakli harakatlarni amalga oshiruvchi joy;
- perator va uskunani bog'lovchi jismoniy, ko'rish va eshitish aloqasi;
- ishchi joyidan tashqarini ko'rish imkoniyati;
- yozish hamda operator tomonidan ishlatiladigan hujjatlarni saqlash imkoniyati.

Uskunaning tashqi va konstruktiv ko'rinishini jihozlash minimal charchash uchun sharoit yaratadi. Ish mebelining konstruksiyasi GOST 12.2.032-78(9), GOST 2226976(10) talablariga mos tushuvchi ishchining bo'yiga qarab sozlanadigan va qulay ozoda turadigan bo'lishi kerak. Operatorning ish joyini to'g'ri tashkil etilganida uning mehnat unumdorligi 8-20% oshadi.

Kompyuter o'rnatiladigan xonaga kompyuter soniga qarab turib quyidagi talablar qo'yiladi: axborotlashtirish, bu tinglovchilarni yoki ishlovchilarning kompyuterda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bilan bajariladi. Shuning uchun kompyuter xonasida 2 tadan 5 tagacha kompyuter o'rnatilishi mumkin va shu bilan birga kompyuter xonasini o'lchamlari quyidagicha bo'lishi kerak (3x6x2,8 m).

Ish joyining yoritilganligi. Ish joyini loyihalash vaqtida su'niy va tabiiy yoritish masalasi hal qilinishi kerak. Yoritish nafaqat ishlab chiqarish masalarini hal qilish balki u ishlayotgan odamning psixologik hamda fizik holatiga tasir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish joylaridagi rasional yoritganlikka qo'yilgan talablar:

- yorug'lik manbai va yoritish tizimini to'g'ri tanlash;
- ishlab chiqarish tepaliklarini kerakli darajadagi yorug'lik darajasi bilan ta'minlash;
- ko'zni oladigan yorug'likni cheklash;
- o'liklarni yo'qotish, tekis yorug'likni tashkilash;
- yorug'lik oqimining vaqtga nisbatan tebranishini yo'qotish yoki cheklash.

Kerakli darajadagi yoritilmaganlik oqibatida va ko'rish holatining zo'riqishida bajarilayotgan ish davomida ko'zning charchashi kuchayadi, umumiy ishlashi va ishlab chiqarish unumdorligi tushib ketadi va xatolar soni ko'payadi.

Ish joyidagi yoritganlik gigiyenik talablarga binoin mehnatning ko'rish sharoitlariga to'g'ri kelishi kerak. GOST 12.01.006-84 (11) ga binoan displey bilan ishlash vaqtida yoritilganlik 200lk hujjatlar bilan ishlash paytida 400lk bo'lishi kerak.

Tarqatilgan yoritishdan, shifflarning, devorlarning, uskunalarning och ranglarga bo'yash qo'laniladi.

Operatorning ko'rish maydonida yorug'lik maydoni bo'lsa to'g'ri yaltirash, ko'rish maydoni ichida qaytaradigan yorug'lik tekisliklari mavjud bo'lsa qaytaruvchi yaltirash deyiladi.

To'g'ri yaltirashni ko'rish maydonidan yارقilagan yorug'likni 60 sm kamaytirish yo'li bilan kamaytirish mumkin. qaytaruvchi yaltirashdan esa yorug'likni tarqatuvchi manbalar hamda polirotka qilingan tekisliklar o'rniga matoviy ishlatish yo'li bilan kamaytirish mumkin. Ekran monitoridagi bliklarni kamaytirish uchun tasvirni kontrastligini kuchaytiruvchi va bliklarni kamaytiruvchi ekran filtrlaridan foydalanish kerak yoki antiblik qoplamasi mavjud monitorlardan foydalanish zarur .

Yorug'likni turini tanlash muhim masala hisoblanadi (tabiiy yoki su'niy). Tabiiy yorug'likdan foydalanish ko'p kamchiliklarga ega:

- yorug'lik tushishi faqat bir tomondan;
- yorug'likni vaqtda va hajmda bir xil bo'lmaganligi;
- ravshan quyosh nurlarining ko'zni olishi va boshqalar.

Su'niy yorug'likdan foydalanish yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etadi va optimal yorug'lik rejimini yaratishga yordam beradi. lekin oynalarsiz inshotlardan foydalanish insonlarda o'ziga ishonchsizlik va uyaluvchanlikni keltirib chiqaradi. To'g'ri yorug'lik uzatishni tashkil etish uchun quyosh nurlariga yaqin su'niy yorug'likni tanlash kerak.

Stol va stullarning joylashuviga bo'lgan talablar Kompyuter xonasida stol va stullarga talablar mavjud bo'lib, stol balandligi yerdan 68-77 sm, stullar esa aylanuvchan bo'lishi kerak va orqasida suyanchig'i bo'lishi kerak. Chunki stol stullar o'z gabariti bilan to'g'ri kelmasa foydalanuvchi tezda charchab qoladi. Stol va stullar shunday joylashtirilishi kerakki, ular insonlarga turib yurishga xalaqit bermasligi kerak. Bundan tashqari, operatorlar bemalol har bir operatorlar oldiga borib birga ishlay olishi kerak.

Ish joyining konstruktivligi va elemenlarining joylashuvi (o'tirg'ichlar, axborotning ko'rsatish, boshqarish organlari) antropometrik, fiziologik va psixologik talablarga hamda ishning xarakteriga to'g'ri kelishi kerak.

Shunday konstruksiyalangan ish joyi monitor maydonidan tashqaridagi bajarilishi qiyin bo'lgan operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Axborotning ko'rsatish manbalari bu holda EHM ning displeyi SNiP 2.01.02-85 (5) ga to'g'ri keladi.

Ko'zga tushayotgan nagruzkani kamaytirish uchun displey ergonomika nuqtai nazaridan optimal o'rnatilishi kerak, displeyning tepa burchagi ko'z bilan bir tekislikda bo'lishi kerak, ekrangacha masofa 28-60 sm bo'lishi kerak. Ekraning miltilashi mil>70 Gs bo'lishi kerak.

Antropometrik mos tushishi operatorning ish borayotgan vaqtda fazoda, kenglikda tananing joylanishi imkoniyati va turli pozani egallashi nazarda tutiladi. Bu masalani hal qilish

uchun birinchi navbatda boshqarish pulti asboblaridan operatorning oyog'i borib yetadigan zona aniqlanadi. Bu mos kelishini ta'minlash qiyinchilik bilan erishiladi, chunki har bir kishining antropometrik ko'rsatkichlari turlicha. O'rta bo'yli kishini qoniqtirgan o'rindiqli, baland yoki past bo'yli bo'lgan kishiga noqulay bo'lishi mumkin.

Xavfsiz faoliyat ko'rsatish maqsadida inson tanasi o'lchamlari quyidagi holatlarda hisobga olinadi:

- poldan yoki ish maydonidan, mashinalar ishlashini nazorat qilish, to'g'rilash zonasini, signalizatsiya va nazorat asboblariga bo'lgan sathni optimal balandligini o'lchashda;
- balandlikda qo'lda boshqariladigan mashinalar frontini joylashtirishda, ayniqsa avariya organlarining puxta joylashtirishda;
- boshqarish organlarini shakli va o'lchamlarini tanlashda.

Mashinalarni loyihalashda inson antropometrik ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlash uchun o'zini topografiya qilish usuli yoki modellashtirish usuli qo'llaniladi. O'zini topografiya qilishda inson ishchi tanasini turli holatlarini sxematik konstruksiyalash va ishchi bajaradigan ishlar va operatsiyalar bilan bog'lash kiradi. Modellashtirish usuliga inson figurasini hajmiy va tekislikda modellashtirish kiradi. Insonning antropometrik quyidagicha: o'rtacha balandligi 1 metr 72 sm, yelka kengligi 39 sm, qo'llar yoyilmasi 160 sm agar bu antropometrik o'lchovlar hisobga olinmasa operatorlar ish paytida bir – biriga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun antropometrik o'lchovlarni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Monitordan insonning ko'ziga bo'lgan optimal masofa. Monitor ko'zdan ozgina pastroqda va 50 sm dan kam bo'lmagan masofada joylashishi kerak. Monitor va ko'z orasidagi masofa 80 sm gacha bo'lishi tavsiya qilinadi, bu masofa kichik bo'lsa insonning ko'zi tez charchaydi. Monitorni dizayni va rangi o'ziga e'tiborni jalb qilmasligi kerak. Shuning uchun monitorning sirt tomonida har xil reklama yopishtirgichlar bo'lmasligi kerak. Monitorning ekrani zangori va ko'k ranglarga bo'yalishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bu ranglar inson ko'ziga eng yaxshi ranglardan hisoblanadi.

Qisman monitor oldidagi o'tirishda xavfsizlikni va kamfort ish joyini rasional tashkil etish lozim. Foydalanuvchi usul asosiy xavfsizlik vidiomanitor ekran displeydan chiqadi deb bo'lmaydi. Eng kuchli nurlanish odatda manitorni yon va orqa tomonidan ham tarqaladi. Shuning uchun foydalanuvchi joyini bir necha kompyuter qarama – qarshi turgan joyda undan ham yomon orqama – ketin joylashtirishdir. Videomonitor xillari orasidagi tavsiya etiladigan oradagi masofa 2 m dan kam bo'lmasligi va yon tomondagi masofa 1,2 m dan kam bo'lmasligi lozim. Kompyuterlar joylashgan xona yetarli darajada keng va doimiy ravishda havosi almashib turishi kerak. Bitta displey uchun minimal standart norma 6 m ni, minimal hajm esa 20 m tashkil etishi kerak.

Displey oldida ishlaganda xonani yoritilishi yaxshi bo'lishi va imkoni boricha tabiiy kunduzgi yoritilishga yaqin bo'lishi kerak. Yoritish uchun displeyga yaqin joylashgan lyuminiscent lampochkalardan foydalanib bo'lmaydi. Bu strobaktik effekt deb aytiladi, displey ekranda ma'lumotni buzilishiga olib keladi.

Yoritishni eng maqbul usuli galten nurlanishli manbadir. Amerikalik olimlarning ham foydalanuvchilarga tavsiyasi diqqatga loyiqdir:

- Displey ekraniga yaxshi himoya filtri o'rnatish, to'rtli filtrlardan foydalanmang;
- Ekran o'z sathidan 20 sm pastda va ko'zdan 65 sm masofada bo'lishi kerak (agar shu yaqindan yoki ko'rsangiz ham displey bilan burningizni uning yaqiniga olib borib ishlamang, hatto burun ham zarar ko'rishi mumkin);
- Ekranni oynaga nisbatan to'g'ri burchak hoida o'rnatish;
- Ekranning yoritish xonasining yoritishiga teng bo'lishi kerak (taxminan 500-700 lk) yorqin lyuminiscent nurdan saqlanish;
- Yorqin fonda qora harflar oson o'qiladi;
- Har 10 minutda nigohni ekrandan boshqa tomonga oling;
- Chernovikdan ma'lumotni ShKga kiritishda uni ekran yaqinroq joyga qo'ying;

- Ko'zga displey yonida ishlaganda alohida ko'zoynak lozimligini ko'z doktori bilan gaplashib ko'ring. (masalan perforirovamniy oynak)

Barcha nurlantirishlarni yaxshi yutuvchi ayrim o'simliklar bor. Ular ko'pgina nurlanishlarda ular juda zo'r rivojlanadi. Shuning uchun ko'pgina ofislarda xonani bezash uchun emas, balki nurlanish kamaytirish uchun xona o'simliklardan foydalanishadi. Shuning uchun ushbu tavsiya kompyuterdan foydalanuvchilar uchun berish mumkin. Umuman xulosa shuki:

- Ekranni lippillashi va yarqirashi, yaqinda yomon ko'rish, asab stresslari va asabiylikka olib keladi.

- Past chastotali maydon nur kasalliklari, stresslar, homiladorlarni buzilishlar bilan o'tishga, reproduktiv funksional buzilishga va yomon sharoitli ishlar paydo bo'lishiga olib keladi.

- Elektron maydon hujjatlarini o'zgartirish va rivojlanishni to'xtatishga olib keladi. Bu ko'zning xuristalini xiralashish – katarakta keltirib chiqarish mumkin.

Kompyuter bilan ishlaganda charchash sabablari. Kompyuter bilan ishlash vaqtida inson quyidagi faktorlardan charchaydi:

- ekraning me'yoridan ortiq yorug'ligi;
- kontrast va fon o'rtasidagi aniqligi;
- kompyuterda ishlash paytidagi issiqlikdan nurlanishi;
- kompyuterda nurlanishning insonga ta'siri;
- kompyuter buzuqligi.

Kompyuterdan nurlanishning oldini olishi uchun himoya filtrlaridan foydalaniladi.

Shunday qilib, monitor butunlay xalqaro standart MPR-2 (LOW radiation displeylari) talablarini qoniqtirganda ham, uni nurlanishda qo'shimcha himoya kerak bo'ladi. Bu to'g'risida takliflar juda ko'pdir. Amerikalik mutaxassislar, masalan, ekranda qo'l cho'zilgandagina bo'lgan masofada joylashishni maslahat beriladi, qo'shni monitorlar 222,8 masofada joylashishi lozim. Eng effektli (foydali) vosita rivojlangan dunyoda tan olingan ekran qismi filtrlaridir. Monitorlar uchun himoya filtrlari quyidagi turlarda bo'ladi.

1. Turli filtrlar – amalda elektromagnit nurlardan va statik elektrdan himoya qilmaydi, bundan tashqari sur'atning kontrastligini kamaytiradi. Lekin ular tashqi yorqinlikda va ekranni bikirlashidan himoya qiladi, bu ko'z uchun katta ahamiyatga egadir.

2. Plyonkali filtrlar statik elektrni to'smaydi past chastotali elektromagnit maydonidan deyarli himoya qilmaydi, lekin sur'atni talbaning kontrastligini ortiradi, ultrafiolet nurlanishlarni butunlay yutadi va rengen nurlarini kamaytiradi. Yashindan faqat polerizasiya plyonkali filtrlar himoya qiladi. Eng taniqlilisi Polorid firmasining plyonkali filtrlardir (SR 50): ularni ko'plari sur'atni kontrastligi va aniqliyini oshiradi. Lekin haqiqatdan shuni ta'kidlash kerakki, polerizasiya filtrlari polefir simolalari ostida tayyorlanadi. Bu material yuqori darajada mustahkam emas va uzoqqa chidamaydi va tez fizik qorishish va tuzilishiga olib keladi. (Plyonka Polorid SR 50 filtrlarni universal ishlashini polerizasiya filtrlari bilan chalkashtirib bo'lmaydi. Keyingi filtrlar ham statik va elektromagnit maydonlardan yomon himoya qilmaydi).

3. Shisha filtrlar eng keng tarqalgandir. Ularning bir necha modifikatsiyasi mavjuddir.

a) Oddiy shisha filtrlar, odatda osiyoda ishlab chiqilgan (Defender GL14V, Optical Class) o'zini effektivligi bilan taxminlangan turli filtrlarga tengdir. Ularni ko'plari sifat sertifikati va boshqa hujjatlar bilan ta'minlanmaydi.

b) Yerga ulagan shisha filtrlar sezilarli darajada effektivdir: ular qisman statik zaryadni kamaytiradi, elektromagnit maydon, ul'trabinafsha nurlari kuchini kamaytiradi, sur'at kontrastligini oshiradi. Bu filtrlar juda avtomatlashgandir.

v) To'liq himoyali shishali filtrlar (Ergoster Xenium Vnus) - odatda, yuqori sifatli mahsulotdir, optik oyna asosida ko'p qatlamli maxsus o'qlamalar bilan tayyorlangan, o'zida polirizasiya fil'trni ham mujassam etgan. Bu fil'trlar ultrafiolet nurlarini, statik maydonlarni bartaraf etadi ko'p darajada elektromagnit maydon va rentgen nurlanishlarini

kamaytiradi. Suratda sakrashlar bo'lmaydi, suratni kontrastlilik oshadi, lekin bu filtrlar juda qimmatdir.

g) Rossiya federasiyasida ishlab chiqilgan filtrlar shishali filtrlar (Global Shield va Defended Argon filtrlari) ular ham to'la himoya sinfiga mansub. O'zini xarakteristikasi bilan xorijiy filtr namunalardan qolishmaydi, 2-3 marotaba arzon, nisbatan yangi filtrlar ularni sifati ko'pgina texnik xulosalar va sertifikatlar bilan tasdiqlangan, ular mehnat prinsipi past ITI testdan o'tkazilgan, shvesil nurlanishdan himoya va ko'rsatkich vositalari ergonomikasi ITU dan ham sinovda o'tkazilgan rejim Davlat Standarti sertifikati va gigiyena sertifikatiga ega.

Kompyuter xonasida hamma jihozlar elektr tokida ishlaydi. Shuning uchun elektrdan shikastlanishiga uchrash mumkin. Buning oldini olish uchun kompyuterlarni yerga ulash talablariga amal qilish shart. Hamma kompyuterlarda elektr tarmog'iga ulash uchun maxsus sistema ishlatiladi va unda "0" ulash himoyasi qo'llanilgan. "0" ga ulash himoyasi bu "0" simini korpuslarga bog'lash va har xil issiqlikda ishlaydigan avtomatlarni ishga tushiruvchi sistemadir. Himoyalovchi yerga ulash qurilmalari 2 xil:

1. Konturli yerga ulash;

2. Tashqariga chiqarilgan yerga ulash – bu usul ko'pincha ulovchi asbob – uskunalar turgan joydan tashqariga chiqarib ma'lum bir maydonchaga to'planib o'rnatiladi. Yerga ulashning bu turi asosan kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan qurilmalarda ishlatiladi. Buning afzalligi shundaki, elektrod vazifasini bajaruvchi qoziqlarni yerga qoqish uchun qarshiligi kam bo'lgan yerlarni tanlash imkoni bor.

Elektr tokidan zararlangan insonga birinchi yordam ko'rsatish

Shikastlangan odamni elektr toki ta'siridan bir necha usullar bilan xalos qilish mumkin.

• Agar tok urgan kishi hushidan ketgan bo'lsa, unga medisina yordamini ko'rsatish kerak bo'ladi.

Yong'in chiqish sabablari Elektr toklarini qisqa tutashuvi natijasida kuchlanish ortib qizish yuzaga keladi. Natijada yong'in chiqish xavfi tug'iladi. Bu yong'in chiqish sabablaridan biri hisoblanadi. Xonalarning yong'inga qarshi toifasiga qarab bo'linadi. Yong'in chiqqan paytda operator darhol yong'inni sababini bilishi va uni bartaraf etish usullarini ko'rishi lozim. Buning uchun elektr tokidan yong'in chiqqan bo'lsa liniyani elektr tokidan uzib, so'ng o'chirishga kirishish kerak. Shu bilan birgalikda o't o'chiruvchi guruhlariga xabar qilishi lozim. Yong'in kuchaygan holatda evakuasiya yo'llari orqali (qo'shimcha chiqish eshiklari) ishchilarni evakuasiya qilish kerak.

Hosil bo'ladigan nurlarning dozametrik miqdorlari va ularning o'lchov birliklari haqida ma'lumot

Nurlanish dozasi deb - ionlash va malekulyar muhitni uyg'otishga sarf bo'ladigan massa birligidagi nurlanuvchi modda yutadigan energiya miqdoriga aytiladi.

Nurlanish miqdorlari turli ifodalanadi. Masalan, yutiladigan (jalb qilingan) doza birligini grey (Gy) dj/kg, rad, erg/g larda ifodalash qabul qilingan. 1 Gy - 1,0 Dj/kg, 1rad=100 erg/g=1.10 Dj / kg. ga teng. Ekspozision miqdor uchun birlik sifatida kulon kilogramm (Kl/kg) rentgen qabul qilingan.

Rentgen zaryad (r) yig'indisi bir elektro statik birlikka teng elektr tashkil qiladigan (1sm. kub havoda normal sharoitda) 0,001292 g.havodagi ionlar hosil qiluvchi rentgen yoki nurni ifodalaydi.

Nurlanish kasalligidan saqlanish, ishlayotgan xodimlarni xavfsiz mehnat sharoiti bilan ta'minlash va ularni xavfli vaziyatlardan ogohlantirish maqsadida yo'l qo'yiladigan doza miqdori (YQDM) va yo'l qo'yiladigan izotopning aktivligi (YQIA), radiasiya xavfsizligi normalariga (RXN-76) asosan belgilanadi.

Vaqt birligida nurlanish miqdori energiyasi R/soat, MkR/soat, mber/yil (biologik rentgenning ekvivalent) birligida o'lchanadi.

Nurlanish xavfsizligi normalariga asosan (NXN-76) shaxslar kasbiga mos ravishda quyidagi guruhlariga bo'linadi.

A-guruh-ionlavchi nurlar manbalari bilan doimiy muloqatda ishlaydigan kasb egalari.

B-guruh-radiaktiv nurlar manbalari bilan ishlamaydigan, lekin ish joyi va yashash sharoiti bo'yicha radiaktiv moddalar yoki boshqa manbalar ta'sirida bo'ladigan shaxslar.

V-guruh- barcha yashaydigan aholiga mansub.

Tana a'zolarini ham nurlar ta'siri bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin.

Birinchi guruh - badan, suyak, qizil tanacha va boshqalar.

Ikkinchi guruh - qalqonsimon bez, yog'li tuqima, jigar, buyrak, taloq, oshqozon, ichak yo'llari. upka, ko'z qorachig'i va boshqalar.

Uchinchi guruh - teri qoplamasi, suyak tuqimachasi, ko'l barmoqlari, bilak, kaft, tovon kiradi. Bu nurlar bilan ishlovchi kasb egalari uchun tashqi nurlanish doza yig'indisi (biologik ekvivalent radiasiya) bir yilga 5 ber va 30 yilda yig'iladigan miqdori esa 60 berdan oshmasligi kerak.

Izotoplarning yo'l qo'yiladigan aktivligi bo'yicha (kyuri/letr) radiaktiv moddalar 4 guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga – o'ta yuqori radiaktiv izotoplar. Masalan: S, S₂, R₃ va boshqalar. Bu moddalar uchun IYKA = 1.10¹³ kyuri/letrni tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga - yuqori radiaktiv izotoplar (Na, Co, S, Ag , va boshqalar) IYKA-1,10¹³ - 1,10¹⁶ kyuri/letr belgilangan.

Uchinchi guruhga- o'rtacha radiaktiv izotoplar (Va, Na, S, Mn, Zn, R va boshqalar) IYKA=1,10¹⁶ - 1.10¹⁹ kyuri/letr belgilangan.

Turtinchi guruhga - aktivligi 1.10¹⁹ kyuri/letr bo'lgan vodorod N, korbon SO, azot, argon, indiy va boshqalar kiradi.

Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda himoya usullari

Radiaktiv moddalar bilan ishlashga mo'ljallangan korxonalar va tashkilotlar, muassasa va ayniqsa turli laboratoriyalar va kompyuterlardan foydalanishdan oldin maxsus komissiya tomonidan qabul qilinishi talab qilinadi va 3 yil muddatga belgilangan pasportni taqdim etadi. Albatta, konteynerlar, vositalar, asboblar, binolarga radiasiya xavfsizligiga oid tegishli belgilar o'rnatiladi.

Korxonalar ham bir yilda ishlatiladigan radiaktiv moddalar miqdoriga qarab 3 toifaga bo'linadi:

1-toifa 100 kyu dan ko'p radiaktivlik mavjud.

2-toifaga -10-100 kyu oralig'idagi korxonalar.

3-toifa esa 10 kyu gacha bo'lgan korxonalar.

Korxonalar rahbariyati tomonidan ishning tartibi, shaxsiy profilaktika ishlari, ko'rsatmalar tayyorlash, dozimetrik nazorat, ishlarni to'g'ri tashkil etish vazifasi yuklatiladi.

Himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan manbaning xususiyati, moddaning turi, fizik holati, nurlanish turi va energiyasi, aktivligi, parchalanish davri, zaharli xossalari, manba bilan ishlash vaqti e'tiborga olinishi zarur.

Tashqi nurlanish - oqimidan himoyalash, **nurlanish** vaqtini kamaytirish, manbagacha bo'lgan masofani kamaytirish yoki ko'paytirish, himoya ekranlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ichki nurlanishdan himoyalashda ochiq holdagi radiaktiv moddalar bilan aloqani bo'lmasligi, havoni radiaktiv moddalar ifloslanmasligi, ish zonasidagi havoda radiaktiv moddalarning bo'lmasligi choralari ko'riladi. 18 yoshga to'lmaganlarga bunday joylarda ishlashga ruxsat berilmaydi. Moddalar maxsus idishlarda tashiladi va shkaf-bokslarda saqlanadi. Himoya vositalari **sifati** rezina qo'lqop, xalatl, oyoq kiyim, oynaklar, gazniqoblar, respiratorlardan foydalaniladi.

Radiaktiv chiqindilar maxsus joylarga ko'miladi va doimiy nazoratda bo'ladi.

Nurlanishni o'lchash- (rengen va gamma) nurlar (PM-IM), Argun dozimetrlari (RGTS-1, ID-1) tipidagi asboblar bilan o'lchanadi.

Bugungi kunda – zamonaviy axborot vositalari orqali himoyalashni yangi usul va vositalari tavsiya etilmoqda.

Kompyuter bilan ishlashda sodir bo'ladigan xavfli omillar to'g'risida ma'lumot Ionlovchi nurlar va ularning turlari.

Kompyuter bilan ishlashda sanoat korxonalarida ilmiy tadqiqot ishlarida, texnologik jarayonlarda, mahsulotlar, moddalar sifati va kamchiliklarini aniqlashda radiaktiv moddalar va ular bilan jihozlangan o'lchov asboblardan foydalaniladi. Shu sababli ulardan foydalanishda, insonlar uchun sog'lom muhit yaratishda, radiatsiya xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Oxirgi yillarda radiatsiya xavfsizligi normalari (NRB-76) va ionlovchi nurlar manbalari bilan xavfsiz ishlash koidalari (OSP-72) ishlab chiqildi va shu asosda ishlar tashkil etilmoqda. Bular asosida ikki yo'nalishda xavfsizlik qoidalari ta'minlanmoqda.

1. Loyiha, texnik, tibbiy, sanitariya va gigiyena chora tadbirlarini qullash orqali ishlovchi xodimlar va aholini nurlanish darajasini yo'l qo'yiladigan darajagacha kamaytirish.

2. Aholi va xududlarni radioaktiv ifloslanishi, nurlanishi haqida ma'lumotlar berish, samarali nazorat tizimini yaratish.

Muhit bilan ta'sirlanib, turli sonlarda elektr razryadlarini hosil qiladigan nurlar ionlovchi nurlar deb ataladi.

Bu turdagi nurlarga: $\alpha\beta$ - zarrachalar, h - neytronlar, (P) - protonlar va boshqalar misol bo'ladi.

α - **nurlanishi** - geliy atomi yadrosi oqimidan iborat bo'lib, kamroq o'tish va yuqori darajada ionlash qobiliyatiga ega.

β - **nurlanishi** - elektronlar va pozitronlar oqimidan iborat bo'lib - α -zarrachaga nisbatan ko'prok o'tish va kamroq ionlash qobiliyatiga ega.

Foton nurlanish - 300000 km/s doimiy tezlikda tarqaladigan elektromagnit tebranish oqimidan iborat bo'ladi. Foton nurlanishga γ -nuri, rentgen nuri misol bo'ladi.

γ - **nurlanish** - gamma kvantlar oqimi hisoblanib, tulqinligi ($10^9 - 10^{12}$ sm bo'lgan elektromagnit nurlardan iborat bo'ladi.

Rentgen nurlanish quvvati 1 keV - 1MeV bo'lgan nurlar yig'indisidan iborat bo'lib, qisqa to'liqida ($10^{10} - 10^{13}$ sm) va chastotada ($10^{18} - 10^{22}$ Gs) mavjuddir.

Ionlovchi nurlarning odam organizmiga ta'siridan ham murakkab fizik va biologik jarayonlar sodir bo'ladi. Natijada ichki organlarning normal ishlash faoliyati buziladi, qattiq va saqlanuvchi turdagi «nur» kasalligi paydo bo'ladi. Bu holatda bosh og'riydi, uyqu rejimi buziladi, ishtaha kamayadi, modda almashinuvi, oshqozon va yurak faoliyati) o'zgaradi. Yurak muskulida qon quyilishi va jinsiy organlarni ishdan chiqishi sodir bo'ladi. Ko'p hollarda terini qurib qolishi, mo'rtlashishi, sochning to'qilishi, ko'r bo'lib qolish hollari uchraydi. Shu sababli, barcha ishlar «Nurlanish xavfsizligi maxsus xizmati» nazorati asosida amalga oshiriladi.

Kompyuter monitorida sodir bo'ladigan elektromagnit nurlanish

Elektromagnit nurlanishlar turli chastotalarda, aloqa tarmog'ida, xususan, kompyuterda sodir bo'ladi. Radio texnika qurilmalarida antenaga generatorlar, antena qurilmalari, yuqori chastotali transformatorlar, fider yo'nalishlar, materiallarni termik islov berish uchun qurilmalarda - elektromagnitlar, kondensatorlar elektromagnit nurlanish manbai sanaladi.

Ko'rsatilgan qurilmalar ishida ularni o'rab turgan hajmda ya'ni joyda elektromagnit maydonlar bunyod bo'ladi. Elektromagnit maydonlar foydali harakati bilan bir qatorda inson tanasiga kirib, unga noqulay, salbiy ta'sir ko'rsatishi va kasbiy kasalliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ular asab, endokrinologik va yurak-qon tomirlari tizimi kasallanishini chaqirishi mumkin, insonda qon bosimi pasayadi, pulsi sekinlashadi, reflekslar tormozlanadi, qon tarkibi o'zgaradi. Elektromagnit maydonlar organizmga issiqlik ta'sirida o'z aksini berishi mumkin. Inson tanasiga yutilgan elektromagnit maydonlar quvvati tanani va ayrim organlarni qizishini yuzaga keltirib, issiqlikka aylanib, kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, miya, ko'z, ichak, buyrak va urug'donlar elektromagnit maydonlar ta'siriga yo'naladi. Elektromagnit maydonlarining ta'siri sub'yektiv bunyod bo'lishi juda toliqish, bosh og'riq,

jizzakilikda, seruyqulik, nafas siqishi, ko'rish qobiliyatining yomonlashuvi, tana haroratining ko'tarilishida o'z ifodasini topadi.

Elektromagnit maydonlar ta'sirida zararlanish darajasi nurlanish sur'ati, harakat chastotasi davriga bog'liq. Elektromagnit maydonlar sur'ati, harakat chastotasi va davri qanchalik ko'p bo'lsa, inson organizmiga ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi.

Elektromagnit maydonlarning insonga zararli ta'sirlarini ogohlantirish maqsadida ish joylarida elektromagnit maydonlar energiya oqimi mustaxkamliligini ta'minlovchi moslamalardan foydalaniladi.

Elektromagnit maydonlarni ta'siridan himoyalashning asosiy usullari va vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Kompyuyer xonasini himoyalashning tashkiliy choralari.
2. Manbadan nurlanishning jadalligini kamaytirish, yangi ekranlardan foydalanish.
3. Nurlanish manbaining ekranlashuvi.
4. Nurlanish manbaidan ishchi o'rinlarini ekranlashtirish va yoki ajratish.
5. Xabar berish vositalarini qo'llash.
6. Individual himoya vositalaridan foydalanish.

Ishning muayyan sharoitlariga bog'lik tarzda shu vositalardan biri yoki ularning ixtiyoriy kombinasiyasidan foydalanish mumkin.

Tashkiliy choralar: uskunalarining rasional joylashuvi, qurilmalar va xizmat kursatilayotgan xodim ishi muayyan rejimini belgilashdir.

Yuqori va o'ta yuqori chastotali qurilmalar ishiga tibbiy kurikdan o'tgan 18 yoshdan kichik bo'lmagan, texnika xavfsizligi bo'yicha o'qib, imtixon topshirgan shaxslarga ruxsat etiladi. Har yili xizmat ko'rsatayotgan xodim tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Agar ish yuqori xavfli sharoitlarda, nurlanishda, ketayotgan bo'lsa, xodimlar uchun qiskartirilgan ish kuni va qo'shimcha ta'til belgilanadi.

Hosil bo'ladigan nurlarning dozametrik miqdorlari va ularning o'lchov birliklari haqida ma'lumot.

Nurlanish dozasi deb - ionlash va malekulyar muhitni uyg'otishga sarf bo'ladigan massa birligidagi nurlanuvchi modda yutadigan energiya miqdoriga aytiladi.

Nurlanish miqdorlari turli ifodalanadi. Masalan, yutiladigan (jalb qilingan) doza birligini grey (Gy) dj/kg, rad, erg/g larda ifodalash qabul qilingan. 1 Gy - 1,0 Dj/kg, 1rad=100 erg/g=1.10 Dj / kg. ga teng. Ekspozision miqdor uchun birlik sifatida kulon kilogramm (Kl/kg) rentgen qabul qilingan.

Rentgen zaryad (r) yig'indisi bir elektro statik birlikka teng elektr tashkil qiladigan (1sm. kub havoda normal sharoitda) 0,001292 g.havodagi ionlar hosil qiluvchi rentgen yoki nurni ifodalaydi.

Nurlanish kasalligidan saqlanish, ishlayotgan xodimlarni xavfsiz mehnat sharoiti bilan ta'minlash va ularni xavfli vaziyatlardan ogohlantirish maqsadida yo'l qo'yiladigan doza miqdori (YQDM) va yo'l qo'yiladigan izotopning aktivligi (YQIA), radiasiya xavfsizligi normalariga (RXN-76) asosan belgilanadi.

Vaqt birligida nurlanish miqdori energiyasi R/soat, MkR/soat, mber/yil (biologik rentgenning ekvivalent) birligida o'lchanadi.

Nurlanish xavfsizligi normalariga asosan (NXN-76) shaxslar kasbiga mos ravishda quyidagi guruhlarga bo'linadi.

A-guruh-ionlavchi nurlar manbalari bilan doimiy muloqatda ishlaydigan kasb egalari.

B-guruh-radiaktiv nurlar manbalari bilan ishlaydigan, lekin ish joyi va yashash sharoiti bo'yicha radiaktiv moddalar yoki boshqa manbalar ta'sirida bo'ladigan shaxslar.

V-guruh- barcha yashaydigan aholiga mansub.

Tana a'zolarini ham nurlar ta'siri bo'yicha quyidagicha guruhlash mumkin.

Birinchi guruh - badan, suyak, qizil tanacha va boshqalar.

Ikkinchi guruh - qalqonsimon bez, yog'li tuqima, jigar, buyrak, taloq, oshqozon, ichak yo'llari. upka, ko'z qorachig'i va boshqalar.

Uchinchi guruh - teri qoplamasi, suyak tuqimachasi, ko'l barmoqlari, bilak, kaft, tovon kiradi. Bu nurlar bilan ishlovchi kasb egalari uchun tashqi nurlanish doza yig'indisi (biologik ekvivalent radiasiya) bir yilga 5 ber va 30 yilda yig'iladigan miqdori esa 60 berdan oshmasligi kerak.

Izotoplarning yo'l qo'yiladigan aktivligi bo'yicha (kyuri/letr) radiaktiv moddalar 4 guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga - o'ta yuqori radiaktiv izotoplar. Masalan: S, S₂, R₃ va boshqalar. Bu moddalar uchun IYKA = 1.10¹³ kyuri/letrni tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga - yuqori radiaktiv izotoplar (Na, Co, S, Ag, va boshqalar) IYKA-1,10¹³ - 1,10¹⁶ kyuri/letr belgilangan.

Uchinchi guruhga - o'rtacha radiaktiv izotoplar (Va, Na, S, Mn, Zn, R va boshqalar) IYKA=1,10¹⁶ - 1.10¹⁹ kyuri/letr belgilangan.

Turtinchi guruhga - aktivligi 1.10¹⁹ kyuri/letr bo'lgan vodorod N, korbon SO, azot, argon, indiy va boshqalar kiradi.

Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda himoya usullari.

Radiaktiv moddalar bilan ishlashga mo'ljallangan korxonalar va tashkilotlar, muassasa va ayniqsa turli laboratoriyalar va kompyuterlardan foydalanishdan oldin maxsus komissiya tomonidan qabul qilinishi talab qilinadi va 3 yil muddatga belgilangan pasportni taqdim etadi. Albatta, konteynerlar, vositalar, asboblar, binolarga radiasiya xavfsizligiga oid tegishli belgilar o'rnatiladi.

Korxonalar ham bir yilda ishlatiladigan radiaktiv moddalar miqdoriga qarab 3 toifaga bo'linadi:

1-toifa 100 kyu dan ko'p radiaktivlik mavjud.

2-toifaga -10-100 kyu oralig'idagi korxonalar.

3-toifa esa 10 kyu gacha bo'lgan korxonalar.

Korxonalar rahbariyati tomonidan ishning tartibi, shaxsiy profilaktika ishlari, ko'rsatmalar tayyorlash, dozimetrik nazorat, ishlarni to'g'ri tashkil etish vazifasi yuklatiladi.

Himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan manbaning xususiyati, moddaning turi, fizik holati, nurlanish turi va energiyasi, aktivligi, parchalanish davri, zaharli xossalari, manba bilan ishlash vaqti e'tiborga olinishi zarur.

Tashqi nurlanish - oqimidan himoyalash, **nurlanish** vaqtini kamaytirish, manbagacha bo'lgan masofani kamaytirish yoki ko'paytirish, himoya ekranlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ichki nurlanishdan himoyalashda ochiq holdagi radiaktiv moddalar bilan aloqani bo'lmasligi, havoni radiaktiv moddalar ifloslanmasligi, ish zonasidagi havoda radiaktiv moddalarning bo'lmasligi choralari ko'riladi. 18 yoshga to'lmaganlarga bunday joylarda ishlashga ruxsat berilmaydi. Moddalar maxsus idishlarda tashiladi va shkaf-bokslarda saqlanadi. Himoya vositalari **sifati** rezina qo'lqop, xalatlarda, oyoq kiyim, oynaklar, gazniqoblar, respiratorlardan foydalaniladi.

Radiaktiv chiqindilar maxsus joylarga ko'miladi va doimiy nazoratda bo'ladi.

Nurlanishni o'lchash- (rengen va gamma) nurlar (PM-IM), Argun dozimetrlari (RGTS-1, ID-1) tipidagi asboblar bilan o'lchanadi.

Bugungi kunda - zamonaviy axborot vositalari orqali himoyalashni yangi usul va vositalari tavsiya etilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Kompyuter sinflarida yong'in xavfsizligini ta'minlash masalasi
2. Shovqin
3. Ko'zning doimiy zo'riqishi
4. Elektrostatik va elektromagnit maydonlarni organizmga ta'siri
5. Kompyuter oldida uzoq o'tirishning mehnat unumdorligiga ta'siri
6. Operatorning ishchi joyini tashkil etish
7. Monitoridan insonning ko'zigacha bo'lgan optimal masofa
8. Kompyuter bilan ishlaganda charchash sabablari
9. Hosil bo'ladigan nurlarning dozametrik miqdorlari
10. Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari
11. Radiaktiv moddalar va nurlanish manbalari bilan ishlashda himoya usullari
12. Kompyuter bilan ishlashda sodir bo'ladigan xavfli omillar to'g'risida ma'lumot
13. Kompyuter monitorida sodir bo'ladigan elektromagnit nurlanish

Adabiyotlar ro'yxati

1. V.E.Figurnov. IBM PC dlya polzovatelya, -M.,1997.
2. M. Aripov. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. Gumanitar mutaxassislar uchun o'quv qo'llanma. Universtitet 2001
3. Nasriddinova Sh.S. WINDOWS-95. uchun EXCEL 7.0 sa'kifalarida.-T: "O'zbekiston" 1999. 116 b.
4. Rahmonqulova S. I. IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash. Toshkent, "Sharq", 1998.
5. Bekmurodov Q.A. Maykrosoft offis-97. Ukuv kullanma. SamDU nashriyoti. 2000. 131 b.
6. Bekmurodov Q.A, Eshonkulov D. Informatika va xisoblash texnikasi. Ma'ruzalar matni. SamDU nashriyoti. 2001. 160 b.
7. Nurmuxammedov T.A. IVM RS va DOS bilan tanishuv. "Kompyuter savodxonligi" to'plami. 1-3kitoblar. T. 1996.
8. Sattorov A., Kabirov A.G., MS EXCEL 7.0. Uchebnoye posobiye. UMED. 1999.
9. Sattorov A., Kabirov A.G., E-MAIL i INTERNET dan foydalanish. Uslub. Qo'llanma. JIDU, 1999.
10. M.Aripov. «Internet va elektron pochta asoslari», Toshkent, 2000.
11. Aripov M., Muxammadiyev X. Informatika va informasion texnologiyalar. Toshkent,2005.
12. Yu. Shafrin. Osnovy kompyuternoy texnologii,-Moskva, 1997.
13. M.M. Aripov, T. Imomov, R.M. Irmu'kammedova, M.V. Sagatov, A.T. Haydarov, O.X. Yakubov. Informatika, informasion texnologiyalar, I-qism, Toshkent «TDTU»,2002.
14. M.M. Aripov, A. Axmedov, X.Z. Ikramova, R.M. Irmu'kammedova, M. Yakubova. Informatika, informasion texnologiyalar, II-qism, Toshkent, Universitet 2001.
15. Microsoft Office 2000/ -M., 2000.
16. Simonovich S. I dr. Spetsialnaya informatika. Uchebnoye posobiye. Moskva, 2002.

Internet saytlari.

www.faryus.com

[PowerPoint Presentation](#)

www.bilim.uz

<http://www.postmodern.narod.ru/>

<http://www.km.ru/>

<http://nrc.edu.ru/est/>

<http://www.distance.ru>

www.bilimdon.uz

WWW.ictcouncil.gov.uz

http://www.distance_farpi.uz

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Фуломов С.С., Алимов Р.Х., Лутфуллаев Х.С., ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари. Тошкент.: "Шарқ", 2000 й.
2. Кузин А.В., Демин В.М. "Разработка баз данных в системе Microsoft Access" Учебник. –М. ФОРУМ: 2005. 224 с.
3. Ходиев Б. Ю., Мусалиев А.А., Бегалов Б.А., «Введение в информационные системы и технологии». Ташкент ТГЭУ, 2002г.
4. С.М.Диго «Базы данных: проектирование и использование» Учебник –М.: Финансы и статистика, 2005г.-592с
5. www.search.re.uz - Ўзбекистоннинг ахборотларни излаб топиш тизими.
6. <http://www.icsti.ru> – илмий ва техник ахборотлар халқаро марказининг сервери. Турли билимлар соҳаси бўйича маълумотлар базасига кириш имкониятини ва чет эл миллий ҳамда халқаро ЭҲМ тармоқларига киришни тامينлайди.
7. Аҳолини ва худудларни фавқулудда вазиятлардан ҳимоялаш, Ўқув кўлланма, ГСЧС, Тошкент, 2003.
8. Фукаро муҳофазаси меъёрлари ва қоидалари СНИП ИТМ ГЗ -93, 1993.
9. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. А.Кудратов, Т. Ганиев ва бошқалар. Тошкент, Алоқачи,2005